

74  
TP 98

To'xtayeva Z.SH.

# MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

---

*Darslik*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI



TO'XTAYEVA Z.SH.

*Maxsus fanlarni  
o'qitish metodikasi*

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKHLARI TALABALARI UCHUN

DARSLIK

BUXORO-2020  
«DURDONA» NASHRIYOTI

**74.00я7**

**37.091.3**

**T 98**

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Z.Sh.To'xtayeva –  
Buxoro: "Sadiddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2020. – 196 b.

**BBK 74.00я7**

**UDK 37.091.3**

### **TAQRIZCHILAR:**

Olimov Sh.Sh.

"Pedagogika"

- Buxoro Davlat universiteti

kafedrasi mudiri, p.f.d., professor

Axmetjanov M.M.  
instituti

- Buxoro muhandislik-texnologiya

"Metrologiya va standartlash" kafedrasi  
professori, p.f.n.

Mazkur darslikda O'zbekistonda kadrlar tayyorash milliy modeli mujassamlashgan ta'lim va uning talablari asosida zamonaviy mutaxassis tayyorlashning huquqiy asoslari, o'quvme'yoriy hujjatlar, maxsus fanlarning o'quv-uslubiy ta'minoti, ilmiyatdagi metodlarini qo'llash va o'qitish, o'quv maqsadlari va mazmunini belgilash, o'qitish vositalari va didaktik materiallar tayyorlash, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi, maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalar, faol metodlarni qo'llish, maxsus fanlardan ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash kabi mavzular yoritilgan. Darslikni oliy va professional ta'lim muassasalarining muhandis-pedagoglari, barcha magistratura mutaxassisliklari magistrleri uchun tavsiya qilish mumkin.

*Mazkur darslik Buxoro Muhandislik-Texnologiya Institutining 2020 yil  
30-maydag'i 8-sonli buyrug'iga asosan nashr qilishga ruxsat etilgan.*

*84792*

**ISBN -978-9943-6896-4-0**

© To'xtayeva Z.Sh.

## **АННОТАЦИЯ**

Данный учебник охватывает национальную модель обучения в Узбекистане и правовые основы современного обучения на основе его требований, учебно-нормативных документов, учебно-методического обеспечения специальных дисциплин, использования методов исследования и преподавания, определение учебных целей и содержания, подготовка учебных и дидактических материалов, методики теоретического и практического обучения, педагогические технологии в преподавании специальных предметов, применение активных методов, оценка знаний, навыков и компетенций учащихся. Учебник может быть рекомендован для инженеров-педагогов вузов и учреждений профессионального образования, магистров всех магистерских специальностей.

## **ANNOTATION**

This textbook covers the national model of education in Uzbekistan and the legal foundations of modern education on the basis of its requirements, educational and normative documents, educational and methodological support of special disciplines, and the use of research methods and teaching, the definition of educational goals and content, the preparation of teaching and didactic materials, methods of theoretical and practical training, pedagogical technologies in the teaching of special subjects, the use of active methods, special subjects. Topics, such as assessing students' knowledge, skills, and competencies, are also covered. The textbook can be recommended for engineers and teachers of universities and vocational education institutions, masters of all master's specialties.

## KIRISH

Jahon hamjamiyati sari zalvorli, asrlarga teng keladigan muhim yo'lni bosib o'tgan mustaqil respublikamiz uchun yuqori malakali, keng ixtisosli, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi isbot talab etmaydigan dolzarb masaladir,

Inson - tabiatning oliy mahsuli. Pedagogika insonni o'rganuvchi fan bo'lganligi sababli ham ziddiyatli, dialektik rivojlanuvchi xususiyatga ega. Shuningdek, har bir shaxsning o'zi bir olam. Mustaqil, o'zi ustida ishlamasdan hech bir ishda, shuningdek, ta'lif-tarbiyada ham yuksak natijaga erishib bo'lmaydi. Kim ishdan qo'rqlas, u o'zini haqiqatni bilishdan mahrum etgan bo'ladi.

Darhaqiqat, **pedagogika** - ta'lif, tarbiya va shaxsni rivojlantirish haqidagi fandir. Pedagogika grekcha "Paydos"- talaba va "ago" yetaklovchi so'zlaridan olingan bo'lib, u bevosita talaba, ya'ni yoshlarni tarbiyalash, o'qitish, ma'naviy va jismoniy rivojlantirish ma'nolarini o'ziga qamrab oladi. Insonning maxsus amaliy faoliyati sifatida pedagogika hazrati inson o'z aql-idrokiga, tilga va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan vaqt danoq shakllangan. Chunki dastlabki odamzod o'z surriyotiga tabiiy ofatlardan qanday saqlanib qolish, farovon va tinch yashash yo'llarini ularga yetaklab yurib o'rgatganligi tarixiy manbalarda e'tirof etilgan. Yoshi ulug' kishilar yoshlarning tabiat in'om etgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadida ularga yordam berishning eng yaxshi yo'llarini izlab, minglab yillar davomida ma'lum bilimlar (hayotiy tajribalar) to'plaganlar. Bu bilimlar hayot deb atalmish buyuk sinovda sayqallanib. uning eng foydali jihatlari e'tirof etilgan va muhimlari tizimlashtirilgan. Demak, vaqt o'tishi bilan pedagogika fan sifatida shakllangan.

Ma'lumki, har qanday fanning paydo bo'lishida hayot birlamchi hisoblanadi. Ta'lif-tarbiya ishi insonlar hayotida muhim rol o'ynay boshlaganligi sababli, ya'ni jamiyatning rivojlanishi bevosita ta'lif-tarbiya jarayoniga bog'liqligi anglangan paytdan boshlab maxsus ta'lif muassasalari tashkil etila borgan. Xitoy, Hindiston, Gretsiya kabi tarixiy davlatlarda ta'lif-tarbiya haqida dastlabki umumlashgan fikrlarga kelingan bo'lib. u keyinchalik butun dunyo ta'lif-tarbiyasining muqaddas beshigiga aylandi. Dastlab, tabiat, inson, jamiyat haqidagi bilimlarning barchasi falsafada mujassamlashtirildi.

Qadimgi yunonistonda Demokrit (469 -399 yillar eramizgacha), Platon (427-347 yillar eramizgacha), Aristotel (384-

322 yillar eramizgacha) kabi buyuk shaxslar yashab ijod etdilar va o'zlarining talim-tarbiya sohasiga oid qimmatli fikr-mulohazalari hamda g'oyalarini bildirdilar.

Grek-Rim pedagoglari fikrlarining ma'lum ma'noda o'ziga xos yakuni faylasuf va pedagog olim Mark Kvintilianning (eramizning 35-90 yillari) "Notiq ta'limi" asarida mujassamlangan. Bu asardan ta'lif-tarbiyalashda uzoq vaqtlar asosiy manba sifatida foydalanim kelingan. Shu bilan bir vaqtida xalq pedagogikasi ham tarkib topib, shaxsni aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Xalq tomonidan original va hayotiy ta'lif-tarbiya tizimi yaratildi. Masalan, Gretsiyada kimki biror ko'chat o'tkazib, uni parvarish etgan bo'lsa, u balog'atga yetgan deb hisoblanar edi. Buning natijasida Gretsiya to'liq va haqiqiy ma'noda o'rmon mamlakatiga aylangan.

Chet ellik va vatandosh olimlar Yan Ripka, K.V.Trever, E.E.Bertels, S.P.Tolstov, I.S.Braginskiy, B.G'afurov, M.Dekanov, X.Mirzazoda, M.Xayrullayev kabilarning tadqiqotlariga ko'ra Zardusht eramizdan oldingi VII asrning oxiri va VI asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan.

"Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, u o'n ikki ming ho'kiz terisiga bitilganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Avestoda har bir kasb-hunar sohibining jamiyatda tutgan o'rni alohida qayd etilgan. Dehqonlar bilan chorvadorlar jamiyat moddiy ne'matlarini yaratuvchisi sifatida ta'riflangan.

Qadimgi saklarning urf-odatlari, vatanparvarligi, jangovarligi, o'z eliga sadoqati haqida To'maris, Spitamen, Zarina, Shiroq kabi afsonalar ta'lif-tarbiya ishida muhim ahamiyat kasb etadi. IV asrlardan boshlab hozirgi Markaziy Osiyo hududida Zardushtiylik dinining ta'siri kuchaydi. U faqat sof din bo'lib qolmasdan, o'z davri ma'naviyatining muhim yo'nalishini belgiladi va xalq ijtimoiy-siyosiy tuzumi, madaniyati, urf-odati, axloqi, ta'lif-tarbiyasi va jamiyatni umumiy rivojlantirish masalalarini o'zida aks ettirdi. Zardushtiylik ta'lifotining asosiy qonun-qoidalari «Avesto»da o'z ifodasini topgan.

Boy tarixiy merosga ega yurtimizda mustaqillik yillarda Respublika ijtimoiy-siyosiy mustaqilligini mustahkamlashga bo'lgan ehtiyoj sezildi. Bu ehtiyojni qondirish omillaridan biri aholi, shu jumladan, yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishdir. Zero, milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lgan inson yurt mustaqilligi, xalq ozodligi yo'lida kurasha oldi. Shu bois so'nggi yillarda ta'lif

muassasalari, shuningdek, oliv o'quv yurtlarining talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 05 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017 yil 29 noyabrdagi PF-5264-sonli "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi qaror va farmonlarida ham bosh maqsad - xalqning turmush tarzi va farovonligini yanada yaxshilash, yoshlарimizni yuqori malakali yetuk mutaxassislar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018 yil 14 avgustdag'i PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 7 iyundagi PQ-4354-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari va 2017 yil 5 iyuldag'i PF-5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlari Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmonining mazmun-mohiyati ham yoshlarda milliy iftixor va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish masalalarining yechimini ta'minlashga yo'naltirilgandir.

2018 yil 14 avgustdag'i PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida shunday deyiladi: "Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor

bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda".

Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaatlari yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta'larning zamонавиy тизими, 11 yillik umumiy о'rta ta'lим joriy qilinmoqda, zamонавиy олиy ta'lим muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahibili bu borada ayrim muammolar to'laqonli hal etilmaganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;

ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga

nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

uchinchidan, talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar ob'yektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiylarining yetishmasligi ularning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'llini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

to'rtinchidan, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeい va nufuzi pasayib ketgan edi, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda;

beshinchidan, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarini bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;

oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Qayd etilgan muammolarning aksariyati bo'yicha shaxsan Prezidentimizning oqilona siyosatlari natijasida tub islohotlarda yaqqol ifodalamoqda, jumladan:

talabalarning tegishli soha bo'yicha ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarda ta'lim jarayonidan tashqari vaqtida mehnat faoliyati olib borishlariga shart-sharoit yaratildi;

"Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talabalarda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida mashhur shoir va yozuvchilar, soha mutaxassislarini ishtirokida uchrashuvlar, kitoblar taqdimoti va ko'rgazmalarini tizimli tashkil etilishi yo'lga qo'yildi;

talabalarni rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atga jalb etish maqsadida

uchrashuvlar, davra suhbatlari va master-klasslar o'tkazish, sport namoyondalari ishtirokida "Sport – salomatlik garovi" shiori ostida uchrashuv va mahorat darslari tashkil etishga e'tibor kuchaytirildi;

o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeい va nufuzi oshirildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining tubdan isloh qilindi;

yoshlarning oliy ta'lif muassasalariga qamrab olinish darajasi bir necha barobarga oshirildi, mutaxassislik fanlarining salmog'i oshirildi;

yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlandi, xorijiy olimlar tomonidan oliy ta'lif muassasasidagi Xalqaro anjumanlarga tashrif, mutaxassislik fanlaridan dars mashg'ulotlarini o'tish va o'qituvchilar jamoasi uchun innovatsion texnologiyalarga asoslangan "Mahorat darslari" tashkil etilishi yo'lga qo'yildi;

nufuzli xorijiy oliy ta'lif muassasalaridagi hamkorlar bilan qo'shma dasturlarga asoslangan guruuhlar tashkil etildi, xorojiy hamkorlar bilan o'quv-uslubiy adabiyotlar, elektron ta;lif resurslarini yaratish va yangilab borishga erishildi;

oliy ta'lif muassasasi Axborot resurs markazida barcha ta'lif yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha elektron ta'lif resurslari bilan boyitilgan elektron kutubxona, Moodle tizimidan foydalanish tizimi shakllantirildi;

ta'lif mazmuni bo'yicha fanlar kesimida o'quv-nazorat materiallarini Moodle platformasiga o'tkazish va shu asosida talabalar bilimini xolisona, adolatli baholash mexanizmlari yaratildi.

Yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta'lif-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq yo'l xaritalari ishlab chiqildi va ularning amaliy ijrosi yuzasidan qator ijobiy natijalarga erishildi, jumladan:

- yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

- yoshlarni yot g'oyalari ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;

- pedagog xodimlarning qadr-qimmati va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

- yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;

- talaba-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash.

Milliy tuyg'uning yoshlarni Vatan uchun fidoiy insonlar etib tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatiga to'xtalib o'tar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlaydi: "Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, o'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatlari bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. O'z xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini, millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas".

Yoshlar, shuningdek, talabalarning milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lislari ularning xalq, millat va vatan tarixini chuqr bilishlari, ajdodlarga munosib avlod bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash bilan birga, vatanparvar insonga xos muhim ma'naviy-axloqiy sifatlarni namoyon eta olishlari uchun ham sharoit yaratadi. Zero, vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazish respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi etib belgilangan. Vatanparvarlik milliy o'zlikni anglash negizida shakllanuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlardan biri ekanligiga e'tiborni qaratgan holda O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasi – keng jamoatchilik, olim, shoir va yozuvchilardan mafkura masalasiga jiddiy ahamiyat berishni talab etib, jamiyat oldida turgan eng muhim masala, bu milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etish ekanligini ta'kidladi. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi negizida yoshlar, jumladan, talabalarni ajdodlarga, ularning turmush tarzi, e'tiqodlari va hayotiy yondashuvlariga munosib etib tarbiyalash g'oyalari yotadi.

Oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy talablar talabalarni xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalashni taqozo qiladi.



# **1-MAVZU. O'ZBEKISTONDA KADRLAR TAYYORASH MILLIY MODELI MUJASSAMLASHGAN TA'LIM VA UNING TALABLARI ASOSIDA ZAMONAVIY MUTAXASSIS TAYYORLASHNING HUQUQIY ASOSLAI**



## **Reja:**

1. Kasbiy pedagogikaning qonun-qoidalari.
2. Kasb ta'lmini guruhlashtirish.
3. Ilmiy texnikaning asosiy yo'nalishi.
4. Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtir chiqarishga EHM va texnologiyani qo'llash.
5. Ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish.
6. Ta'lim va tarbiya prinsiplari.
7. Kasbiy ta'lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muzyorar, aqliy hujum, dialogik yondashuv, pinbord, klaster, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Tayanch iboralari: qonun-qoida, kasb ta'limi, ilmiy texnikaviy asos, keng profilli mutaxassis, mutaxassis modeli, ishlab chiqarish, bosqichli o'qitish nazariyasi, asosiy va maxsus o'quv jarayonlari, o'qituvchi usta, ta'lim prinsiplari.*

Umuman pedagogik, shu jumladan, kasbiy ta'lim jarayonining qonunlari ta'lim-tarbiya va talaba shaxsini rivojlantirish jarayonida ob'yekтив ravishda mavjud aloqadorlik va o'zaro munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Rus pedagog olimi L.D.Stolyarenko va uning maslakdoshlari tomonidan quyidagi ta'lim qonuniyatlari e'tirof etilgan bo'lib, ular bevosita kasbiy ta'limga ham tegishlidir:

kasbiy ta'lim jarayonining tizim shaklida yaxlit va uzviy aloqador hamda ma'lum o'zaro munosabatda bo'lgan komponentlardan iborat ekanligi;

ta'limning tarkibiy qismlari: maqsadi, mazmuni, metodlari, vosita va natijalarining ijtimoiy tuzumga bog'liqligi, ya'ni: ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoji va talablari, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalari,

madaniyat kabilarni pedagogik jarayonning barcha tashkil etuvchi komponentlarini shakllantirishga ta'siri;

ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tavsifga ega ekanligi;

ta'lim natijalarining talabalarning ongli, faol o'quv-bilish faoliyatlariga bog'liqligi;

kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik va ishlab chiqarish qonuniyatlarining hisobga olinishi, ularning birligi va o'zaro aloqadorligi;

kasbiy tayyorgarlik jarayonining o'zaro bog'liq nazariy va amaliy ta'lim integratsiyasidan iboratligi;

kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning yakkama-yakka (individual) va jamoaviy faoliyatlarining tashkil etilishi kabilar.

Uzlucksiz ta'lim, shu jumladan, oliy kasbiy ta'lim quyidagi pedagogik qonuniyatlarga asoslanadi:

kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi (muhandis-pedagog) va talabalar hamda o'r ganilayotgan ob'yektlarning o'zaro ta'siri;

kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning ongilibi, mustaqilligi va faolligi;

kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida uning ishtirokchilar (o'qituvchi va talabalar) maqsadlarining bir-biriga mushtarakligi;

kasbiy ta'lim-tarbiya ishi natijalarining talabalar ongli, faol o'quv-bilish faoliyatiga bog'liqligi;

kasbiy ta'lim-tarbiya, ya'ni pedagogik jarayonni tashkil etuvchi maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl, natija va ishtirokchilar orasida o'zaro bog'liqlik hamda munosabatlarning mavjudligi;

kasbiy ta'lim maqsadi, uning mazmuni va metodlari, metod va mazmuni maqsadga erishilganlik darajasini belgilashi;

kasbiy ta'lim mazmuni (o'quv materiali)ning vaqt, talabalar yoshi, tayyorgarlik darajasi va boshqa individual xususiyatlariga mos holda tashkil etilganda maqbul o'zlashtirilishi;

kasbiy ish-harakat usullari (ko'nikma va malakalar)ning asosi hisoblangan bilimlar mohiyatini anglagan holda ish-harakat operatsiyalarini takror bajarish orqali shakllanishi;

o'quv materialini puxta o'zlashtirilishi avval o'zlashtirganlariga tayanganligi va muntazam ravishda takrorlanganligiga bog'liqligi;

o'quv materialining maqsadga muvofiq holda shakllantirilganligi va talabalarga yetkazilishi;

o'zlashtirish sifat va darajasining talabalar imkoniyatlari, qiziqishi, idroki, tafakkuri, xotirasi, qobiliyati, o'qituvchi tomonidan uning ahamiyatli jihatlarini yoritilishi kabilarga bog'liqligi;

o'quv materialini o'zlashtirish maromi va puxtaligini o'qituvchi tomonidan aniq, lo'nda hamda qiziqarli yetkazilishiga bog'liqligi;

talabaning aqliy rivojlanganligi, o'zlashtirgan bilim, ish-harakat usullari, hayotiy tajribalariga bog'liqligi;

kasbiy ta'larning muvaffaqiyati, tezligi va natijalarining talabalar individual xususiyatlariga bog'liqligi;

talabalarda mustaqil ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish va rivojlantirishning ular oldiga muhim ahamiyatga ega hayotiy dolzarb muammolar yechimini topish vazifasining qo'yilganligiga bog'liqligi kabilar. Kasbiy ta'lim jarayonida ishlab chiqarishning quyidagi qonuniyatlarini hisobga olinishi zarur:

ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlari tavsifiga mosligi;

mulkchilik munosabatlari;

mehnat xarakteridagi o'zgarishlar;

talab va ehtiyojning ishlab chiqarish darajasidan yuqoriligi;

mehnatga yarasha taqsimot;

ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarishga nisbatan o'sishi;

rejali, proportsional rivojlanish;

moddiy ne'matlar yaratuvchi odamlar o'zlarining ongi, xulq-atvori va his-tuyg'ularini qayta ishlab chiqishi;

yirik mashinasozlik sanoatining uzluksiz ortib borishi;

ishlab chiqarish jarayonlarini tabaqaqlashtirish va integratsiyalashtirish;

ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish;

ishlab chiqarishni majmuaviy mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va robotlashtirish;

ishlab chiqarishning intellektuallashuvi;

mehnat resurslarining o'zaro taqsimlanish sur'atini ortishi;

xo'jalik hisoblari, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash;

sanoat sohasi bilan mashg'ul mutaxassislar sonini qisqarishi;

mehnatni jamoaviy tashkil etishning ortishi, demokratiyalash o'zini boshqarish va shu kabilar.

Ta'limgartarbiya ishi ma'lum me'yorlar doirasida amal qiladi. Bu me'yorlarsiz ta'limgartarbiya ishi mazmun, shakl, zamon, makon hamda natijalar nuqtai nazaridan samarasiz bo'ladi. Aslini olganda, maxsus ta'limgartu muassasalarida amalga oshiriladigan ta'limgartarbiyaviy ishlar aniq maqsadni ko'zlab reja asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda pedagogika fani alohida mustaqil sohalarga ajralgan bo'lib, ularni jadval shaklida quyidagicha tasvirlash mumkin.

### **Pedagogikaning sohalari va ularning asosiy vazifalari**

Umumiy pedagogika	Ta'limgartning umumiy qonuniyatlarini tadqiq etish
Yosh pedagogikasi	Ta'limgartarbiya ishini yosh xususiyatlariga bog'lab o'rganadi. Maktabgacha va maktab pedagogikasi. Androgogika (katta yoshlilar pedagogikasi), geragogika (yoshi ulug'larni o'qitish)
Ijtimoiy pedagogika	Talabalar va yoshi kattalarning mактабдан ташқари та'limgart nazariyasi va metodikasini ishlab chiqish
Maxsus pedagogika	Surdopedagogika (karlar va yomon eshitadiganlarni o'qitish); tiflopedagogika (ko'rлarni o'qitish); oligofrenopedagogika (aqli zaiflarni o'qitish); logopediya (tili chuchuklarni o'qitish)
Xususiy metodika	Alohida o'quv predmetlarini o'rganish qonuniyatlarini o'rganish
Pedagogika tarixi	Pedagogika tarixi va amaliyotining tarixiy davrlarini o'rganish
Sohalar pedagogikasi	Iqtisodiyot va madaniyatning aniq sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislarni o'qitish va tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish: harbiy, sport, kasbiy, ishlab chiqarish, kriminologiyaga oid va shu kabilar.
Qiyosiy pedagogika	Turli davlatlar yoki mamlakatlardagi ta'limgartizimining vazifalari va qonuniyatlarini tadqiq etish
Mehnat-tuzatish pedagogikasi	Barcha yoshdagi qonun buzuvchilarni qayta tarbiyalash metodikasini ishlab chiqish
Kasb-hunar ta'limgart pedagogikasi	Kasbiy ta'limgart qonuniyatlarini shart-sharoitlarini tadqiq etib amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqish

Shuningdek, pedagogika talabalar shaxsining rivojlanish bosqichlari, jismoniy holati, insonning aniq ko'rinishdagi faoliyatiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Shaxs rivojlanish bosqichlariga ko'ra pedagogika;
- 1) maktabgacha ta'lif-tarbiya pedagogikasi,
- 2) boshlang'ich maktab pedagogikasi;
- 3) umumiy o'rta ta'lif maktab pedagogikasi;
- 4) kasbiy ta'lif pedagogikasi;
- 5) oliy ta'lif pedagogikasi;
- 6) androgogika (katta yoshlilarni o'qitish).

II. Insonning aniq ko'rinishdagi faoliyatiga ko'ra u muhandislik-harbiy, sport ishlab chiqarish, musiqa, muzey, mehnat-tuzatish pedagogikalariga bo'linadi. Shuningdek, pedagogika tarixi; siyosiy pedagogika; etnopedagogika, tarbiya falsafasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik psixologiya, ta'lif sotsiologiyasi va shu kabilalar.

Ma'lumki, har qanday ta'lif-tarbiya ishida, shuningdek, kasbiy ta'lifda o'qituvchi va talabalar ushbu jarayon ishtirokchilari hisoblanadilar. Bu ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi natijasida, ya'ni ularning o'zaro ta'sir, muloqot va munosabatlari tufayli ta'lif-tarbiya jarayoni amalgalashadi.

Professional ta'lif muassasalariga talabalar umumiy o'rta ta'lif maktablarining to'qqizinchi sinflarini bitirganlar safidan qabul qilinadi. Odadta ularning yoshi 15-18 larda bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Vatandoshimiz yetuk psixolog olim E.G'oziyev va uning maslakdoshlari fikricha bu yoshdagagi o'spirinlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladilar:

- jismoniy barkamollikning ifodalanishi;
- ruhiy jihatdan muayyan ko'rsatkichga erishilganligi;
- xulq, faoliyat va muomala jarayonlarida individuallikning shakllanishi;
- e'tiqod, dunyoqarash va pozitsiyada barqarorlikning mavjudligi;
- bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda individuallik;
- faoliyatga oid individual uslubning paydo bo'lishi;
- kasbiy motivatsiyaning utsuvorligi;
- ma'nnaviy ehtiyoj, barqaror qiziqishning qat'ian yetakchiligi;
- mutaxassislikka munosabatning shaxsiy pozitsiyaga bo'yundirilganligi;

kollej va oliy maktab muhiti o'ziga xosligining ular shaxsiyatida ifodalaniishi;

amaliyot va muhitga moslashishning sifat jihatidan tafovutlanishi.

Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fani xulosalari professional ta'lilda talabalar o'z xulqi va o'quv-bilish faoliyatini boshqara olmasligini ko'rsatadi. Bundan kasbiy ta'lim jarayonida o'qituvchining o'rni muhim ekanligi kelib chiqadi.

Kasbiy ta'lim didaktikasining asosiy masalalaridan biri – ta'lim prinsiplaridir. Biz o'z ishimizda ta'lim qoidalari, tamoyillari va prinsiplarini sinonim sifatida e'tirof etib, xalqaro ko'lamda prinsip deb yuritilanligi bois ushbu iboradan foydalanamiz. Ta'lim prinsiplari – bu pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarini belgilovchi asosiy qoidalar tizimidir. Bu qoidalar tizimini bilmaslik yoki ularga asoslanishda no'noqlikka yo'l qo'yish butun yaxlit kasbiy ta'lim-tarbiya ishiga to'sqinlik qiladi.

Ta'lim prinsiplari tizimini birinchi bo'lib Ya.A. Komenskiy ilmiy asosda ishlab chiqdi. U bu prinsiplarni o'quv jarayonini tashkil etilishi uchun asos bo'ladigan qoidalar deb atagan edi.

Pedagogik jarayon amal qilishi zarur bo'lgan qoidalar, ya'ni prinsiplarning mohiyatini bilish ushbu jarayon haqida aniq bilimga ega bo'lismi imkonini beradi. Shu bois, biz quyida ularning ba'zi birlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Pedagogik jarayonning tizimlilik (yaxlitlik, bir butunlik) prinsipi – ta'lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi (kamoloti)ning uyg'unligi, muayyan tizimga ega ekanligini anglatadi,

2. Asoslanganlik prinsipi - turkum o'quv predmetlarini o'rganish ob'yekti (predmet, hodisa, jarayon, hatto tirik mavjudot sifatida inson)ning mohiyati, muhim xususiyatlari, aloqalari, ob'yektiv olam bilan muayyan munosabatlarini o'zida ifodalaydi. U har bir o'quv predmetini tegishli fan asoslari sifatida talqin etib, o'zi uchun "yadro", "o'zak" hisoblangan tizimlashtiruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladi va ushbu ma'lumotlarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi, uning aniq soha bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishida tayanch bo'lib xizmat qiladi. O'quv materialiga bunday yondashuv axborotlarning shiddatli oqimi sharoitida pedagogik jarayonni maqbullashtirish asosiy o'quv materialni mukammal o'zlashtirishga imkon beradi

3. Insonparvarlik prinsipi - pedagogik amaliyotda insoniyashtirish bilan birgalikda qo'llaniladi. Bu har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan yunoncha "humanus" - insoniylik va "humanitas" - insoniyat so'zidan olinib, bir o'zakka ega bo'lsada, ularning boshqa-boshqa ma'nolar anglatishi olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Insonparvarlik - ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlari mazmuniga inson omili, uning qadr-qiyomi, shani, ornomusi, huquq va burchlarini hurmatlash g'oyalarini singdirish zarurligini nazarda tutadi.

Insoniyashtirish prinsipi - ob'yektiv olamdag'i barcha ne'matlar, shart-sharoit, inson kamoloti, kishilik jamiyat farovonligi, tinchligi uchun xizmat qilishi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oya, hozirgi zamon va istiqbol talablari pedagogik jarayonga yakka hokimlik (avtoritor) tarzda yondoshmay, uni ishtirokchilarining hamkorligi asosida tashkil etib amalga oshirish zarurligini asoslaydi.

4. Uzlusizlik prinsipi - fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini - amaliyotga keng ko'lamma qo'llash hozirgi zamon va istiqbolda mustaqil ravishda ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun shaxsga uning butun umri uchun yetarli bo'lgan bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni belgilangan vaqt davomida berish mumkin bo'lmay, balki u butun hayoti davomida takomillashtirilib borishini nazarda tutadi. Mazkur prinsip o'qituvchidan ta'lim-tarbiya ishida talabalarning mustaqillagini ta'minlash uchun kerakli shart- sharoit yaratishni talab qiladi.

5. Nazariyaning amaliyot (hayot) bilan bog'liqlik prinsipi - talabalar o'zlashtirgan bilimlari ularning bevosita hayot faoliyatida qo'llangan yoki dasturulamal bo'lib xizmat qilgandagina ahamiyatli ekanligiga ishora qiladi. Amaliyotda qo'llanmagan bilimlar asossiz bo'lib, qisqa vaqt davomida unutiladi.

6. Ta'limning ilmiylik prinsipi. Bizni qurshab turgan olamni bilish jarayoni murakkab, ziddiyatli bo'lib, har xil bosqichlar, shakl va metod hamda vositalarini o'z ichiga oladi. Ilmiy bilish hodisadan mohiyatga, narsaning tashqi ta'siridan uning ichki tuzilishini tasvirlashga o'tishdan iboratdir. Agar o'quv materiali talabani qonunlar, tushunchalar, formulalar va teoremlar olami bilan tanishtirsa, bunday bilimlar ilmiy bilimlar deb ataladi. Ular aqliy

rivojlanish uchun yetakchi ahamiyatga egadir. Faqat ana shunday bilimlargina o'quv predmetining ilmiy mazmunini o'zlashtirib olishga, kelgusida esa fan asoslarini chuqurroq egallab, mehnatda faol ishtirok etishga imkon beradi.

7. Tushunarlilik prinsipi. Bilimlarni o'zlashtirishning osonligi, malaka va ko'nikmalarning, hosil qilinishi ularning talabalarning rivojlanish darajasi, shaxsiy tajribasi bilan aloqasini ko'rsatadi. Agar bunday aloqalarni aniqlab bo'lmasa, bilimlar tushunarli deb hisoblanmaydi.

Olamda barcha narsalar o'zaro bir-biriga bog'liq, barcha narsalar hodisalar o'rtasida aloqa mavjud. Shuning uchun barcha ilmlar, barcha o'quv predmetlari o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Talaba o'zlashtiradigan bilimlar insoniyat jamiyatni tajribasining bir zarrachasi hisoblanadi va shuning uchun ham yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan hamisha bog'lash mumkin.

8. Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi. Kishilik jamiyatni rivojlanishining ilk bosqichlarida o'qitish talabalarning kattalarga taqlid qilishlari, katta yoshdagi kishi bajargan amaliy hatti-harakatlarni takrorlash hisobiga olib borilardi. O'qitishning bu sodda shakli o'zining ishonarli va samarali bo'lganligi tufayli hozirgi kungacha saqlanib qoldi. XVII asrda Ya.A.Komenskiy ko'rgazmalilik tamoyilini har qanday tarzdagi o'qitishning muvaffaqiyatli bo'lishi negizi sifatida tarifladi. I.G.Pestalotsasi bu tamoyilni o'qitishning asosiy vositasiga aylantirdi.

Ko'rgazmalilik tamoyilining hozirgi izohi quyidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi:

1. Ko'rgazmalilik deganda talabaning hissiy bilishini tashkil qilish tushuniladi zarurligini asoslaydi.

2. Ko'rgazmali qurollardan foydalanish o'quv jarayonida hissiy bilishni tashkil etishning bir jihatni hisoblanadi.

9. Ta'limning onglilik va faollik prinsipi. Bu prinsip talabalarning bilish faoliyatiga asos qilib olingan qoida sifatida uchta muhim jihatni:

- talabalar tomonidan o'quv materialining ongli ravishda tushunilishini;

- o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lishni;

- bilish faoliyatining shakllanishini o'z ichiga oladi.

10.Ta'limning puxtalik prinsipi. O'quv materialini o'zlashtirishning puxtaligi ko'pgina omillarga:

- tushuntirishning ilmiyligi va tizimliligiga;
- tushunishning ongliligiga;
- talabalarning bilish faolligiga, o'qish sabablariga.

O'qituvchining mahorati va shu kabilarga bog'liq.

O'qitishning puxtaligi prinsipi – o'quv jarayonining bilimlar puxta bo'lishiga erishish imkonini beradigan jihatlarni tahlil qilishda asosiy qoida hisoblanadi.

11. Ta'limni individuallashtirish prinsipi. har bir talaba umumiylaridan tashqari individual xislatlarga ham egadir. Talabaning bilishi, irodasi, hissiyotiga oid xususiyati, shaxsiy xislatlari ta'limning borishiga ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki betaraf holishi mumkin. Talabalarning individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda mashg'ulot (dars) jarayonini tashkil qilish - o'qitishni individuallashtirish deb yuritiladi.

12. Kasbiy mobillik prinsipi – insonni tez fursat ichida hayotga tatbiq etilayotgan yangi texnika va samarali texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatini ko'zda tutadi. Mehnatning tezkor moslashuvchanligi, ijodiy tavsifi bevosita inson dunyoqarashi, bilimlar ko'laming kengligi, kasbiy faoliyatda uchraydigan muammolarning yechimini tezkorlik bilan topishiga bog'liq psixolog olim L.S.Vugotskiy iborasi bilan aytganda "Amaliyotdan ilgari yurib, u uchun yo'l ochib beradigan ta'lim yaxshi hisoblanadi". Shuning uchun ham bugungi talaba nimani bilishiga emas, balki nimani uddalay olishi va ertangi kunda nimalarga qodir bo'lishi mumkinligiga ahamiyat bermoq zarur.

13. Kasbiy ta'limning modullilik prinsipi – modulli ta'limning mohiyati shundan iboratki, talaba o'ziga berilgan axborotlar banki va metodik ko'rsatmalardan iborat shaxsiy o'quv dasturiga asoslanib mustaqil holda didaktik maqsadga erishadi. Modulli ta'lim maqsadi, mazmuni va tashkil etish metodikasi quyidagilarni aniqlashga imkon beradi: ta'lim mazmunan o'ziga xos dinamik o'zgaruvchan va tezkor bilimlarni ajratib olish; dasturi variativ xarakteriga ega; ijtimoiy buyurtmaga binoan mazmun o'zgaradi.

Modulli ta'limdan foydalanish o'quv materiallarini, ya'nini uning tashkil etuvchi qismlarini talab etilgan tarzda tuzishga imkon

beradi. Bu, o'z navbatida, yaxlitligini saqlab qolgan holda mazmunni o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish imkonini beradi.

Modullilik prinsipini amalga joriy etish quyidagilarni ta'minlaydi:

- sub'yekt maqsadlarga erishish uchun barcha faoliyat ko'rinishlarini integratsiyalashga va muntazam ravishda sub'yekt maqsadlariga yetishish borasida muqobil yechimlarni izlashga;

- istiqbolda sub'yektni kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo'naltirishga;

- modular hayotning barcha sohalaridagi, shu jumladan, fan-texnika, texnologiyalardan o'zgarishlarni tezkorlik bilan hisobga olish imkoniyatini beradi.

14. Qulay muhit hosil qilish prinsipi - eng avvalo mehnat va hayot xavfsizligi, moddiy-texnik va o'quv-uslubiy negiz, texnik, texnologik, ergonomik, iqtisodiy, pedagogik, sanitariya-gigiena, ekologik va shu kabi talablarga amal qilishni ko'zda tutadi. Bunday muhitni hosil qilish ma'lum ijtimoiy, psixologik, pedagogik tizimlarni ishlab chiqish va amalga joriy etishni talab etadi.

Me'yoriy mehnat sharoitini yaratish, pedagogik ta'sirni maqbullashtirish tizimi.

15. Politexnik prinsip - zamonaviy texnik va ishlab chiqarish texnologiyalarini umumiylasoslari bilan tanishtirish, tizimli bilim hosil qilish demakdir. Politexnik prinsipni amalga oshirish quyidagi shart-sharoitga amal qilishni talab etadi:

ta'lif-tarbiya mazmunini fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlariga mosligi;

o'quv materialini o'zaro aloqador yaxlit bilimlar shaklida tashkil etish;

o'rganilayotgan materialni bo'lajak kasbiy faoliyat bilan bog'lash;

o'quv materialining talabalar yoshi va individual xususiyatiga mosligi;

talabalarning bilish qiziqishlarini qondirish imkoniyatlari;

tayanch umumilmay bilimlar va ko'nikmalarga tayanish;

o'quv materiallarining barqarorligi va dinamik o'zgaruvchanligi;

tizimlilik;

ta'lif mazmunining moddiy-texnik bazaga mosligi;

ishlab chiqarish mehnatiga ta'sir etuvchi omillarning hisobga olinishi;

16. Ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo'shib olib borish prinsipi. Nazariy ta'lim bilan amaliyotning bog'liqlik prinsipi. Nazariya va amaliyotning aloqadorligi ikki tomonlama jarayon. Ular bir-biri bilan organik aloqador. Bu prinsipning amalga oshirilishi quyidagi shart-sharoitlarga amal qilinishiga bog'liq:

Nazariy bilimlar amaliyotga nisbatan ilgarilab borishi, amaliy mashg'ulotlarda uning to'g'riliqi tekshirilishi lozim.

Har qanday mehnat jarayonida turli soha bilimlari va malakalari sintezlanishi zarur.

Malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun soha bilimlari sintezlanishi lozim. Shu jihatdan ta'lim mazmunini integratsiyalash quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshirilishi kerak: birinchidan, yagona predmet doirasida kasbiy bilim va malakalarni birlashtirish, ikkinchidan, maxsus bilim va malakalarning o'zaro aloqadorligi gorizontal yo'nalishida mujassamlashtirish.

17. Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik prinsipi - ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning maqsadga muvofiqligi, ularga bo'lgan davlat va jamiyat ehtiyojlarida o'zaro mutanosiblik.

18. Ta'limda predmetlararo bog'liqlik prinsipi: ta'lim muassasalarida umumkasbiy o'tilayotgan umumta'lim, maxsus va umumkasbiy turkum o'quv predmetlari boshqa o'quv predmetlari bilan o'zaro bog'liq holda o'rganilishi lozim. Bunda o'quv predmetdagi mavzular takrorlanmasdan, balki bir-birini to'ldirib boradi.

19. Reduksiyalash prinsipi - fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliyotga keng ko'lam va tezkorlikda joriy etilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan axborotlarning shiddatlari oqimi sharoitida o'quv materialini imkonli boricha ixchamlashtirish, ya'ni eng muhim tizim hosil qiluvchi qismini ajratib olishni ko'zda tutadi. Bu ixchamlashtirish Davlat ta'lim standarti orqali belgilangan mazmunning yetarli va zarur darajasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasligi zarur.

20. Refleksivlik prinsipi - sub'yeqtning o'z shaxsiy faoliyatiga, o'zlashtirgan hayotiy tajribasiga baho berishi, o'zgalarning u

haqidagi fikrlari va ular bilan hamkorlik muloqoti va munosabatlarini tavsiflaydi.

21. Maqbullik prinsipi - pedagogik shart-sharoitlarning quayligi, mavjud imkoniyatning hisobga olinishi, oz vaqt, mablag' va zo'riqish kuchlari sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi.

22. Ta'lism-tarbiya jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv prinsipi - tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lism-tarbiya jarayonini samarali, xususan talabalarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichlariga o'tash imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni ko'zda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lism-tarbiyani ijtimoiylashtirish, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribaning individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishini ko'rsatadi.

23. Ijtimoiy-iqtisodiy ta'minot prinsipi - pedagogik jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini nazarda tutib, barcha turdag'i ta'lism muassasalari faoliyatini bu jarayon ishtirokchilari imkoniyatlari, davlat va jamiyat talablari, fan taraqqiyoti, ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olish, ularni uyg'unlashshtirish, integratsiyalashtirishni ko'zda tutadi.

Ta'lism-tarbiya prinsiplari ko'plab pedagoglar tomonidan tadqiq etilgan, lekin u tugallanmagan, tugallanishi mumkin bo'limgan tizimdir.

Kasbiy ta'lism tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - professional ta'lism muassasalarining ishlab chiqarish korxonalarini bilan uzzviy aloqada bo'lishidadir. Professional ta'lism muassasalari uchun baza bo'lgan korxonalar talabaclar uchun kerakli jihozlar, asbob- uskunalar ajratadi, korxona sexlarida ishlab chiqarish amaliyotini o'tish uchun imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, yuqorida zikr etilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, kasbiy ta'lism pedagogikasining vazifasi yoshlar tomonidan kasb-hunar sirsinoatlarini egallash qonuniyatlarini o'rganish hamda pedagogik amaliyotga qo'yilgan maqsadlarga maqbul erishish omillarini ko'rsatishdan iboratdir, deb xulosa chiqarish mumkin.

Ko'p asrlik kishilik jamiyatining amaliy tajribalari, falsafa, jamiyatshunoslik, pedagogika va psixologiyaga oid g'oyalar, dunyo miqyosida kechayotgan ta'lism-tarbiyaga oid bilimlar, maxsus pedagogik tadqiqotlar natijalari, izlanuvchi pedagog novatorlar

tajribalari va shu kabilar kasbiy ta'lim pedagogikasini rivojlantiruvchi manbalardir.

Respublikamiz uchun yuqori malakali, keng ixtisosli, mehnat bozorida raqobatlasha oladigan mutaxassis kadrlarga talablar qo'yilgan.

## Mutaxassis kadrlarga qo'yilgan talablar

<b>Asoslar</b>	<b>Kadrlar tayyorlashga qo'yilgan talablar</b>
Sanoatlashgan jamiyatga o'tish, xalqaro o'zaro ta'sirlar masshtabini kengayishi	Kommunikabellik, tolerantlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, axborot texnologik madaniyat, moslashuvchan tafakkur
Xalqaro hamkorlikda yechimini topish mumkin bo'lган global muammolarning paydo bo'lishi va rivojlanishi	Dunyoqarash va tafakkurni global, tizimli, axborot texnologik loyihalash
Iqtisodning dinamik rivojlanishi, raqobatning kuchayishi, malakasiz mehnatning qisqarishi, bandlik sohasidagi chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar	Kasbiy kompetentlik va mobillik, muntazam ravishda malaka oshirish va qayta tayyorlashga talab, raqobatbardoshlik
Ishbilarmonlikning rivojlanishi, individual -xususiy faoliyat, mehnat bozorini tuzish. Kadrlar tayyorlashga talab va taklif	Ishbilarmonlik, raqobatbardoshlik, o'z kasbiy mahoratini oshira borish, mustaqillik, ijodkorlik
Tez, to'g'ri, mustaqil ravishda maqbul yechim qabul qilish, dinamik ravishda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining o'zgartirish. O'zi va kasbiy faoliyat natijalarini tahlil eta bilish	Kasbiy mustaqillik, javobgarlik, kreativlik, adekvat o'z-o'zini baholash kabilar

Dunyo miqqosidagi ijtimoiy, iqtisodiy va ishlab chiqarishdagi texnik va texnologik o'zgarishlar kadrlar tayyorlashga yangi talablar qo'ymoqda. Rossiyalik olim E.F. Zeer tomonidan K.K. Platonov g'oyalariga asoslangan holda, to'rt komponentli mutaxassis tuzilmasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda kasbiy fazilatlar shaxsning ijtimoiy-psixologik va psixofiziologik komponentlari, talab etiladigan ixtisosliklar kabilarni o'ziga qamrab oladi.

## Mutaxassis tuzilmasi

T/r	Kasbiy fazilatlar	Shaxsnинг ijtimoiy psixologik va psixofiziologik komponentlari	Talab etilgan kasbiy muhim ixtisosliklar
1.	<b>Kasbiy yo'nalganlik</b>	Moyillik, qiziqishlar, munosabatlar, kutilayotgan natijalar	Ijtimoiy kasbiy qobiliyatlar: <ul style="list-style-type: none"> <li>- hamkorlik qilishga tayyorligi, - yutuqlarga intilish,</li> <li>- kasbiy jihatdan o'sishga tayyorlik,</li> <li>- ijtimoiy javobgarlik,</li> <li>- ishonchlik</li> </ul>
2.	<b>Kasbiy kompetentlik</b>	Kasbiy bilim. malaka va ko'nikma, ixtisoslik	Ijtimoiy-huquqiy va iqtisodiy kompetentlik: <ul style="list-style-type: none"> <li>- maxsus kompetentlik,</li> <li>- shaxsiy kompetentlik,</li> <li>- bir kasb doirasidan tashhari bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish kabilar</li> </ul>
3.	<b>Muhim kasbiy fazilat</b>	Diqqat-e'tiborlilik, kuzatuvchanlik, qat'iyatlilik, kirishuvchanlik, mustaqillik, o'zini nazorat qila olishlik	Kasbiy mustaqillik: <ul style="list-style-type: none"> <li>- ijtimoiy kasbiy intellekt,</li> <li>- texnologik jarayonlarni rejalashtira olish qobiliyati,</li> <li>- tashxislash qobiliyati,</li> <li>- kasbiy moslashuvchanlik va shu kabilar</li> </ul>
4.	<b>Muhim kasbiy psixologik-fiziologik fazilatlar</b>	Ekstravertivlik, chamalash, reaktivlik	Umumlashgan kasbiy qibiliyatlar: <ul style="list-style-type: none"> <li>ish-harakatlardagi muvofiqlik, tezkor reaksiya, chamalay olish. Chidamlilik, sabr-toqatlilik, qat'iyatlilik</li> </ul>

## Muhim kompetentlik mazmuni

Kompetentsiya	Kompetentlik mazmuni
Ijtimoiy	O'ziga javobgarlikni olish, oldiga qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida o'z qiziqishlarini ishlab chiqish va jamiyat talabalariga uyg'unlashtira olish
Kommunikativ	Og'zaki va yozma muloqot texnologiyalarini o'zlashtirganlik, shuningdek, kompyuter dasturlari va Internet tizimi bilan ishlay olish
Axborotchilik	Axborot resurslari, texnologiyalari, olingan axborotlarga o'z munosabatini bildira olish yoki pedagogik ishlov berib talabalarga tushunarli holga keltirish
Maxsus	Kasbiy vazifalarni mustaqil va ijodiy bajarishda o'zi va o'zgalar ishini ob'yektiv baholash
Kognitiv	Muntazam ravishda o'zining kasbiy mahoratini oshirishga intilish, shaxsiy imkoniyatlarini dolzarblashtirish va amalga joriy etish, mustaqil ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish qobiliyati, o'zini doimo rivojlantirishga intilishi va shu kabilar

Professionalizm (kasbiy yetuklik)ning eng yuqori darajasi kasbiy mahorat hisoblanib, u kasbiy faoliyatning mohirlik cho'qqilarini zabit etishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich (elementlar) kasbiy ta'limga umumiy o'rta ta'limga maktablarida, qisqa muddatli maxsus o'quv kurslarida ma'lum tor ixtisoslikni egallashga imkon beradi. O'rta maxsus, kasbiy ta'limga umumiy o'rta ta'limga negizida talabalarning kasb-hunarga moyilligi, tanlagan kasbi bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallashni ta'minlaydigan o'qish muddati uch yillik ta'lmdir.

Oliy kasbiy ta'limga - yuqori malakali mutaxassislarini ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichda tayyorlaydi.

Kasbiy ta'limga tarixan vujudga kelishi va rivojlanishi quyidagi omillar bilan asoslanadi:

mehnat sohalarining bo'linishi, jismoniy va aqliy kasblar sonining ortishi;

urbanizatsiya, ya'ni jamiyat rivojlanishida shaharlar rolining oshishi;

fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarining yaratilishi hamda tezkorlik bilan amaliyotga joriy etilishi kabilar.

Kasbiy ta'lismizini quyidagi uch asosiy vazifani bajaradi, bular:

- ta'limiyligi (ta'lismi tarbiya berish, shaxsni rivojlanantirish);
- iqtisodiy (mehnat bozorida raqobatlasha oladigan kichik mutaxassis kadrlar tayyorlash);
- ijtimoiy-madaniy (ijtimoiy faol, mustaqil holda izlanuvchan faoliyat ko'sratuvchi ma'nnaviy yetuk shaxsni shakllantirish).

Bu vazifalar kasbiy ta'lismining rivojlanish tarixida minglab yillar davomida shakllangan. Sharq pedagogik tafakkuri antologiyasi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va xalq hunarmandchiligi tarixiga oid manbalar tahlili bunga misol bo'la oladi.


Shuningdek, yaxlit kasbiy ta'lismi tizimining paydo bo'lish tarixi mehnat qurollari ishlab chiqishga tirikchilik buyumlari, talablarini ortib borishi bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar pedagogikasida kasbiy ta'lismining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi xususiy prinsiplar qo'llaniladi. Bu prinsiplar umumiy didaktik prinsiplar bilan bevosita aloqador bo'lib, ta'lismi tarbiya jarayoniga qo'yilgan talablar va u amal qilishi lozim bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Pedagogikaning sohalari va ularning asosiy vazifalarini aytib bering.
2. Pedagogikada talabalar shaxsining rivojlanish bosqichlari, jismoniy holati qanday namoyon bo'ladi?
3. Shaxs kasbiy fazilatlarining ijtimoiy-psixologik va psixofiziologik komponentlari qanday aks etadi?
4. Ta'lismi jarayonini tashkil etish prinsiplari haqida aytib bering.
5. Mutaxassis tuzilmasini izohlab bering.
6. Muhim kompetentlik mazmunini yoritib bering.

## Krossvord



### Krossvord savollari:

#### Bo'yiga:

1. Yunoncha-tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'lilot ma'nosini anglatib voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasi nima? Metod
2. Bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni bo'lib, kishini hayotga va kasbga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim
3. Aniq maqsadni ko'zlab, ajratilgan vaqtida o'qituvchi rahbarligida talabalar bilan olib boriladigan mashg'ulot. Dars
4. Rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan ta'lim hamda tarbiya jarayoni. Ma'ruba
5. Maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir soxada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining turi. Kasb
6. Insonning dunyoqarashi kengayishidagi tafakkur qila olishi qobiliyati natijasi. Bunda shakllantiruvchi omillarga ong, aql, fikr, g'oya, ta'lilot va shu kabilar kiradi Intellekt

### **Eniga:**

1. Jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyatidagi muhim va xarakterli belgilari obrazli sistemasi ijodiy prinsiplarining tarixan tarkib topgan bir qadar barqaror mushtarakligidir. Uslub
2. Insonning o'qish, o'rganish va shaxsiy hayotidagi tajribalar, kuzatishlar natijasida shakllangan bilim va malakalar majmui. Ilm
3. Grekcha didaskien so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma'nolarini anglatadi. Shunga ko'ra ???? – bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika

## **2 - MAVZU. O'QUV-ME'YORIY HUJJATLAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISH**

**Reja:**

1. O'quv me'yoriy – hujjatlar turlari.
2. O'quv me'yoriy hujjatlarning sinflanishi.
3. Ta'lif maqsadlari.
4. Fan dasturlari va ishchi dasturlar, kalendar rejasining tuzilishi



***Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari:*** pinbord, aqliy hujum, klaster, munozara, piramida, mustaqil ishslash texnologiyasi

**Tayanch iboralar:** o'quv me'yoriy - hujjatlar, sinflanish, ta'lif maqsadlari, fan dasturlari, ishchi dasturlar, kalendar rejası, klassifikator, ta'lif yo'naliishi, ishlab chiqarish ta'limi, tayyorgarlik davri, olingan bilim va malaka, nazorat qilish va yakuniylash davri.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. Yangi tahrirdagi "Ta'lif to'g'risida"gi qonunning joriy etilishi yangi o'quv rejalarini, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaliviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni va tadbiq etishni taqozo etdi.

Shu nuqtai nazardan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lif jarayoni, mazmunini isloh qilish asosan me'yoriy hujjatlar majmui (davlat ta'lif standarti, o'quv rejalarini va dasturlari) asosida,

kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqlol g'oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Klassifikator – bu O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlashtirish va tartibga solish yagona tizimining tarkibiy qismidir.

Klassifikatorda ta'lim bosqichlari (bakalavriat, magistratura), bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari yettita raqamli kod bilan belgilanadi.

mutaxassislik kodi;  
yo'nalish kodi;  
ta'lim sohasi kodi;  
bilim sohasi kodi;  
ta'lim dasturlari bosqichi kodi.

Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichlari bakalavriat yo'nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida – 5 A (raqam va harf) bilan belgilanadi. Masalan: bakalavriat kodi 5140100, 5211300, 5520400 va hokazo; magistrlar 5A140101, 5A211301, 5A520401 va hokazo.

*Davlat ta'lim standartlari* ( DTS ) – umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va Oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. DTSlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiyidir.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va yetarli ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yilgan malakaviy talablar; o'quv yuklamasining maksimal hajmi; ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda yo'l-yo'rqliqlarini belgilaydi.

Malaka talablari Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqiladi va o'quv jarayonini tartibga soluvchi, ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholovchi me'yoriy hujjatlar: bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura ixtisosliklari uchun DTS, o'quv rejalar, o'quv fanlari dasturlari va boshqalarni tayyorlash uchun asosdir.

Mutaxassislik fan mashg'ulotlarni rejalashtirishda va ularga tayyorgarlik ko'rish o'zaro chambarchas bog'langandir.

Rejalarshirish-tayyorgarlikning bir qismi bo'lib, rejalarshirish hujjalari ta'limga beruvchining mashg'ulotlarga tayyorgarlik natijalari aks ettiriladi. Mashg'ulotlarga tayyorgarlikni ikki bosqichga bo'lish mumkin: istiqbolli tayyorgarlik – o'quv yiliga va dasturning mavzularini o'rganishga tayyorgarlik hamda joriy navbatdagi darsga tayyorgarlik. Tayyorgarlikning har bir elementi ta'limga beruvchining shaxsan tayyorgarligini, o'quv ko'rgazmali qurollarini tayyorlashni va o'quv jarayonini rejalarshirishni o'z ichiga oladi. O'quv jarayonini rejalarshirishda ta'limga beruvchi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

- ta'limga tarbiya ishlari istiqbol rejalashtirishda;
- o'quv ishlab chiqarish ishlari uchun me'yorlar va texnik talablarini ishlab chiqishda qatnashish;
- o'quv-texnik hujjalarni, baholash mezonlarini, ishlab chiqarish amaliyotining batafsil dasturini ishlab chiqish;
- maxsus va umumkasbiy fanlarni o'rganish paytida mavzu bo'yicha olingan talabalar bilimlarini tahlil qilish;
- mavzu materialini kichik mavzular va darslarga taqsimlash;
- o'tilgan mashg'ulotlar yakunlarini tahlil qilish, kelgusi dars mazmuni, mavzusi, ta'limga tarbiya maqsadlarini aniqlash;
- kirish instruktajini o'tkazish metodlarini belgilash;
- talabalarning mashqlari va mustaqil ishlarini tizimini joriy instruktaj metodlarini belgilash;
- dars rejasini va kirish instruktaji konspektini tuzish, talabalarga beriladigan muayyan uy topshiriqlarini belgilab qo'yish.

Maxsus fan o'qituvchilarini va muhandis-pedagoglar quyidagi asosiy o'quv-rejalarshirish hujjalarni yuritadi:

- taqvimiylarini mavzuiy reja;
- kundalik dars rejasini;
- darsning ma'ruza matni;
- yozma ko'rsatma berish hujjalari (texnologik xaritalar, uslubiy ko'rsatmalar, tarqatma materiallar).

Ta'limga tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalarshiruvchi, asosiy hujjalarni o'quv rejalarini hisoblanadi. O'quv rejasi professional ta'limga muassasalarida ta'limga tarbiya jarayonini samarali tashkil

etishni, o'quv fanlarini alohida o'rghanish sur'atini ta'minlovchi hujjat hisoblanadi.

O'quv rejasi – har bir yo'nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalish (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi.
  2. O'qish muddati.
  3. Tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.
  4. Ta'lif shakli.
  5. O'quv davrining taqsimoti (jadvali).
  6. O'quv jarayonining rejasi.
    - 6.1. O'rganiladigan o'quv predmetlari.
    - 6.2. Har bir o'quv predmetini o'rghanish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.
    - 6.3. O'rghanish uchun ajratilgan vaqt ni ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va boshqa mashg'ulotlarga qanday miqdorda taqsimlanganligi.
    - 6.4. O'quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda haftasiga qancha soatdan o'rghanish tartibi.
  7. Davlat attestatsiyasi.
  8. Tanlov fanlarining ro'yxati.
  9. Izohlar kabilari.
- O'quv rejalarini mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim:
- ta'lif va tarbiyaning maqsadli yo'naltirilganligiga;  
mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;  
ta'lif- tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.
- O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rghanish davriga aniq mos tushishini e'tiborga tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich o'rghanishlari chuqurligi, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

Ta'lif standartlarida belgilab berilganidek, umumiy va maxsus talablar, bilim va ko'nikmalar, o'quv rejalaridagi umumkasbiy va

maxsus fanlarda o'zaro uzviyigini ta'minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo'shimcha ko'rgazmali qurollar yaratish – o'qituvchilar oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

O'quv dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o'qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

**FAN DASTURI** – uslubiy-me'yoriy hujjat bo'lib, davlat ta'lim standartining muayyan fan bo'yicha bakalavr (magistr) bilim, ko'nikma va malakalariga hamda kompetensiyasiga qo'yilgan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi.

Fan dasturi tarkibida fanning maqsadi, vazifalari va o'rganadigan muammolari, talabalarning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tavsifi, kompetensiyasi, nazariy, amaliy (laboratoriya, seminar) va mustaqil ish mashg'ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, taqvimiylar mavzuiy rejalar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va didaktik vositalar ro'yxati hamda baholash mezonlari, shaxsning qaysi fazilatlarini shakllantirishga yo'nalganligi kiradi.

Dasturda fan, texnika, texnologiyaning so'nggi yutuqlari, oliv ta'lim rivojlanishining jahon tendensiyasi hisobga olinishi, respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtaсидagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashi shart.

Fan dasturini ishlab chiqishda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olish va o'rganish, o'qitish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim talablari asosida tashkil etishga, mavzularning bir xil talqinda takrorlanmasligiga e'tibor berilishi zarur.

- |             |  |
|-------------|--|
|             | 1. Kirish. Fanning maqsadi va  |
|             | 2. Fanni o'zlashtirishga qo'yilgan                                     |
|             | 3. Fanning boshqa fanlar bilan   |
|             | 4. Fanning hajmi va mazmuni  |
|             | 5. Kurs ishi yoki loyihasining<br>namunaviy tarkibi, bajarishga        |
| Fan dasturi | 6. Mustaqil ishlarning mazmuni   |
|             | 7. Fanni o'qitish jarayonini<br>tashkil etish va o'tkazish bo'yicha    |
|             | 8. Taqvim mavzusi rejasi   |
|             | 9. O'quv uslubiy adabiyotlar va<br>elektron ta'lim resurslari ro'yxati |
|             | 10. Didaktik vositalar ro'yxati  |
|             | 11. Baholash mezonlari   |

*1-rasm. Modul tizimi asosida maxsus fanlar dasturining modeli*

Fan dasturi tarkibiy komponentlari quyidagi ketma ketlikda taqdim etiladi.

**1. Kirish.** Fanning o'rni va ahamiyati, rivojlanish taraqqiyoti, nazariy va metodologik asosi va o'rganiladigan muammolari bayon etiladi

### ***Fanning maqsadi va vazifalari***

#### ***2. Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar.***

Fanni o'zlashtirishda qo'yiladigan talablar Davlat ta'lim standartidagi malakaviy tavsifga muvofiq ishlab chiqiladi va quyidagicha bayon etiladi.

Fanni o'zlashtirgandan keyin talaba:

- ..... lar. haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- ..... haqida nazariy bilimlarga ega bo'lishi;
- ..... dan amaliy ko'nikmalarni egallashi;
- ..... malakalarni egallashi;
- ..... kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak.

#### ***3. Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.***

(Fanning boshqa turdosh fanlar bilan o'zaro aloqadorligi va uzviyili haqida ma'lumot beriladi).

#### ***4. Fanning hajmi va mazmuni.***

##### ***4.1. Fanning hajmi.***

Mashg'ulot ruhi Ap'ratilgan soat

Nazariy

Amaliy

(laboratoriya)

Mustaqil ish

Kurs ishi (loyihalash)

Nazoratlar

##### ***4.2. Nazariy mashg'ulotlar mavzulari mazmuni va ularga ajratilgan soat***

### 4.3. Laboratoriya (amaliy, seminar) mashg'ulotlari mazmuni

№	Laboratoriya (amaliy, seminar) mashg'ulotlar		Kutiladigan natija	Ajratilgan soat
	mavzusi	maqsadi		
1	2	3	4	5

**5. Kurs ishi (loyiha) tarkibi, ularga qo'yiladigan talablar.** (Kurs (loyiha) ishlari mavzulari, maqsadi va vazifalari, mazmuniga, hajmiga va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar keltiriladi).

**6. Mustaqil ishlar mavzulari mazmuni va ularga ajratilgan soatlar**

**7. Fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar.** (Fanni o'qitish shakli, texnologiyasi va metodlari keltiriladi).

#### 8. Taqvim mavzuiy reja.

(Taqvim mavzuiy reja o'quv materialini to'g'ri taqsimlashda mazkur fan boshqa fanlar va amaliyotlar bilan bog'lashda, darsga kerakli o'quv materiallari va vositalarini tayyorlashda yordam beradi, o'qitish jarayonini loyihalashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi).

№		Mavzu	Ajratilgan soat	Ta'lim shakli	Dars turi	Fanlararo va fan ichidagi bog'lilik	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari	Joydalanilgan idabiyyotlar ro'yxati	Mustaqil ishl opshiriqlari
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	

## *9. O'quv uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lif resurslari ro'yxati.*

### *Asosiy adabiyotlar*

1. ...

2. ...

### *Qo'shimcha adabiyotlar*

1. ...

2. ...

### *Elektron ta'lif resurslari*

1. ...

2. ...

## **10. Didaktik vositalar.** (Didaktik vositalar ro'yxati beriladi).

- jihozlar va uskunalar, moslamalar -----

- video-audio uskunalar -----

- kompyuter va multimediali vositalar -----

## **11. Baholash mezonlari.** (Har bir mashg'ulot turi bo'yicha oraliq nazorat va yakuniy baholash mezonlari keltiriladi).

---

Taqvimiy-mavzuiy rejadan kelib chiqqan holda har bir mashg'ulot uchun, ya'ni nazariy dars uchun ham, amaliyot mashg'ulotlari uchun ham alohida dars rejasi ishlab chiqiladi.

**Dars rejasi** asosiy o'quv-rejalashtirish hujjatlaridan biri bo'lib, uni o'qituvchi o'quv dasturi va taqvim-mavzuiy reja asosida tuzadi. Unda darsning ta'lif – tarbiyaviy maqsadlari, o'qitish va tarbiyalash maqsadlari ko'rsatiladi hamda darsning tarkibi va bosqichlari, har bir bosqichga ajratilgan vaqt, o'qituvchi tomonidan izohlanadigan o'quv materialining ketma-ketligi va mazmuni, mustaqil ishlarning xarakteri va mazmuni, uy topshirig'i va boshqalar ifodalanadi.

Dars rejasining asosiy maqsadi o'qitish jarayonini to'g'ri rejalahtirishga va uning samaradorligini oshirishga yordam berishdir. Dars muvaffaqiyatli o'tishi uchun uni tashkil etish bo'yicha mutaxassis fan o'qituvchi faoliyatining maqsadini aniqlash lozim.

Odatda professional ta'lif muassasalarida ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari laboratoriyalarda, o'quv ustaxonalarida, o'quv-mashq qilish maydonlarida hamda korxonalarda o'tkaziladi. Shu o'rinda har qanday mashg'ulot kabi ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari ham muhandis-pedagogning ko'plab omillariga

muvofig hal etadigan ijodiy ishi ekanligini unutmaslik lozim. Ishlab chiqarish ta'lini mashg'ulotlarini yuqorida zikr etilgan joylarda tashkil qilishning o'ziga xos afzalligi va kamchiliklari mavjud bo'lib, ularni oqilona tashkil etish va o'tkazish uchun muhandis-pedagog eng avvalo o'quv materialining mazmunini, mashg'ulot maqsadi va o'tkazish shart-sharoitlarini bilishi lozim. Ishlab chiqarish ta'limining maqsadi va mazmuni tayyorlov yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik malaka tavsifnomasi hamda o'quv dasturlarida o'z ifodasini topadi.

Ishlab chiqarish ta'limi dastlab o'quv laboratoriyalari va ustaxonalarida tashkil etilib, ularda talabalar ilk bor kasbiy mahorat sirlarini egallashga kirishadilar.

Korxonalarda tashkil etilgan ishlab chiqarish mashg'ulotlari talabalar o'zлari tanlagan mutaxassislik bo'yicha kasbiy bilim va ish-harakat usullarini zamonaviy asbob-uskunalar, moslamalar va ish-qurollaridan foydalanilgan holda tarkib topishiga sharoit yaratadi.

Bunday mashg'ulotlar haqiqiy amaliyatga mumkin qadar yaqin sharoit tashkil etilganligi sababli talabalarni tanlagan kasbiy mehnatini ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan yaqindan tanishtiradi. Mustaqillik darajasi va ijodiy faolligini oshiradi.

Har qanday ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari (darslari) quyidagi uch bosqichdan iborat bo'ladi:

- muhandis-pedagog tomonidan boshlang'ich (kirish) ko'rsatma yoki yo'l-yo'riq berish;

- talabalarning mustaqil ish bajarishlari, mashq qilishlari, ayni bir muhandis-pedagog faoliyati, ya'ni joriy yo'l-yo'riq berish;

- mashg'ulotda talabalar faoliyatini baholash uchun yakuniy yo'l-yo'riq berish.

Yo'l-yo'riq berish (instruktaj) - o'qituvchi yoki muhandis-pedagogning talabalarga berilgan topshiriq (vazifa)ni xavfsizlik texnikasi qoidalariiga to'liq rioya qilgan holda amalda bajarish tartibi haqida talabalar diqqat-e'tiboriga havola etiladigan yo'l-yo'riqlar, talablar va o'zgarishlar mazmuniga ega bo'lgan fikrini bayon qilish shaklidir. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida, ayniqlsa, muhandis-pedagog foydalanadigan ish qurollari, asbob-uskuna va moslamalarining sifati, ulardan to'g'ri foydalanish tartibi, rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va sanitariya qoidalari, pedagogning bajariladigan ish sifati hamda tayyorgarligiga bo'lgan talablarining

buzilishining oldini olish haqida ko'rsatmalari muhim ahamiyatga ega.

Talabalarning darsga qiziqishi va o'quv materialiga diqqat-e'tiborini qaratish uchun usta hayotiy misollar, asosli dalillar keltirishi, ushbu mashg'ulotda tarkib topishi ko'zlangan bilim va ish-harakat usullarining hayotiy faoliyat uchun ahamiyatini ko'rsatib o'tishi lozim. Odatda ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida kirish yo'rqnomasini ishlab chiqish quyidagi tartibda olib boriladi:

- yangi o'rganiladigan mavzu va mashg'ulot maqsadi bayon etiladi;

- oldin o'tilgan mavzular bo'yicha talabalar egallagan bilimlari va ish-harakat usullarining shakllanganlik darajasi aniqlanadi;

- bajarilishi ko'zda tutilgan vazifa, topshiriq yoki ishning amaliy ahamiyati, xususiyatlari va bajarilish tartibi bayon etiladi;

- texnik-texnologik chizma va xaritalar hamda talablar ko'rsatiladi;

- foydalaniladigan material, asbob-uskuna, moslamalar va shunga o'xhashlar bilan qanday foydalanish kerakligi tushuntiriladi;

- vazifani bajarishning maqbul (oqilona) shart-sharoitlari, usullari va tartibi bayon etiladi;

- vazifani bajarishda talaba yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoliklar va ularni o'z vaqtida oldini olish chora-tadbirlari ko'rsataladi. Shu o'rinda kirish yo'rqnomasini talabalar qanday darajada o'zlashtirganliklarini tekshirish, har bir talabaga shaxsiy vazifa berish va ularni ish o'rinaliga taqsimlash, shuningdek, vazifani bajarishda rioya qilinishi lozim bo'lgan mehnat va texnika xavfsizligi qoidalariga alohida e'tibor beriladi.

Talabalarning mustaqil ishlari yoki mashq qilishlari pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan, didaktik qonun-qoidalariga binoan tuzilgan bo'lib, texnologik jihatdan ma'lum ketma-ketlikda ko'zlangan bilim va usullarini egallashni nazarda tutadi. Mashg'ulotda usta talabalarning hatti-harakatlarini doimiy kuzatib borib, ishiga rahbarlik qiladi, kerak bo'lgan vaqtida bir necha marta ma'lum ish o'rinalarini aylanib chiqadi, talabalar faoliyatini nazorat qiladi. Shuningdek, bunday ko'rsatma berish vaqtida barcha talabalar bir vaqtida vazifani bajarishga kirishganliklarini tekshirish, ularning har birlari o'z ish o'rinalarini qanday tashkil etganliklarini nazorat qilish,

o'quv, texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va shunga o'xshash didaktik materiallar hamda hujjatlardan to'g'ri foydalanishlarini tekshirish kabi maqsadlarini ko'zda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, joriy ko'rsatma berish, talabalarni amaliy bilimlar va kasbiy isharakat usullarini egallashlari hamda texnologik jarayon va operatsiyalarni sifatli bajarishga qaratilgan bo'ladi.

Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining bu bosqichida muhandis-pedagog quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak:

Bunday mashg'ulotlarda yakuniy ko'rsatma berish ham muhim ahamiyatga ega.

Yakuniy ko'rsatma berishning mazmuni, tashkil etish shakli va uslubi muayyan aniq mashg'ulot natijalariga ko'ra aniqlanadi va uning maqsadi talabalarining yutuq va kamchiliklarini ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Yuqorida ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining umumiy o'ziga xos bosqichlari va tarkibiy elementlari bo'lgan ko'rsatmalarning mohiyat-maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan qisqacha tanishtirishga harakat qilamiz. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bunday ko'rsatma berish sxemasi qat'iy majburiy bo'lmay, balki, o'quv materialining xususiyatlariga, muhandis-pedagogning tayyorgarlik darajasi va tajribasiga, talabalarining tayyorgarlik darajasiga, mashg'ulot o'tkazish shart-sharoitlariga qarab mos ravishda ijodiy hal etilishi mumkin.

Professional ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik maxsus tashkil etilishi, kasbiy tayyorgarlik va malakali o'qituvchilar zamonaviy vositalar yordamida amalga oshirilganligi yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Malakali mutaxassislar tayyorlashda o'quv jarayoni umumilmiy, umumkasbiy va maxsus fanlar turkumlaridan tashkil topadi.

1.Ishlab chiqarish ta'limining maqsadi – talabalarda ma'lum bir aniq ixtisoslik bo'yicha kasbiy mahorat asoslari bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishdan iborat.

2.Talabalarining ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilgan mehnatlari ishlab chiqarish ta'limining asosi hisoblanadi.

3.Talabalarda o'zlashtirilayotgan kasb (ixtisoslik)ga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish – ishlab chiqarish ta'limining mazmunini tashkil etadi.

4.Ishlab chiqarish ta'limi jarayoni nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqadorligida amalga oshiriladi.

5. Ishlab chiqarish ta'limi nazariy ta'limga nisbatan faol jarayon bo'lib hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchining vazifasida axborot uzatish funktsiyasi bo'lib, rahbarlik qilish, yo'naltirish va yo'l-yo'riq ko'rsatish vazifalari kuchaytirilgan bo'ladi.

6. Ishlab chiqarish ta'limining sifatli o'tishi uchun o'qitishning texnik vositalari, eng avvalo moddiy-texnik baza, jihozlar, shuningdek, o'quv-ishlab chiqarish ob'yektlarining to'g'ri tanlanganligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

**Bilim** – ob'yektiv olamni ongli idrok etish natijasida xotirada tizimlashtirilgan va mustahkamlangan tasavvurlar hamda o'rganilayotgan ob'yekt haqidagi tushuncha, dalil, xulosa va hukmlar tizimidir.

**Ko'nikma** – talabalarning mehnat va ish-harakat usullarini ongli hamda to'g'ri bajarishga tayyor bo'lish qobiliyatidir.

**Malaka** – kasbiy ish-harakat usullarini maqsadga muvofiq maksimal darajada aniq tez va talab darajasida bajarishdir.

1. Ishlab chiqarish mehnati – ishlab chiqarish ta'limining asosi hisoblanadi, lekin ishlab chiqarish ta'limi ishlab chiqarish mehnati bilan chegaralanib qolmaydi.

2. Ishlab chiqarish ta'limi jarayoni – o'quv jarayonidir, uning har bir bosqichida kasbga o'qitishning o'ziga xos vazifalari o'z yechimini topadi. Talabalarning ishlab chiqarish mehnati har doim o'quv vazifalariga bo'ysundirilgan bo'ladi.

3. Ishlab chiqarish ta'limi maqsad va vazifalari ustuvorligini taminlash uchun, avvalo talabalarga professional ta'lim asoslarini o'rgatish zarur.

4. Ishlab chiqarish ta'limi samaradorligi o'quv va ishlab chiqarish vazifalarining o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi.

**Ishlab chiqarish ta'limi tizimi** deb, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikma va malakalarni maqbul darajada tarkib toptirish maqsadida o'quv materialini, maqsadga muvofiq tizimlashtirilgan holda, talabalar multigiga aylantirish izchilligiga aytildi.

Ishlab chiqarish ta'limi tizimi ijtimoiy munosabatlardan, ta'lim tizimi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga ko'ra o'zgaradi. Kishilik jamiyatining turli bosqichlarida ishlab chiqarish ta'limining quyidagi tizimlari qo'llanilganligi pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilgan:

a) predmet tizimi – shogird tomonidan buyumning izchil ravishda, muayyan miqdorda, butun murakkabligida boshidan

oxirigacha tayyorlanish jarayonini qamrab oladi. Bu tizimning kamchiliklari: shogird o'zi tanlagan kasbi bo'yicha boshlang'ich kasbiy (elementar) ko'nikmalarga ega bo'la olmaydi, shuningdek, mazkur tizim talabalarida tegishli ixtisoslik bo'yicha to'laqonli bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish imkoniyatiga ega emas. Undan foydalanishda didaktik prinsiplarga to'laqonli amal qilinmaydi, o'quv dasturidan foydalanish imkoniyati deyarli mavjud emas. Nazariy va amaliy ta'larning aloqadorligi hisobga olinmaydi.

b) operatsiya tizimi – mehnat jarayonlarini aniq operatsiyalarga bo'lishga asoslanadi. Unga 1868 yilda Moskva shahridagi Bauman nomidagi oliy texnika bilim yurtida asos solingan. D.K.Sovetskiy, V.P.Markov va ularning maslakdoshlari bu tizimning asoschilari hisoblanishadi. Bu tizim manbalarda "rus tizimi" deb ham yuritiladi va quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

-birinchi bosqichda, talabalar o'quv ustaxonalarida operatsiyalarni bajarishni o'zlashtirsa,

-ikkinci bosqichda ular bevosita buyum, mahsulot (tovar) ishlab chiqarish jarayonida qatnashadilar.

Operatsiya tizimining joriy etilishi bilan mehnat operatsiyalarining murakkablashishi, ta'lim tizimida ishlab chiqarishning ilmiylici va o'quv dasturlarini yaratish, ta'limda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi kabi didaktik prinsiplarga amal qilinishiga shart-sharoit yaratadi, shuningdek, operatsiya tizimining ham o'ziga xos quyidagi kamchiliklari e'tirof etilgan:

-ustaxona sharoitida operatsiyalarning o'zlashtirilishida iste'mol qiymati bo'limgan predmetlardan foydalaniladi;

-istiqbolda mustahkamlanmaydigan ko'p sonli operatsiyalarga o'rnatiladi;

-korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning nomenklaturasi bozor talablariga bog'liq bo'lib, birinchi ish kunidanoq murakkab operatsiyalarni bajarishga imkon bermaydi va shu kabilar.

Yuqoridagi kamchiliklar mavjudligi sababli bu tizim professional ta'lim tizimida keyinchalik qo'llanilmadi.

v) operatsiya-predmet tizimi – XIX asrning 90 yillarida S.A.Vladimirskiy tomonidan taklif etilgan. Ushbu tizim ishlab chiqarish ta'lmini yanada takomillashtirdi. Chunki bu tizim talabalar tomonidan mehnat operatsiyalarini o'ylab, tanlangan

buyumlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Buyumlar tayyorlashda oddiydan murakkabga, osondan qyinga prinsipiqa amal qilinadi. U mahsulot ishlab chiqilishi ko'zda tutganligi sababli qiziqarli kechadi va talabalarda yanada unumliroq ishlashga qiziqish his-tuyg'usini uyg'otadi. Bu tizim quyidagi o'zining kamchiliklariga ega:

- talabalar ba'zi operatsiyalarni to'laqonli o'zlashtirmay, ya'ni yetarli darajada mashq qilmay, tegishli malakaga ega bo'lmay qoladilar; egallangan ko'nikma va malakalar nozikligi bilan ajralib turmaydi, ya'ni buyum ma'lum shablon asosida tayyorlanadi.

g) mashq mator tizimi – sobiq sovet tuzumi davrida Markaziy mehnat instituti tomonidan 1927-1930 yillarda operatsiya tizimning qayta ishlab takomillashtirilgan shaklidir. Bu tizimda ta'lif quyidagi besh davrga bo'linadi:

1)asosiy mehnat faoliyati va ish-harakat usullarini o'zlashtirish bo'yicha mashq mashqlarini;

2)mehnat usullarini o'zlashtirish bo'yicha mashqlar o'z ichiga avval o'rjanilgan hatti-harakatlarni qamrab oladi;

3)mehnat operatsiyalarini bajarishga oid mashqlarda o'rjanilgan usullar qo'llaniladi;

4)oddiy detallarni yasash jarayonidan majmuaviy ishlarni bajarishgacha o'zlashtirilgan ish - harakat usullari murakkablashtirib boriladi;

5)korxonalarda ish o'rinalarida tanlangan kasb bo'yicha xarakterli ishlarni bajariladi va h.k.

Shu bilan birga mashq-mator tizimining afzalliklari sirasiga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ish mazmunini kasbiy faoliyatga oid operatsiya va usullarning aniq va ravshanligi;

- yo'riqnomalarning ilmiy xarakterda ekanligi;

- mashqlarni maxsus qurilmalarda amalga oshirilishi va hokazo.

Demak, operatsiyaviy majmua tizimi - bu avval zikr etilgan barcha tizimlarning takomillashtirilgan shaklidir. Bu tizim majmuaviy xarakterdagi ishlarni nazarda tutadi, shuning uchun ham uni takomillashtirish zaruriyati mavjud. Bu sohada K.N.Katxanov, M.A.Jidelev, I.S.Figanov, A.E.Pyadochkin, S.Ya.Batushev, Ya.Haydarov, K.J.Mirsaidov, R.K.Choriyev kabi chet el va vatandosh pedagog - olimlarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Ishlab chiqarish

ta'limi avval zikr etilganidek, maxsus joylarda o'tkazilganligi bois ularga o'ziga xos talablar qo'yiladi.

Endi o'quv ustaxonalarini tashkil etish va ularning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish jarayoniga to'xtalib o'tamiz.

O'quv ustaxonalarining jihozlariga qo'yiladigan bosh talab ularning o'quv dasturlariga mos kelishi, konstruktsiyalarining zamonaiviyligi, universalligi, energiya sarfining kamligi, tannarxining nisbatan arzonligi, o'lchamlarining katta bo'lmasligi, ishlatish va xizmat ko'rsatishga o'ng'ay bo'lishi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini ta'min etishi kabilardir. Shuningdek, o'quv jihozlari korxonalar texnik jihozlariga mos bo'lib, ilg'or tajribalarni o'zlashtirishga imkon berishi zarur.

O'quv ustaxonalari jihozlarining nomenklaturasi va soni maxsus me'yornomalarda ko'rsatiladi. Ustaxonalarda asosiy jihozlar bilan birga yordamchi jihozlar ham bo'lib, ular talabaga qisqa muddatli yordamchi operatsiyalarini bajarishga, shuningdek, har bir ish o'rnini tashkiliy texnik ta'minlashga imkon berishi kerak.

Ishlab chiqarish ta'limi dasturida talabalar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ish-harakat usullari va ish turlarining ro'yxati ko'rsatiladi. U yoki bu mavzuni o'rganish jarayonida talabalar tomonidan bajariladigan ish ob'yektlari professional ta'lim tizimi muassasalari muhandis-pedagoglari tomonidan o'rnatiladi. Talabalar tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimini ongli va puxta o'zlashtirilishini ta'minlash uchun mutaxassislik bo'yicha mustaqil ishlar muhim ahamiyat kasb etadi va o'quv ishlarini jiddiy o'ylab tanlashni ko'zda tutadi.

Ma'lumki, o'quv ishlarining ro'yxati talabalarining tanlagan kasblari va ixtisosliklari bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi dasturiga binoan qanday aniq o'quv-ishlab chiqarish vazifalarini bajarishlari zarurligini aniqlash maqsadida ishlab chiqiladi.

O'quv ishlarini tanlashda quyidagi talablarga amal qilish zarur:

- buyum tayyorlash o'quv dasturidagi mos mavzularini o'rganish ketma-ketligini ta'minlashi zarur;

- o'quv ishlari sifatida shunday buyum tanlab olinishi kerakki, u ma'lum qiymatga ega bo'lsin, ya'ni amalda qo'llash uchun yaroqli bo'lsin;

-buyumlarning o'lchamlari unchalik katta bo'lmay, talabalarning o'zлари ularни оrnidan qo'zg'atish, bir joydan ikkinchi joyga olib borish, o'rnatish kabi ishlarni mustaqil holda bajara olsinlar.

Yo'l-yo'riq berish (instruktaj) – o'qituvchi yoki muhandis-pedagogning talabalarga berilgan topshiriq (vazifa)ni xavfsizlik texnikasi qoidalariga to'liq rioya qilgan holda amalda bajarish tartibi haqida talabalar diqqat-e'tiboriga havola etiladigan yo'l-yo'riqlar, talablar va o'zgarishlar mazmuniga ega bo'lgan fikrini bayon qilish shaklidir. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida, ayniqsa, muhandis-pedagog foydalanadigan ish qurollari, asbob-uskuna va moslamalarining sifati, ulardan to'g'ri foydalanish tartibi, rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va sanitariya qoidalari, pedagogning bajariladigan ish sifati hamda tayyorgarligiga bo'lgan talablarining buzilishining oldini olish haqida ko'rsatmalari muhim ahamiyatga ega.

Talabalarning darsga qiziqishi va o'quv materialiga diqqat-e'tiborini qaratish uchun usta hayotiy misollar, asosli dalillar keltirishi, ushbu mashg'ulotda tarkib topishi ko'zlangan bilim va ish-harakat usullarining hayotiy faoliyat uchun ahamiyatini ko'rsatib o'tishi lozim.

Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida kirish yo'rinqomasini ishlab chiqish quyidagi tartibda olib boriladi:

-yangi o'rganiladigan mavzu va mashg'ulot maqsadi bayon etiladi;

-oldin o'tilgan mavzular bo'yicha talabalar egallagan bilimlari va ish-harakat usullarining shakllanganlik darajasi aniqlanadi;

-bajarilishi ko'zda tutilgan vazifa, topshiriq yoki ishning amaliy ahamiyati, xususiyatlari va bajarilish tartibi bayon etiladi; texnik-texnologik chizma va xaritalar hamda talablar ko'rsatiladi;

-foydalaniladigan material, asbob-uskuna, moslamalar va shunga o'xhashlar bilan qanday foydalanish kerakligi tushuntiriladi;

-vazifani bajarishning maqbul (oqilona) shart-sharoitlari, usullari va tartibi bayon etiladi;

-vazifani bajarishda talaba yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoliklar va ularni o'z vaqtida oldini olish chora-tadbirlari ko'rsatiladi.

Shu o'rinda kirish yo'riqnomasini talabalar qanday darajada o'zlashtirganliklarini tekshirish, har bir talabaga shaxsiy vazifa berish va ularni ish o'rinalariga taqsimlash, shuningdek, vazifani bajarishda rioya qilinishi lozim bo'lgan mehnat va texnika xavfsizligi qoidalalariga alohida e'tibor beriladi.

Talabalarning mustaqil ishlari yoki mashq qilishlari pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan, didaktik qonun-qoidalalariga binoan tuzilgan bo'lib, texnologik jihatdan ma'lum ketma-ketlikda ko'zlangan bilim va usullarini egallashni nazarda tutadi. Mashg'ulotda usta talabalarning hatti-harakatlarini doimiy kuzatib borib, ishiga rahbarlik qiladi, kerak bo'lgan vaqtida bir necha marta ma'lum ish o'rinalarini aylanib chiqadi, talabalar faoliyatini nazorat qiladi. Shuningdek, bunday ko'rsatma berish vaqtida barcha talabalar bir vaqtida vazifani bajarishga kirishganliklarini tekshirish, ularning har birlari o'z ish o'rinalarini qanday tashkil etganliklarini nazorat qilish, o'quv, texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va shunga o'xshash didaktik materiallar hamda hujjatlardan to'g'ri foydalanishlarini tekshirish kabi maqsadlarini ko'zda tutadi.

Bir so'z bilan aytganda, joriy ko'rsatma berish, talabalarni amaliy bilimlar va kasbiy ish-harakat usullarini egallashlari hamda texnologik jarayon va operatsiyalarni sifatli bajarishga qaratilgan bo'ladi.


Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining bu bosqichida muhandis-pedagog quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak.

Bunday mashg'ulotlarda yakuniy ko'rsatma berish ham muhim ahamiyatga ega. Yakuniy ko'rsatma berishning mazmuni, tashkil etish shakli va uslubi muayyan aniq mashg'ulot natijalariga ko'ra aniqlanadi va uning maqsadi talabalarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Yuqorida ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining umumiyligi o'ziga xos bosqichlari va tarkibiy elementlari bo'lgan ko'rsatmalarning mohiyat-maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan qisqacha tanishtirishga harakat qilamiz. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bunday ko'rsatma berish sxemasi qat'iy majburiy bo'lmay, balki, o'quv materialining xususiyatlariga, muhandis-pedagogning tayyorgarlik darajasi va tajribasiga, talabalarning tayyorgarlik darajasiga, mashg'ulot o'tkazish shart-sharoitlariga qarab mos ravishda ijodiy hal etilishi mumkin.

### ***Nazorat savollari***

1. O'quv me'yoriy – hujjatlar turlarini sanab o'ting.
2. O'quv me'yoriy hujjatlar qanday sinflanishini izohlang.
3. Ta'lif maqsadlari qaysi mezonlarga ko'ra belgilanadi?
4. Fan dasturlarining mazmunini izohlang.
5. Ishchi dasturlarning namunaviy dasturlardan farqini izohlang.
6. Kalendar rejasingin tuzilishini aytib bering.

### **Krossvord**



### **Krossvord savollari:**

#### ***Eniga:***

1. Standartlashning eng ko'p qo'llaniladigan va ishlaydigan uslubi bo'lib, uning asosiy maqsadi bir funksional mo'ljalangan mahsulotning mavjud turli tuman turlarga va tiplarga bo'lish orqali kamaytirishdan iboratdir.(Unifikatsiya)
2. Bu bir qator hollarda zarur bo'lgan bir sidra kiyim komplektlari va kostyumni to'ldiruvchi boshqa qo'shimcha predmetlar, ya'ni bir kishining yoki butun oila a'zolari barcha kiyimlarining yig'indisi.(Garderob)

3. Musiqa, amaliy san'at yoki mo'yqalam asari hisoblanadi.(Kompozitsiya)
4. Ma'lum vazifaga mo'ljallanganlikni ifoda etuvchi detallar xarakteriga binoan sinchiklab tanlangan, kosmetika va soch turmag'i bilan qo'shibil, kostyumni to'ldiruvchi va bezovchi predmetlar bilan birlashgan kiyim. Maqsadiga qarab maishiy, kechalik, ishlik, tantanavor, sportbop va hokazo bo'lishi mumkin.(Kiyim)

**Bo'yiga:**

5. Dars mashg' ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan va ta'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasi.(Natija)

### **3 – MAVZU. MAXSUS FANLARNING O'QUV-USLUBIY TA'MINOTINI ISHLAB CHIQISH**

**Reja:**

1. Darslik va uning turlari.
2. O'quv – uslubiy majmua.
3. O'quv – metodik majmua.
4. Didaktik o'quv vositalari.



***Qo'llaniladigan ta'limg texnologiyalari:*** dialogik yondashuv, muammoli ta'limg, pinbord, aqliy hujum, klaster, munozara, o'z-o'zini nazorat.

**Tayanch iboralar:** pedagogik jarayon, ta'limg jarayoni, mutaxassis modeli, kasbga tayyorlash, o'quv-uslubiy majmua, darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatma, dars komponentlari, o'qitish vositalari, tarqatma materiallar, elektron ta'limg resurslari.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limg jarayoni mazmunini isloh qilish asosan me'yoriy hujjatlar majmui (davlat ta'limg standarti, malaka talablari, o'quv rejalarini va dasturlari) asosida kadrlarga ta'limg va tarbiya berish milliy istiqlol g'oyalariga muvofiq amalgga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Shuning uchun ham mutaxassis modelini ishlab chiqishda shaxs, davlat va jamiyatning quyidagi ehtiyoj belgilarini, ya'ni muayyan shaxs ta'lif oladigan yo'nalish bo'yicha standartlari, yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tasniflovchi talablarini e'tiborga olish zarur. Albatta, ishlab chiqilgan model bitiruvchining kasbiy-shaxsiy sifatini nazorat qilish tizimini va nazorat qilish texnologiyasini qamrab olishi kerak.

Maxsus fanlar o'quv - uslubiy ta'minotini yaratishda ta'lif jarayonini tashkil etishda, o'qitishning samarali usullarini tanlashda, ta'lif mazmunini belgilashda o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

Darslik barcha ta'lif turlari va fanlar bo'yicha eng keng tarqalgan o'qitish vositasi bo'lib, o'quv-uslubiy ta'minotning yetakchi komponenti hisoblanadi. Shuning uchun maxsus fanlar bo'yicha darsliklar yaratish jarayoniga birinchi navbatda o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiquvchilar jalb qilinishi kerak. Maxsus fanlardan zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish uchun mutaxassislardan tayyorlashda o'quv-uslubiy majmualarning hozirgi davrda qay darajada o'quv maqsadlari va vazifalariga erishishni ta'minlashini, ularni qaysi didaktik tamoyillar asosida tuzishni va ishlab chiqishni o'rganish lozim.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ta'lif oluvchilarni kasbga va mehnatga tayyorlash samaradorligi asosan o'quv-uslubiy majmuasining o'zaro bog'liq komponentlariga, ya'ni dasturdagi o'quv materialining tuzilmasiga, o'qitish metodikasiga, o'quv adabiyotlari va ko'rgazmali materiallariga bog'liq bo'ladi. Ular o'quv-uslubiy majmuasini ta'lif oluvchilarni mehnatga va kasbga tayyorlash bo'yicha o'qitish jarayonidagi funksiyalariga qarab guruuhlaydilar, ya'ni me'yoriy hujjatlarga (o'quv rejasi, o'quv dasturlari); o'qitish uchun metodik materiallarga (xususiy metodikalarni ishlab chiqish, metodik журнallar); talabalar uchun o'quv adabiyotlari (darsliklar, didaktik materiallar, tajriba va amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanmalar) va ko'rgazmali materiallar (rasmlar, asl namunalar va ob'yektlar). Tadqiqotchilar o'quv-uslubiy majmuasining asosiy zvenosi deb darslikni hisoblaydilar.

Ta'lif oluvchilarning mutaxassislik fanidan ma'lum bir texnikaviy va texnologik topshiriqni mustaqil ravishda bajarishlari uchun ularning darsliklar, turli texnikaviy adabiyotlar, uslubiy

ko'rsatmalar, lug'atlar, chizmalar, sxemalar, mahsulotlar, xom ashyo materiallari, maketlar va jihozlar, asbob va uskunalarini o'zida qamrab olgan o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlanishi o'qitishni faollashtiradi va ijodiy yondashuvli ta'limni shakllantiradi.

O'quv-uslubiy majmua – to'plam sifatida emas, balki alohida komponentlarning funksiyalari jihatidan o'zaro almashinuvchanligi mumkin bo'lgan o'qitish vositalari tizimi sifatida ishlab chiqilishi kerak. Bu – didaktik vositalarning ochiq tizimi bo'lib, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalardan tashqari turli xil adabiyotlarni ham o'zida qamrab oladi. Ushbu o'quv-uslubiy majmua tuzilmasidagi invariant mazmunning tashuvchisi bo'lib, tayyorgarlik yo'naliishi bo'yicha asosiy tushunchalar va terminlarning lug'atma'lumotnomasi xizmat qilishi mumkin. Qolgan ma'lumot beruvchi materiallar variativ hisoblanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarning asosiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- mutaxassislik fanining mazmunini, hajmini va o'qitish tartibini belgilovchi hujjatlar va materiallar (o'quv rejasi, o'quv dasturi, fanni o'qitish metodikasi va boshqalar);

- o'quv jarayonini nazorat qilish hamda bilimlarni mustahkamlash bo'yicha materiallar va hujjatlar;

- o'quv-uslubiy materiallar (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, mavzuiy rejalar va boshqalar);

- mustaqil o'rganish va bilimlarni mustahkamlash bo'yicha manbalar (mustaqil o'rganish bo'yicha kitoblar, lug'atlar, ma'lumotlar to'plami, qayta takrorlash uchun ko'rsatmalar, praktikumlar va boshqalar);

- o'quv tarbiya jarayonining texnologik jihatlarini ta'minlovchi materiallar (asl ob'yektlar va narsalar, asboblar, modellar, maketlar, plakatlar, tarqatma materiallar, kompyuter texnikalari uchun vositalar, proyekcion, diakino va video texnikalar);

- o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv- uslubiy materiallar.

O'quv-uslubiy majmuaga kiruvchi komponentlarning mazmuni va tarkibi o'quv predmetining turi bo'yicha aniqlanadi. Chunki o'quv predmetining turi bo'yicha zaruriy va qo'shimcha o'quv materiallari, mashqlar, topshiriqlar, mustaqil o'rganish bo'yicha materiallar turlicha darajada aniqlanadi. Maxsus fanlar o'quv-uslubiy majmuasi komponentlarining va o'qitish

metodikasining mazmuni ta'lim turi bo'yicha ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida tuzilgan o'quv dasturiga muvofiq aniqlanadi.

Maxsus fanlar o'quv uslubiy majmuasiga kiruvchi har bir o'qitish vositasi didaktik jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. O'quv majmuasining barcha o'qitish vositalarida asosiy tushunchalar, terminlar, shartli belgilar bir xil bo'lismiga rioya qilinishi hamda talabalarning mutaxassislik fanlarini o'rganish bo'yicha egallashi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish sifatini yaxshilash uchun o'quv-uslubiy majmua tarkibiga quyidagi o'qitish vositalari kirishi kerak:

1. Asosiy o'qitish vositalari – tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha ta'lim standartlari, o'quv rejalari va fan dasturlari, bosma va elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar.

2. Qo'shimcha o'qitish vositalari – dars jarayonini tashkil etish bo'yicha yo'rinqoma, mashq va masalalar to'plami, plakatlar, slaydlar, elektron multimediali o'quv qo'llanmalar, nazorat va test savollari to'plami, tarqatma materiallar, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanmalar.

3. Amaliy o'qitish vositalari – elektron doskalar, flipchart doskalar, videoko'zgu, multimedia, televizor, kompyuter, laboratoriya jihozlari, maketlar, asl namunalar, mahsulotlar, mashinalar, uskunalar.

O'quv-uslubiy majmuasini yaratishda o'quv davri hajmi bo'yicha ilmiy texnikaviy topshirqlarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning faoliyatidagi psixologik jihatlarini ham o'rganish talab qilinadi.

Mutaxassislik fanlari o'quv-uslubiy majmuasini tahlil qilish o'qituvchiga, uslubchiga, ishlab chiqarish ta'limi ustasiga mashg'ulotlarni o'tkazish uchun kerakli o'qitish materiallarini loyihalash, ishlab chiqish va tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'quv-uslubiy majmular yordamida tashkil qilish va o'tkazish ta'lim sifatini yaxshilaydi, ta'lim oluvchilarning mashg'ulot davridagi mehnat faoliyatini tashkil qilishda, ularda ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ta'lim maqsadlariga erishish uchun mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishda quyidagi umumiy talablar bo'yicha komponentlarni kiritish zaruriyati aniqlandi:

- birinchidan, ta'lim muassasasida samarali o'qitishni ta'minlash uchun bilim, ko'nikma va malakalarni tizimlashtirish;

- ikkinchidan, mutaxassislik fanlarini kasbiy faoliyatga amaliy jihatdan yo'naltirish, qaysiki, amaliy vaziyatlarda qo'llash uchun etarli va mustahkam bilim, hamda ko'nikmalarni ta'minlash kerak bo'ladi;

- uchinchidan, o'qitishning tarbiyalovchi, izlanuvchanlik va rivojlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirish kerak. Ishlab chiqilgan amaliy mashqlar va topshiriqlar sistemasi ta'lim oluvchilarning ijodiy va mustaqil ishslash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi (fikrlash, taqqoslash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish va boshqalar). O'qitishning tarbiyaviy yo'naltiriganligi esa talabalarning mehnatga estetik, ekologik, texnik va texnologik jihatdan tarbiyalashga yo'naltirilgan topshiriqlar va mashqlarni tanlash orqali ifodalanadi;

- to'rtinchidan, mutaxassislik faniga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish. Ta'lim oluvchilarda o'rganishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani shakllantiruvchi o'quv materiallari ishlab chiqish lozim.

Mutaxassislik fanlari o'quv-uslubiy majmuasiga qo'yiladigan yuqorida keltirilgan talablardan tashqari, quyidagi qo'shimcha talablarni kiritish ham maqsadga erishishni osonlashtiradi. Mutaxassislik fanlari o'quv-uslubiy majmuasida tayyorgarlik yo'nalishi va mutaxasisiligi bo'yicha ekologik, tarixiy, milliy va iqtisodiy aspektlarning yoritilishi, ta'lim oluvchilarga turli vaziyatlardagi amaliy faoliyatning modeli tavsiya qilinishi, ularning ijodiy faolligini oshirishni ta'minlashi kerak.

Bizning fikrimizcha, mutaxassislik fanlari o'quv-uslubiy majmuasining asosiy funksiyasi – talabalarning mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlar yaratishdan iborat bo'lishi kerak.

Demak, maxsus fan o'quv-uslubiy majmuasi ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatini amalga oshirishni ta'minlashi lozim. Erkinlashtirilgan ta'lim jarayonida

o'quv-uslubiy majmuaning yadrosi bo'lib -mehnat metodlari, faoliyatlar va jarayonlar ketma-ketligi, usullari, turlari va maqsadlari to'g'risida bilim uzatuvchilar xizmat qilishi kerak.

**O'quv-metodik majmua** – malaka talablari va fan dasturida belgilangan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lim resurslari, o'qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi.

Fanning o'quv-metodik majmuasi komponentlarining mazmuni Davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan fan dasturiga muvofiq hamda shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va texnologiyalari, tamoyillari va talablari asosida ishlab chiqiladi.

O'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishda yo'naltiruvchi va qiziqtiruvchi bilimlar spetsifikatsiyasining yoritilishi muhim ahamiyatga ega. Bu yerda biz xorijiy davlatlarda mutaxassislar tayyorlash tajribalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda o'qitishni asosiy tashkil qilish shakllari sifatida loyihalar va modullar qo'llaniladi. Bu vositalar talabalarning mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, turli o'quv-moddiy bazalarda ishlab chiqiladi. Asosiy o'qitish vositasi bo'lib modulli o'quv dasturlari hisoblanadi. Modulli o'quv dasturlar ta'lim oluvchilarning yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha texnologik jarayonlarning bajarilishi va faoliyat usullari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi bilim va mehnat topshiriqlari sistemasini qamrab oladi. Faqatgina modulli o'quv dasturi o'quv-uslubiy majmuasining asosiy komponenti bo'lib xizmat qiladi va o'quv materialini uzatishning esa yetakchi vositasi hisoblanadi.

Shuning uchun ham mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy majmuasining mazmuni mustaqil va tugallangan o'quv jarayonini belgilovchi modul yoki bo'lim ko'rinishida ishlab chiqilishi kerakligi tavsiya etiladi. Modulli tuzilmali o'quv-uslubiy majmua o'qituvchi uchun metodik apparat bo'lib xizmat qiladi, chunki o'qituvchi unga kerakli qo'shimchalar kiritish imkoniyatiga

ega bo'ladi. O'quv-uslubiy majmualarni modulli tuzilmasini ishlab chiqishda ta'lim oluvchilarning individual ishlash, o'quv materialini samarali o'zlashtirish, mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarни faollashtirish kabi asosiy jihatlarga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu model bo'yicha modulli o'quv dasturida har bir faoliyat usuli bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro bog'liq mavzular alohida modullarga guruhlashdiriladi. Har bir modul bo'yicha o'quv maqsadlari va mazmunlari belgilanadi. Har bir modul o'zining o'quv-uslubiy ta'minotiga ega bo'lishi kerak.

O'qitish metodikasida mutaxassislik fanini ushbu o'quv-uslubiy majmua asosida o'qitishni tashkil etish va o'tkazish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, talabalarning bilim hamda ko'nikmalarini baholash metodlari beriladi.

Modulli tuzilma ko'rinishidagi o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tadbiq etish mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish imkonini beradi.

"Rgosessus" iborasi lotinchada "ilgari harakatlanish" o'zgarish ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida uning muqobili sifatida "jarayon" tushunchasidan foydalaniladi.

Pedagogik jarayon deganda, o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsadga erishish borasidagi o'zaro hamkorlik faoliyati tushuniladi. Bunda avvaldan belgilangan o'zgarish holati sodir bo'lib, talabaing shaxsiy sifat va xislatlari o'zgaradi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy tajriba shaxs sifat va fazilatlarga aylantiriladi. Pedagogik manbalarda "ta'lim-tarbiya jarayoni" iborasi ham sinonim sifatida ishlatilgan. Lekin rus pedagog olimlari P.F.Kapterev, A.I.Pinkevich, Yu.K.Babanskiylarning fikricha "ta'lim-tarbiya jarayoni" tushunchasi nisbatan tor ma'noni anglatib, yaxlitlik xususiyatini ochib bera olmaydi. Ta'lim-tarbiya va rivojlanishning birligini ta'minlash bilan pedagogik jarayonning yaxlitligi va umumiyligiga erishiladi.

Pedagogik jarayon tizim sifatida, o'ziga qator o'zaro aloqador tarkibiy elementlarni qamrab oladi. Pedagogik jarayonda shakllantirish, rivojlantirish, tarbiyalash, shuningdek, barcha shart-sharoitlar, shakllar va metodlar o'zaro birikib yagona yaxlitlikni hosil qiladi.

Pedagogik jarayonning bunday tarzda tashkil etilishi uning tashkil etuvchi elementlarini aniq ajratib olish bilan birga bu elementlar orasidagi o'zaro aloqadorlik va munosabatlarni tahlil etish, shuningdek, pedagogik amaliyotda uni boshqarish imkoniyatini beradi.

Tuzilma (lotincha struktura, tuzilish) bu tizimdagи elementlarning joylashishini anglatadi.

Tizim tuzilmasini ma'lum mezonlarga ko'ra ajratiladigan tarkibiy qism komponentlar, shuningdek, ular orasidagi aloqadorlik tashkil etadi. Tizim komponentlarining o'zaro aloqadorligini tushunish bilangina ushbu jarayonning sifat va samaradorligini oshirish muammosining yechimini topish mumkin.

Pedagogik jarayonning ob'yekti bir paytning o'zida sub'yeqt hamdir. Bu jarayonning natijasi to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi (ta'siri), qo'llanilayotgan texnologiya va talabaga bog'liqdir.

Pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida tahlil etish uchun tahlil qilish mezonlarini o'rnatish zarur. Mezon sifatida har qanday shart-sharoit, erishilgan natija, o'lchami olinishi mumkin. Muhimi u tizimni o'rganish maqsadlariga javob bersa bas.

Insonning shakllanishiga turli xil tashqi shart-sharoit, shu jumladan, geografik, ijtimoiy muhit, mакtab, oila, mahalla kabilar ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limiy-tarbiyaviy ta'sirning samaradorligi bevosita uning maqsadga yo'nalganligi, muntazamliligi va malakali boshqarilishi (rahbarlik qilishi)da o'z ifodasini topadi. Ta'lim-tarbiya odam rivojlanishini maqsadga bo'yundiradi. U rivojlanishdagi mavjud kamchiliklarni to'ldirish omili. Shuning uchun ham talabaning yo'nalganligi va qobiliyatini, individual xususiyatlari, imkoniyatlarini aniqlab olish ta'lim-tarbiya ishidagi muhim vazifalardan biridir. Shaxsnинг rivojlanishida uning shaxsiy faoliyati muhim ahamiyatga ega. "Qancha ter to'kilsa, shuncha yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishiladi" maqolida uning mohiyati o'z ifodasini topadi. Masalan, o'smirlarning asosiy faoliyat ko'rinishlari o'yin, suhbat-o'rganish, menhatdir.

Faoliyat yo'nalishi bo'yicha bilish ijtimoiy, sport, badiiy, texnik kabi turlarga bo'linadi. Faoliyatning maxsus ko'rinishi bu muloqotdir. U faol va sust bo'lishi mumkin. Faoliyat xoxish bilan

amalga oshirilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Faol o'quv-bilish faoliyati talabaga ijtimoiy tajribani tez va muvaffaqiyatli o'zlashtirishga, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga, tashqi atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga imkon beradi. Ukrainalik pedagog olim V.F.Shatalovning fikricha, barcha muvaffaqiyatlar asosida quyidagilar yotadi: yaxshi irlisyat, yaxshi muhit, oila, to'g'ri tashkil etilgan o'quv-bilish faoliyati, talabalarning ongli munosabati, o'quv predmetiga qiziqishi, o'qituvchi shaxsi va shu kabilar.

Avval aytib o'tilganidek, pedagogik jarayonning tizim hosil qiluvchi tarkibiy qismi maqsad hisoblanadi. U ta'lim-tarbiya natijasini ideal holda tavsiflaydi. Pedagogik tizim maqsadni mo'ljalga olgan holda tashkil etiladi va barcha yaxlitlik unga bo'yusunadi. Ta'lim maqsadi aniq tarixiy xarakterga ega bo'ladi. Hozirgi paytda mustaqil respublikamizda global ta'lim-tarbiya maqsadi barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Pedagogik ta'sir bevosita va bilvosita boshqariluvchan va boshqarilmaydigan bo'lishi mumkin. Talabalarning javob reaksiyalari faol yoki sust, qabul qilingan yoki qabul qilinmagan, histuyg'uli yoki loqayd (beparvo, befarq) bo'lishi mumkin.

Hozirgi paytda pedagog olimlar shunday fikrga kelishganki, bunga ko'ra inson alohida qismlarga bo'linib tarbiyalanmay balki "yaxlit shaxs" sifatida tarbiyalanadi. Yaxlit pedagogik jarayonga uning tashqi va ichki jihatlari barcha tashkiliy tarkibiy qismlar o'zaro ta'sirining birligi xarakterlidir. Pedagogik jarayon pedagogik tizim doirasida amalga oshiriladi. Pedagogik tizim tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siridan pedagogik jarayon kelib chiqadi. Pedagogik tizim o'z navbatida pedagogik jarayonning maqbul kechishini ta'minlash maqsadida vujudga keladi va faoliyat ko'rsatadi.

Pedagogik jarayon dinamik tizim bo'lib, uning maqsadi tizim hosil qiluvchi elementi hisoblanadi. Pedagogik jarayonda maqsad uning barcha tashkil etuvchi tarkibiy qismlarini tik chiziq bo'yicha bir-biriga bo'yusunishlarini ta'min etadi. Tizimning gorizontal bo'yicha muvofiqligini esa bu jarayon ishtiropchilarining tayyorgarligi hamda rivojlanishi belgilaydi.

O'zlashtirish ob'yekti ta'lif mazmuni hisoblanib, ishtirokchilar faoliyati unga qaratiladi. Bu faoliyat, o'z navbatida, metodlar, vositalar va tashkiliy shakllar orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayonning natijalari uning maqsadiga qiyoslanib tahlil etiladi. Zarur bo'lgan xollarda kerakli o'zgartirishlar kiritilib, pedagogik o'zaro ta'sir davom ettiriladi. Shunday qilib, pedagogik jarayon o'z-o'zini tuzatuvchi, rivojlanib takomillashib boruvchi tizim hisoblanadi.

### **Yaxlit pedagogik jarayonning jihatlari**

Jihatlar	Pedagogik jarayon
Maqsadi	Ta'lif, tarbiya va shaxs rivojlanishini ta'minlash
Mazmuni	Ta'lif mazmunida bilim, ish-harakat usullari ijodiy faoliyat tajribalari; tashqi olamga nisbatan histuyg'u, qadriyatlar va irodaviy munosabatlar
Protsessual (tashkiliy)	Pedagogik o'zaro, predmet va shaxsiy o'zaro ta'sir, ta'lif va mustaqil ravishda o'z ustida ishlashning
Operatsion-texnologik	Pedagogik jarayonning nisbatan mustaqilligi, barcha komponentlarining ichki yaxlitligi, o'qitish va o'qish kabilarning birligi.

Bu tizimda nisbatan turg'un, ya'ni barqaror (stabil), uzoq vaqt o'zgarmaydigan elementlar maqsad, ishtirokchilari va ta'lif mazmuni hisoblanib, uning o'zgaruvchan tarkibiy qismlari esa metodlar, vositalar, tashkiliy vositalaridir. Bu o'zgaruvchan tarkibiy qismlar bilan asosan pedagogik jarayon boshqariladi. Shuning uchun ham pedagog va talabalarning o'zaro muloqoti hamda munosabati natijasida ma'lum pedagogik masala o'z yechimini topadi. Pedagogik jarayonning asosiy boshlang'ich munosabati sifatida tizimdagi sub'yektlarning o'zaro munosabati e'tirof etilgan. Yaxlit pedagogik jarayonda ob'yektiv ravishda yaxlit ta'lif mazmuni, yaxlit ishtirokchilar faoliyati o'z ifodasini topadi. Ta'lif mazmunining yaxlitligi uning tashkil etuvchi tarkibiy qismlarining birligidan iborat. Bularga bilim, ish-harakat usullari, ijodiy faoliyat tajribalari, tashqi olamga (suhbat-o'rganish mehnat, inson, tabiat,

jamiyat va talabaning o'z-o'ziga) nisbatan his-tuyg'u va irodaviy munosabatlar kabilar kiradi.

Kasb-hunar pedagogikasining asosiy vazifalariga to'xtalamiz. Kasbiy ta'lim pedagogikasi alohida fan va o'quv predmeti sifatida nazariy va texnologik vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Nazariy vazifalar - ilg'or kasbiy pedagogik tajribalarni o'rGANISH, kasbiy ta'limning holatini aniqlash, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish;

2. Texnologik vazifalari - metodik materiallar, o'quv reja, dastur, qo'llanmalar ishlab chiqish, pedagogika yutuqlarini amaliyotga joriy etish, tadqiqot natijalarini tahlil etish va h.k.

Kasb-hunar pedagogikasi ilmiy bilimlar sohasi sifatida quyidagi masalalarning yechimini topadi:

1. Kasb-hunar pedagogikasida kasbiy ta'limning nazariy-metodologik asoslari va tadqiqotlar o'tkazish metodikasini ishlab chiqish.

2. Kasbiy ta'limning mohiyati, yo'nalishlari va vazifalarini asoslash.

3. Kasb-hunar pedagogikasi g'oyalari va tarixini o'rGANISH.

4. Respublikamiz va chet ellarda kasbiy ta'lim holatini o'rGANISH hamda tahlil etish.

5. Kasbiy ta'lim-tarbiya va shaxsning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash.

6. Ta'lim standartlari va kasbiy ta'lim mazmunini asoslash.

7. Kasbiy ta'limning samarali metodlari, vositalari, shakllari, tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish.

8. Kasb ta'limi va talabalarning kasbiy rivojlanish jarayonining prinsiplari, metodlari va boshqarish usullari tizimi hamda monitoringini aniqlash.

Kasbiy pedagogikaning har bir sohasini o'z ob'yekti va predmeti mavjud bo'lib, ular quyidagicha guruhanishi mumkin:

Soha	Ob'yekt	Predmet
Boshlang'ich kasbiy ta'limgiz pedagogikasi	Boshlang'ich kasbiy ta'limgiz tizimi (umumiyligiga o'rta ta'limgiz va qisqa muddatli kurslar negizida)	Boshlang'ich kasbiy bilim, ko'nikma va malakaga ega kasb- hunar sohiblari (tor ixtisoslik bo'yicha)ni tayyorlash jarayoni
O'rta kasb- hunar talimi pedagogikasi	Professional ta'limgiz muassasalaridagi kasbiy pedagogik jarayon	Yuqori malakali, keng ixtisoslikka ega kichik mutaxassislar tayyorlash
Oliy məktəb pedagogikası	Oliy ta'limgiz muassasalarida mutaxassis kadrlar tayyorlash	Oliy mə'lumotlu kasb-hunar sohiblарını tayyorlash jarayoni
Oliy o'quv yurtidan keyingi kattalar ta'limi pedagogikasi (Andragogika)	Oliy o'quv yurtlaridan keyingi kasbiy ta'limgiz jarayoni	Oliy mə'lumotlu mutaxassislar o'qitish va tarbiyalash jarayoni (ilmiy ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayoni)

### ***Nazorat savollari***

1. Mutaxassislik fanlarining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Kasbiy texnikaviy tushunchalar asosini nimalar tashkil etadi?
3. Mutaxassislik fanlarning mazmuni va mohiyatiga ko'ra qaysi guruhlarga ajratish mumkin?
4. Mutaxassislik fanlarini umumta'limgiz va umumkasbiy fanlardan farqi nimada?
5. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasida qaysi ilmiy tadqiqot metodalaridan foydalilanildi?
6. Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayoni necha bosqichdan iborat?
7. Pedagogik so'rash metodiga tushuncha bering?
8. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligini qanday tushunasisiz?
9. Mutaxassislik fanlari o'quv-uslubiy majmuasining asosiy funksiyasi nimadan iborat?

## *Muammoli vaziyatlar*

### *Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar*

#### *1- kichik guruh*



Leksiya kursi o'quv materialining bayon etilishi tarkibiy ketma-ketligini to'g'ri joylashtirish.

**O'quv-metodik majmua** o'quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lim resurslari, o'qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi.

#### *2- kichik guruh.*



*Sxema ichini to'ldiring.*  
*3- kichik guruh*



Bu chizmadan nimani anglayapsiz va bularning boshida nima turadi?

*4- kichik guruh*


1. Kvalifikatsion tavsifnoma nima?
  2. Nima uchun o'quv dasturi va o'quv rejasasi davlat hujjati hisoblanadi?
  3. O'quv dasturi nimalarni o'rgatadi?
- 5- kichik guruh*
1. O'quv rejasining qisqacha pedagogik tahlilini bering.
  2. Perspektiv-mavzuiy rejaning jadvalini chizib ko'rsating.
  3. Dars rejasasi tuzishining o'qituvchi uchun ahamiyati nimadan iborat?

**Nazorat savollari**

1. Darslik va uning turlarini izohlang.
2. O'quv – uslubiy majmuaning mazmunini izohla
3. O'quv – metodik majmuuning mazmun-mohiya
4. Ta'lim jarayonida o'quv-uslubiy ta'minotning ahamiyatini izohlang.
5. Didaktik o'quv vositalariga misollar keltiring.



## Krossvord



### Krossvord savollari:

#### Bo'viga:

1. Tafakkurning barcha bosqichlaridan o'tgan va amaliyotda sinab ko'rilib maromiga etkazilgan bilimlar majmui. (Nazariya)
2. Metod va logiya iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta'lilot ma'nosini anglatadi. (Metodologiya)

#### Eniga:

3. Xom ashyoning xilma-xil turlaridan iste'mol buyumlari va mahsulotlari ishlab chiqarishga ihtiisoslashtirilgan va bir-biri bilan o'zaro bog'langan sanoat tarmoqlari yig'indisi. (Yengil sanoat)
4. Bu yangilanish, tabiat rioxasi qiladigan prinsip! Daraxt eski bargini, odam esa jonga tekkan kiyimini tashlaydi. Moda zerikarli

bir xillikdan xalos kiladi. Odamlar bir – biriga yoqishni xoxlaydi: chiroyli kiyinsam, yaxshi ko'rinsam deydi – bu tabiiy ehtiyoj. (Urf)

5. O'qituvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda ta'lim oluvchilarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi. (O'qitish)

#### **4 – MAVZU. MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA ILMIY-TADQIQOT METODLARINI QO'LLASH VA O'QITISH**



##### **Reja:**

1. Ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish maqsad va vazifalari.
2. Ilmiy-tadqiqot metodlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Nazariy, suhbat, pedagogik so'rash metodlari.
4. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim, ikki qismli kundaliklar, menyu, o'z-o'zini nazorat.*

*Tayanch iboralar: elektron manbalar, tashxislash, bashorat etish, loyihalash, rivojlantirish, bilim, ilmiy pedagogik izlanishlar jarayoni, amaliy metodlar, nazariy metodlar, suhbat, eksperimental metodlar, matematik-statistik metodlar, metod, ilmiy-tadqiqot, statistik metod, pedagogik so'rash metodi, so'rvonoma.*

Barcha turdag'i ta'lim muassasalarida, shuningdek, professional ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi va uning natijalarini nazorat etib, baholovchi asosiy shaxs o'qituvchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida "Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslarga berilishi" ta'kidlangan. Bunda kasbiy tayyorgarlik tushunchasiga alohida e'tibor berish zarur. Chunki ma'lum ma'noda barcha odamlar ta'lim-tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanishadi, biroq faqat o'qituvchilargina kasbiy pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadilar. Demak, o'qituvchilar pedagogik qonuniyatlar asosida faoliyat

ko'rsatib, o'z burch va vazifalarini sifatli bajarishga javobgar shaxs hisoblanadilar. Har bir talaba, yosh avlod jamiyat va davlat taqdiri uchun javobgarlik his-tuyg'ulari o'qituvchi vazifasini tavsiflaydi. O'qituvchi mehnatining bugungi natijasi bilan jamiyatimizning ertangi istiqboli bevosita bog'liq.

Sabr-toqat va kelajakka ishonch o'qituvchining muhim kasbiy fazilatidir. Kasbiy ta'lif o'qituvchisining ishi juda murakkab ko'rinishdagi inson-inson, inson-texnika va texnologiya munosabatlariga tegishli. Chunki kasbiy pedagogik jarayon ishtirokchilari hamkorlik nuqtai nazaridan chegaralangan.

Pedagogik vazifa - kasbiy bilim va ish-harakat usullarini qo'llash borasidagi faoliyatni amalga oshirishdir. Buning natijasi o'laroq talaba ta'lif oladi, tarbiyalanadi va ma'lum ma'noda rivojlanadi.

O'qituvchining bosh vazifasi ta'lif-tarbiya, shakllantirish va rivojlantirish, jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini nazorat etish hamda baholash hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchi faoliyati o'qitish emas, balki suhbat - o'rganishga yo'naltirish, tarbiyalash emas, balki tarbiyalash jarayonlarini boshqarishga qaratilgan. Shuning uchun ham pedagog-murabbiyni Suqrot - "fikrlar doyasi", deb atagan edi. O'qituvchi tayyor ma'lumotni yetkazishi emas, balki talabalar ongida tushuncha, tasavvur, xulosa hosil qilishi zarur.

O'qituvchilar nima bilan shug'ullanishi va ular mehnatining o'ziga xos xususiyatlari ko'p sonli tadqiqotchilar tomonidan bayon etilgan. Ulardan biriga, o'qituvchining bosh vazifasi pedagogik boshqaruvchilik, deb biluvchilarga e'tiborimizni qaratsak. Boshqaruv vazifasini aniqlashtirish uchun "pedagogik loyiha" tushunchasidan foydalanamiz, "pedagogik loyiha" deganda, har qanday o'ylangan va oxiriga yetkazilgan o'qituvchi faoliyati tushuniladi. Masalan, dars, mavzu yoki bilimni o'rganish, viktorina tashkil etish, ekologik ekspeditsiya yuushtirish va shu kabilar. Bu ishlarning barchasini o'qituvchi bajaradi. Bunda boshqaruv qanchalik o'ylab, sinchkovlik bilan amalga oshirilsa, shuncha xatolarga kam yo'l qo'yiladi va natijada yuqori samaradorlikka erishiladi.

Pedagogning birinchi vazifasi loyihani shakllantirish davridanoq paydo bo'ladi va u ma'lum maqsadni ko'zda tutadi. Ma'lumki, maqsad pedagogik faoliyatda muhim omil, bu jarayon ishtirokchilarini ma'lum ma'noda hamkorlikdan umumiyl natijaga chorlaydi va yo'naltiradi.

Boshqarish jarayonining mohiyati ishtirokchilar hattiharakatlarini maqsadga erishish yo'lida muvofiqlashtirish minimum farqlarga yo'l qo'ygan holda maksimal natijaga erishishdan iborat. Ta'lim - tarbiya ishida boshqarish, eng avvalo, talabalarning bilimlariga asoslanadi, ularning tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganligi, rivojlanishiga tashxislash asosida erishiladi. Talabalarning jismoniy o'ziga xos jihatlari va ruhiy rivojlanganligi ularning aqliy va axloqiy tarbiyalanganlik darajasi, yashash shart-sharoitlari kabilarni bilmasdan turib, to'g'ri maqsad qo'yib ham, unga erishish vositalarini tanlab ham bo'lmaydi. Bu muhim qoidani o'z vaqtida K.D.Ushinskiy payqab, "Pedagogika insonni barcha jihatlarda tarbiyalay olishi uchun uning barcha jihatlarini bilishi zarur", - deb ta'kidlagan edi. Demak, o'qituvchi pedagogik vaziyatlarni tashxislash va bashorat etish metodlarini mukammal bilishi kerak. U metodlar odatda ilmiy tadqiqot etish metodlarini takrorlaydi. Bundan tashxislash bilan bashorat etishning uzziy bog'liqligi kelib chiqadi. O'qituvchidan aniq shart-sharoitga asoslangan holda faoliyat natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyati talab etiladi. O'zining faoliyati natijalarini oldindan ko'ra olmagan pedagogik tavakkaliga ish ko'radian yo'lovchiga, ongsiz o'rgimchakka o'xshatish mumkin, xolos. O'qituvchi o'zining hamkorlari, shart-sharoitini tashxislaydi hamda istiqbolni oldindan tasavvur etib, ta'limg-tarbiya faoliyatini loyihalashga kirishadi.

O'qituvchining loyihalovchilik vazifasi to'la amalga oshiriladigan faoliyatning modelini qurishdan, ushbu shart-sharoit hamda ajratilgan vaqt omillari hisobga olingan holda maqsadga eltuvchi yo'l va vositalarni tanlash, maqsadga erishtiruvchi aniq bosqichlarni ajratish, ularning har biri uchun xususiy vazifalarni belgilash, erishilgan natijani nazorat qilish va baholash ko'nikmalari hamda shakllarini aniqlash kabilardan iborat.

Haqiqiy o'qituvchi auditoriyaga rejaning mazmunini batafsil, aniq bilmasdan, o'ylamasdan kira olmaydi. Bunda rejaning hajmi emas, balki mohiyati, ya'ni uning o'qituvchi ko'z o'ngida

gavdalanishi muhimdir. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, o'qituvchi faqat bitta emas, balki bir qancha reja variantlarini tuzishi zarur, chunki ko'z ilg'amas, hisobga olinmay qolgan omillar ham bo'lishi mumkin.

Tashxislash, bashorat etish, loyihalash, rivojlantirish har qanday ta'lim-tarbiya ishida o'qituvchining tayyorgarlik ko'rish bosqichidagi asosiy vazifadir.

Ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning navbatdagi ikkinchi bosqichida o'qituvchi tashkilotchilik, axborotchilik, nazoratchilik, baholovchilik va o'zgartirishlar kirituvchilik vazifalarini bajaradi.

O'qituvchining tashkilotchilik vazifasi ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida talabalarning diqqat-e'tiborini jalg etish, ular bilan hamkorlik faoliyatida ishtirok etishdan iborat.

O'qituvchini axborotchilik vazifasining mohiyati ayni makon va zamonda o'qituvchiga asosiy axborot manbai sifatida qarash (tasavvur etish)ni ko'zda tutadi. U takomil darajada hamma narsani, ya'ni o'qitadigan predmetini, psixologiyani, fiziologiyani, pedagogika va metodikani biladi, ularga asoslanib kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshiradi, deb faraz qilinadi.

Ba'zi hollarda o'qituvchilarni baholashda nazoratchilik va o'zgartirishlar kirituvchilik vazifalari yaxlit olib qaraladi. O'qituvchi bunday vazifani eng avvalo, rag'batlantirish maqsadini ko'zda tutib, ta'lim-tarbiya jarayonini harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etadi. Shuni aniq bilishi zarurki, ta'lim-tarbiyada zo'rplash va qistovlar bilan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Talabalar bilan ishslashda ustalik bilan ularda istak va qiziqish uyg'otish yo'llarini topish zarur. Nazorat va baholash chog'ida faqatgina talabalarning qanday o'zlashtirganlarigina emas, balki o'zlashtirmasliklariga sabab bo'lgan jihatlar ham ko'zga tashlanadi. Demak, bu bosqichda yig'ilgan axborotlar o'qituvchining istiqboldagi faoliyatini rejalashtirish, takomillashtirish, maqbullashtirish uchun asos bo'ladi. O'qituvchi bajaradigan vazifalarning ko'pligi uning ishida talaygina ixtisosliklar (aktyor, rejissyor, menedjer, tahlil etuvchi, tadqiqotchi va h.k.)ning asosiy xususiyatlari mujassamlashganligidan dalolat beradi o'qituvchi kasbiy pedagogik vazifalardan tashqari oilaviy, fuqarolik, jamoatchilik vazifalarini ham bajaradi.

Kishilik jamiyatida odamzod o'z-o'zini anglagandan boshlab, ustozlar mavjud bo'lgan. Quyosh olamni yoritar ekan, ular kelgusida ham bo'ladilar.

Bizning barcha muvaffaqiyatlarimiz hamda tushkunlikka tushganimizda eng yaqinlarimiz bo'lgan ota-onamiz va o'qituvchilarimiz yonimizda bo'ladilar. Shuning uchun ham xalqimizda "Ustoz - otangdek ulug'" qabilidagi maqol keng ko'lama qo'llaniladi.

Uzoq tarixdan ma'lumki, o'qituvchi ustozlar qanday bo'lsa, jamiyatning ham o'shanday temir qonuniyati mavjud.

Ilmiy tadqiqotlar o'tkazishdan maqsad mutaxassislik fanlarini o'qitish va o'rgatish xususiyatlarini o'rganish, samarali metodlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash, pedagogik samaradorligini aniqlash, ta'lim jarayoniga didaktik vositalarini qo'llashga doir masalalarни yechishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o'qituvchidan mutaxassislik fanining mazmunini chuqur bilishi talab etiladi. Ko'pchilik bo'lajak pedagoglar talabalik davrlaridanoq pedagogik izlanishlar bilan shug'ullanadilar. Ma'lum bir mutaxassislik fani bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalari bilan qatnashib o'zlarining pedagogik mahoratini oshirib boradilar.

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining mutaxassislik faniga oid adabiyotlarni o'rganishi va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

O'qituvchi adabiyotlarni o'rganishi davomida quyidagilarni aniqlashi kerak:

- o'rganilayotgan muammo to'g'risida adabiyot muallifining fikr mulohazasi;

- o'rganilayotgan muammo to'g'risida an'anaviy metoddan farqliroq kiritgan takliflari;

- qanaqa asosiy masalalar adabiyotlarda yoritilmagan;

- muammoni yechishda keyingi olib boriladigan izlanishlar tartibi aniqlab olinadi.

O'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammoga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchining dars jarayonida qanday qiyinchilikka duch kelishi;

- kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

2. Farazni tuzish va o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Dalillar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni beradi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasida ilmiytadqiqotlarning umumiy va maxsus metodlari qo'llaniladi.

Umumilmiy metodlarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

**Nazariy metod** – adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishslashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar, to'plamlar va kataloglar, Internet tizimidan olingen ma'lumotlardan foydalaniлади.

**Kuzatish** – odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatishlar quyidagi turlarga bo'linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarning hatti-harakatlari va hokazolarni yozib qo'yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biror-bir hodisaning oqibatlari haqidagi daliliy materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-tehnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kinofilm, videotasvir, teleko'rsatuv, kompyuterlar)ni qo'llash bilan tobora ko'p qo'llanmoqda.

**Suhbat metodi** – so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi.

Suhbat metodi – o'qituvchilar va talabalar jamoasi bilan otanolar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib

borilganda qo'llaniladi. Bundan tashqari, intervyu olish metodi ham mavjud bo'lib, savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruuhlar bilan;
- intensiv;
- sinov va h.k.

Talabalar ijodini o'rganish – ularning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi va xulosalar yasaladi.

**Pedagogik so'rash metodi** – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror jihatni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidir. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan tizimini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamligini (3-5 ta) nazarda tutadi. Shuningdek, qat'iy shakldagi javobni ("ha", "yo'q") ham taqozo etishi mumkin.

**Test, so'rovnoma** – bu so'rovnoma, ya'ni anketa usuli qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning yakka yoki guruqli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istiklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarning bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri – bu test yordamidagi sinov o'tkazishdir. Test yordamida sinov talaba yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtai-nazaridan ba'zi bir yutuqlari va kamchiliklari keltirilgan va baholash jarayonini kompyuterlar yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta'kidlangan. Test savollari va masalalarining jozibadorligiga sabab, uning qisqa va lo'ndaligi, to'g'ri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning talabalarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, uning topishmoqli o'yinga o'xshashligi va javobni topishda xotira, intuitsiya va topqirlik qo'l keladi. Test savollarini qo'llash talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

**Test sinovlar metodi** – bu yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlari (anketalari)ni ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'lumotlari kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

**Eksperiment tajriba-sinov usuli** – ushbu tajriba asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

**Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli** – ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalar, jihozlar, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lim muassalarining qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

**Matematika va kibernetika usullari** – o'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, differensial va individual ta'lim berish kabi jarayonlardir.

**Sotsiologiya tadqiqot metodi** – anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning mutaxassislikka bo'lgan munosabatlarini aniqlash, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini, ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlар orasidagi munosabatlarni, dinga, xususan, tasavvufga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabarning ma'naviy sifatlar darajasini, bilim olishga ishtiyobi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, o'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarning sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalarning talabalar xarajatini qanchalik qoplash, haq to'lanadigan ishlarda talabarning qatnashishi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'lib yetishishida

hal qiluvchi omillar, talabalarning onglilik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, o'zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Ushbu metodlardan tashqari mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasida **maxsus empirik metodlardan** foydalilanildi.

Maxsus empirik usullaridan hodisa va jarayonlarni o'rganishga yo'naltirilgan asbob uskunalar va apparatlar orqali ob'yektiv miqdoriy kattaliklarini olish maqsadida qo'llaniladi.

Tadqiqotning maxsus empirik metodlarini shartli ravishda 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Ish harakatlarining natijaviy tafsilotini o'rganish (harakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi);
2. Biomexanik usullar;
3. Psixofiziologik usullar.

Ish harakatlarining natijaviy ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bog'liq tadqiqotlarda, shu jumladan, ularni o'zlashtirish jarayonida xronometraj katta rol o'ynaydi. Ish me'yori, shu jumladan, ishlab chiqarish amaliyotlarining turli davrlarida vaqt me'yori, ish tartibotini aniqlash, shuningdek, harakatlarning vaqtinchalik tuzilmasini o'rganish, talabalarning tayyorgarlik darajasini baholash uchun xronometrajdan foydalilanildi.

Ish kunini tasvirga olish xronometrajning bir turi bo'lib, unda ish kuni davomida yoki ishlab chiqarish amaliyoti davridagi barcha vaqt sarflari o'lchanadi va tahlil qilinadi. Bu bilan ish vaqtining sarfi va uning sabablari, shuningdek, ishni tashkil etishning holati ajratib ko'rsatiladi. Xuddi shu maqsadlarda shuningdek, o'z-o'zini tasvirga olish qo'llanilib, unda talaba o'z ishini o'zi kuzatadi va olingen natijalarni maxsus kuzatish varaqasiga kiritadi.

**Biomexanik metodlar** – bu ish harakatining fazoviy vaqt va kuch parametrlarini o'rganishdir: ularning mukammallik darajasi, talabaning asbob, dastgoh va hokazolar bilan o'zaro kuch ta'siri, asbob va qo'l harakatining kinematikasi va boshqalar aniqlanadi.

Tarixiy ilk biomexanik metodiga siklogamma kiradi. Siklogamma harakat elementlarining ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligini o'zida aks ettiradi. Siklogamma metodlarida asboblarga, qo'l yoki oyoqlarga elektrik lampochkalar biriktiriladi. Ishchi jarayoni fotoapparat bilan suratga olinadi. Fotoplastinkada

lampochka tasvirining yorug' nuqtalar ko'rinishida qolgan izi mos ravishdagi harakat trayektoriyasini beradi. Olingen trayektoriyaning tahlili harakatning tezligi, tezlanishi, yo'nalishi va boshqa tashkil etuvchilarni aniqlash imkonini beradi.

Psixologik metodlar o'quv va mehnat faoliyati jarayoni natijasida inson organizmining turli organlari funksional holatini o'rganish uchun qo'llaniladi. Bulardan elektromiografiya, elektrokardiografiya, elektrodermografiya usullari keng qo'llaniladi.

**Elektromiografiya** – harakatlanuvchi muskullarning elektrik potensialini yozishdir. Istalgan muskul harakati boshmiyadan elektrik impuls ko'rinishida uzatiladigan ta'sirlar natijasida ishlaydi. Muskullarning elektrik faolligi uning qisqarish kuchini aniqlaydi. Muskullarning elektrik potensiali maxsus elektrodlar yordamida kuchaytirgichga, o'zidan-o'zi yozgichga uzatiladi va u yerda miogramma – elektrik signallarning qog'ozda yozilishi qayd qilinadi.

**Elektrokardiografiya** – yurak tomirlarining elektrik potensiallarini qayd qilishdir. Yurak tomirlari ham muskullar kabi bosh miyadan keluvchi elektrik signallar ta'siri ostida qisqaradi. Ularni qayd qilish elektrokardiografiya deb aytildi.

**Elektrodermografiya** – terining elektrik potensialini qayd qilishdir. Inson tanasidan ter oqib chiqishi ham miyaning elektrik signallari ta'siri ostida amalga oshadi. Elektrodermogramma birinchi navbatda insonning ish jarayonidagi emotsiyonal holati ko'rsatkichi hisoblanadi.

Markaziy asab tizimining funksional holatini aniqlash uslubi o'quv mehnat faoliyatining talaba organizmi holatiga ta'sirini o'rganish uchun qo'llaniladi, masalan, diqqat darajasi, ish jarayonida toliqishning rivojlanishi, mashqlar ta'siri ostida markaziy asab tizimida sodir bo'ladigan siljishlar va hokazo.


Ko'pincha shartli reaksiyalar usuli qo'llaniladi, ya'ni talabalarga nurli, tovushli yoki boshqa xildagi signallar uzatiladi. Unga javob tariqasida talaba uncha murakkab bo'lмаган qandaydir holatni amalga oshirishi kerak, masalan, tugmachani bosish. Bu harakatni bajarish vaqt bo'yicha va xarakteri bo'yicha ushbu vaziyatda talaba markaziy asab tizimining holati va turli mezonlar ta'siri ostida undagi o'zgarishlarni aniqlashi mumkin.

**Nazorat savollari:**

1. Ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishning maqsad va vazifalarini izohlang.
2. Ilmiy-tadqiqot metodlarinig o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
3. Nazariy, suhbat metodini yoritib bering.
4. Pedagogik so'rash metodlariga misollar keltiring.
5. So'rovnoma metodini qo'llashga misol keltiring.
6. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usulga misol keltiring.



**Krossvord**



**Krossvord savollari:**

***Eniga:***

1. Pedagogikaning o'qitish qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib baholash metodi hamda vositalarini o'zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog'idir. Har bir o'quv fani o'qitish sohasi o'rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko'rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.(O'qitish metodikasi)

2. butun o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimi usuli bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtasida muloqot to'g'risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta'limgarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi(Kasb ta'limgartexnologiyasi)

3. kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv metodini qo'llashga, mustaqil ta'limgartishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan adabiyot turi(Elektron darslik)

**Bo'yia:**

4. umumiy pedagogikaning bir sohasi bo'lib, u tarbiya, ta'limgartish haqida qator nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi. Sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug'ullanadi (Kasbiy pedagogika)

5. ta'limgartish jarayoniga texnologik yondashuv asosida butun o'qitish va o'rgatish jarayonini aniq ketma-ketlikda puxta loyihalashtirilib tashkil etish, amalga oshirish va baholashning yaxlit tizimi bo'lib, uning asosini berilgan sharoitlar hamda ajratilgan vaqt ichida o'quv maqsadlariga kafolatli erishishlarini ta'minlash g'oyasi tashkil etadi (Pedagogik texnologiya)

nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, kengaytiradi, mustahkamlaydi, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish uchun yo'naltiriladi (Mustaqil ish)

## **5 – MAVZU. MAXSUS FANLARNI O’QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH VA O’TKAZISH, O’QUV MAQSADLARI VA MAZMUNINI BELGILASH HAMDA O’QITISH VOSITALARI VA DIDAKTIK MATERIALLAR TAYYORLASH**



### **Reja:**

1. O’qitish jarayoni tushunchasi.
2. O’qitish jarayonini tashkil etishda dastlabki tayyorgarlik.
3. Nazariy, amaliy darslar tushunchasi.
4. Mutaxassislik fanlarini o’qitish jarayonini tashkil etish va o’tkazish.

***Qo’llaniladigan talim texnologiyalari:*** pinbord, aqliy hujum, klaster, muammoli ta’lim, algoritm, munozara, o’z-o’zini nazorat.

**Tayanch iboralar:** o’qitish jarayoni, nazariy darslar, amaliy mashg’ulotlar, seminar darslari, laboratoriya mashg’ulotlari, dars tuzilmasi, o’qitishning texnik vositalari, axborotning texnik vositalari, bilimlarni nazorat qilish texnik vositalari, kompyuterli-axborotli vositalar.

**O’qitish jarayoni** – pedagogning va u rahbarlik qilayotgan talabalarning nazariy bilim, amaliy ko’nikma hamda malakalar tizimlarini ongli ravishda va puxta o’zlashtirishga qaratilgan izchil xarakterlari majmuidan iborat.

O’qitish talabalar shaxsini shakkantirishning, ularni aqliy va jismoniy kamol toptirishning, umumiylar maxsus bilim berishning eng muhim vositasidir. O’qitish jarayoni davomida talabalarning bilim olish kuchlari rivojlantiriladi.

**O’qitish** – o’qituvchining ta’lim oluvchilarga bilim, ko’nikma va malakalar tizimini berish, ularning bilim olish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyatidir.

**O’qish** – talabalarning o’quv fani materialini o’zlashtirish borasida qiladigan tizimi va ongli mehnati.

O’qitish ikki tomonlama jarayondir, u o’qituvchining faoliyati va talabalar faoliyatini o’z ichiga oladi. O’qituvchining faoliyati o’quv materialini bayon qilishdan, talabalarga fanga qiziqishni, fikrlar va e’tiqodni tarkib toptirishdan, hamda talabalarning mustaqil

mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish, shuningdek, baholashdan iborat.

O'qitish jarayonining ikkinchi tomoni talabaning faoliyati bo'lib, u o'quv fani materialini o'zlashtirishdan hamda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida fikrlar va e'tiqodni hosil qilish yuzasidan olib boriladigan sistemali mehnatdan iborat.

O'qitish mazmuni hamma vaqt tegishli o'quv fani dasturi bilan belgilanishini, talabalarning o'qishini esa o'qituvchi yo'lga solib turishini nazarda tutib, muvaffaqiyatli ta'lif berishning asosiy sharti ta'lif berish mazmuni, o'qitish va o'qish orasidagi chambarchas uzziy bog'lanish deb hisoblamoq kerak.

O'quv jarayonining to'g'ri qo'yilishi shu bilan xarakterlanadi, har qaysi bosqichda talabalar o'rganiladigan materialni tushunib oladilar, o'quv va malakalarini takomillashtiradilar, birorta yangi narsani idrok etadilar.

O'qitishning tashkiliy ko'rinishlari deganda, o'qituvchi va ta'lif oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi.

O'qitishning u yoki bu tashkiliy ko'rinishi guruqli va individual o'qitishning har xil ko'rinishida qo'shib olib borilishi, o'qitishda ta'lif oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, talabalarning o'qishiga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan xarakterlanadi.

Mutaxassislik fanlarini o'rganishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir vaqtida o'tkazilsa yaxshi natija beradi. Bu hol mashg'ulotlar sistemasini rejalashtirishni osonlashtiradi va darslarda mustaqil grafik ishlar va hisoblashlar, mashqlar va shu kabilar o'tkazishni yengillashtiradi. Pedagogik adabiyotlarda darslarni ularning belgilovchi har xil alomatlari asosida klassifikatsiyalashning turli variantlari keltiriladi. Bunday alomatlardan biri o'rganiladigan materialning mazmunidir. Darslarni klassifikatsiyalashning boshqa bir alomati ularni o'tkazish usullaridir. O'tkazish usullari deganda o'qituvchining ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyatida, darsni o'tkazish metodikasida ifodalangan tashkiliy va boshqa momentlar majmui tushuniladi.

Shu nuqtai nazardan darslarning quyidagi turlari bo'ladi: ma'ruza, suhbat va ekskursiya darslari, videotasvir, ta'lif

oluvchilarning mustaqil ishi darsi, laboratoriya ishi, amaliy ish, aralash dars va hokazolar.



*2-rasm. O'qitish jarayonining ketma-ketlikda o'tkazilishi tuzilmasi.*

Ko'p hollarda darslarni asosiy didaktik maqsad bo'yicha klassifikatsiyasini eng ma'qul deb hisoblamoq kerak. Bu klassifikatsiyani eng ma'qul deb aytishning sababi shundaki, u boshqa hamma narsadan tashqari darsning o'quv jarayonidagi o'rnnini hisobga oladi. Bu alomatga ko'ra darslarni quyidagi turlari mavjud: yangi bilimni bayon etish darslari, bilimni puxtalash, takrorlash va umumlashtirish, talabalarning bilim va malakalarini tekshirish, aralash darslari.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonini 2-rasmdagi sxemaga muvofiq ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi.

Ta'limg-tarbiya maqsadlari: ta'limg-tarbiyaning maqsadi ko'zlangan aniq natijaga intilishdir. Har qanday ta'limg-tarbiya doimo ma'lum natijaga qaratilgan (yo'nalgan) bo'ladi. Ta'limg-tarbiya ishining barcha komponentlari: mazmun, taskiliy shakl, metod va vositalari maqsadga bo'ysundiriladi: shuning uchun ham pedagogikada maqsad eng muhim muammolar sirasiga kiradi. Bunda, ta'limg muassasalari va pedagoglar nimaga intilishi zarurligi,

qanday natijaga erishishi kerakligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya ishi umumiy va individual maqsadlarga ajratiladi. Taraqqiyat parvar pedagogikada umumiy va individual maqsadlarning birligini ta'minlash g'oyasi ilgari suriladi.

Amaliy faoliyatda maqsad aniq vazifalar tizimi sifatida amalga oshiriladi. Maqsad va vazifalar o'zaro yaxlit bo'lib, ular qismlar (komponent) sifatida uyg'unlashadi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya maqsadi deganda yechimini topishi zarur bo'lgan vazifalar (masalalar) tizimi nazarda tutiladi. Odatda yagona maqsadga ko'plab vazifalar (masalalar) yechimini topish yo'li bilan erishiladi.

Kasbiy ta'lim maqsadlarini belgilab olish ta'lim metodlarini aniqlash, to'g'ri shakllantirish, turlash va tizimlashtirish, ya'ni ketma-ket masalalar va savollar tarzida ifodalash o'qituvchi kasbiy faoliyatining eng murakkab va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi.

Chunki u o'qituvchi faoliyatining keyingi bosqichlariga yo'naltiruvchi omil, mo'ljal sifatida xizmat qiladi. Talabalar ongiga yetkazilgan ta'lim maqsadlari ularni o'quv-bilish faoliyati uchun mo'ljal bo'ladi va ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ongliligi va faolligini ta'minlaydi.

Ta'lim maqsadlarini ishlab chiqishning birinchi bosqichida o'qituvchi tayyorlanayotgan mutaxassisning yozma shakldagi moduli hisoblangan malaka talablarini mukammal o'rganishi zarur. Undan so'ng o'quv rejası o'rganilib, o'zi o'qitadigan o'quv predmetining orni va boshqa fanlar bilan aloqadorligi aniqlanadi. O'qituvchi shu yo'l bilan o'zi o'qitadigan o'quv predmetini o'qitishdan ko'zlangan umumiy maqsadni, mutaxassis faoliyatida uchraydigan muammoli vaziyatlarni aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, o'quv rejasiga kiritilgan har bir o'quv predmeti malaka talablariga o'zining ma'lum ulushini qo'shib, bo'lajak mutaxassislarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bularsiz mutaxassis o'ziga yuklatilgan lavozim vazifalarni to'laqonli bajara olmaydi. Ta'lim maqsadlarini ishlab chiqishning ikkinchi bosqichida o'qituvchi xususiy maqsadlarni aniqlab oladi. Bunda o'quv predmetining namunaviy dasturini tahlil etish asosida har qaysi bo'lim, bob va faslda mavzuga tegishli maqsadlar aniqlanadi. Aniqlangan maqsadga binoan o'quv

materialining mazmuni va o'zlashtirilish rejasi darslik, o'quv qo'llanma va shu kabi manbalarda qanday yoritilganligi aniqlanadi.

Yuqorida zikr etilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosa kelib chiqadiki, pedagogik jarayon har bir o'quv predmetining maqsadini belgilashdan boshlanadi. Chunki har bir nazariy yoki amaliy mashg'ulot aniq maqsadlarni ko'zda tutadi. Agar o'quv maqsadlari belgilanmay mashg'ulot o'tkazilsa, uning mazmuniy va jarayoniy (prosessual) tuzilmasi buziladi.

Shu o'rinda bu maqsadga erishishda quyidagi omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkinligini nazarda tutish zarur. Bular:

- o'qituvchining kasbiy mahorati;
- o'quv materialining xususiyatlar;
- shart-sharoit va muhit;
- talabalarning ongliligi;
- mustaqilligi;
- faolligi;
- moddiy-texnik va ilmiy uslubiy ta'minot;
- ishtirokchilarning hamkorlik munosabatlari;
- vaqt va shu kabilar.

Shunday qilib, zamонавиy дарслар bir-biriga mushtarak quyidagi uch maqsadni ko'zda tutadi:

I. Ta'limiy maqsad – talabalar bilimi, ko'nikmasi va malakasida (o'sish) yuksalishning qanday darajada bo'lishi;

II. Tarbiyaviy maqsad – talaba shaxsida qanday sifat va fazilatlar tarkib topish va rivojlantirish zarurligi;

III. Rivojlantiruvchi maqsad – talabalar qanday mantiqiy operatsiyalar va aqliy faoliyat usullarini o'zlashtirishlari hamda uning rivojlantiruvchi natijalarini ko'zda tutadi.

An'anaviy tarzda tarbiyaning (qismlari) yo'nalishlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: aqliy, jismoniy, politexnik, axloqiy va estetik mehnat kabilalar.

Dunyoqarash o'rganilayotgan ob'yekt (jarayon, hodisa, predmet)ning mohiyati va mazmunini chuqur tushunishni ko'zda tutadi. Dunyoqarash shaxsga o'z hayotini ongli tashkil etish, fikri bilan ishining uyg'unligini ta'minlagan holda ishlashga imkon beradi.

Jismoniy tarbiya vazifalari: sihat-salomatligini mustahkamlash, jismonan to'g'ri rivojlantirish, aqliy va jismoniy ishlash qobiliyatini

oshirish, tabiiy sifat va xislatlarni rivojlantirish va takomillashtirish, yangi ko'rinishdagi hatti-harakatlarga o'rgatish, chidamlilik, epchillik kabi ish-harakat sifatlarini rivojlantirish, gigiyenaga oid malakalarni shakllantirish, axloqiy sifatlarni tarbiyalash (botirlilik, sabr-toqatililik, bir so'zilik, javobgarlilik, jamoaviylik, tartib-intizomililik), sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, sog'lom, baquvvat, tetik bo'lishga ishtiyoqni rivojlantirish kabilar. Ta'llim mazmunining yaxlitligi uning tashkil etuvchi tarkibiy qismlarining birligidan iborat. Bularga bilim, ish-harakat usullari, ijodiy faoliyat tajribalari, tashqi olamga (suhbat-o'rganish, mehnat, inson, tabiat, jamiyat va talabaning o'z-o'ziga) nisbatan his-tuyg'u va irodaviy munosabatlar kabilar kiradi.

Kasbiy ta'llim pedagogikasi alohida fan va o'quv predmeti sifatida nazariy va texnologik vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1.Nazariy vazifalar - ilg'or kasbiy pedagogik tajribalarni o'rganish, kasbiy ta'llimning holatini aniqlash, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish.

2.Texnologik vazifalari - metodik materiallar, o'quv reja, dastur, qo'llanmalar ishlab chiqish, pedagogika yutuqlarini amaliyotga joriy etish, tadqiqot natijalarini tahlil etish va h.k.

Kasb-hunar pedagogikasi ilmiy bilimlar sohasi sifatida quyidagi masalalarning yechimini topadi:

1.Kasb-hunar pedagogikasida kasbiy ta'llimning nazariy-metodologik asoslari va tadqiqotlar o'tkazish metodikasini ishlab chiqish.

2.Kasbiy ta'llimning mohiyati, yo'nalishlari va vazifalarini asoslash.

3. Kasb-hunar pedagogikasi g'oyalari va tarixini o'rganish.

4.Respublikamiz va chet ellarda kasbiy ta'llim holatini o'rganish hamda tahlil etish.

5.Kasbiy ta'llim-tarbiya va shaxsning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash.

6.Ta'llim standartlari va kasbiy ta'llim mazmunini asoslash.

7.Kasbiy ta'llimning samarali metodlari, vositalari, shakllari, tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish.

8. Kasb ta'limi va talabalarning kasbiy rivojlanish jarayonining prinsiplari, metodlari va boshqarish usullari tizimi hamda monitoringini aniqlash.

Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchining tahlil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo'lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo'la olmasligi hayotiy haqiqat. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omillaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o'qitishning texnikaviy vositalaridir.


Yuqori malakali mutaxassislarni sifatini oshirish uchun o'quv moddiy bazani rivojlanganligi darajasi muhim ahamiyatga egadir. O'quv jarayoniga zamонави о'qитиш vositalarini keng tatbiq etilishi talabalarning o'quv idrok etish faoliyatini yuqoriroq darajada tashkil qilish, talabalar va o'qituvchilar mehnatining intensivligini oshirish imkonini beradi. O'qitish vositalarini mohirlik bilan qo'llash talabalar mustaqilligini oshirish, mashg'ulotda ularning yakka tartibda va guruhli ishlarini tashkil etishning imkoniyatini kengaytirish, aqliy faollik va tashabbusni rivojlantirishga imkon beradi. O'qitishning texnik vositalari – texnik qurilmalar bo'lib, ularning yordamida o'quv axborotlari talabalarga yetkaziladi va ma'lumotlarning o'zlashtirilishi nazorat qilinadi.

Har bir aniq holda o'qitish vositalarini tanlash o'qitishning maqsadi va vazifalari, mazmuni, o'quv jarayonining qonuniyatları, o'qituvchilarning idrok etish qobiliyatları, o'qitishning qo'llanilayotgan tashkiliy shakllari va usullari, o'qitish vositalarining didaktik imkoniyatlari bog'liqidir.

O'quv jarayoni uchta asosiy maqsadni bajaradi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda barcha ana shu kompleksli jarayon juda muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayonida darsni o'quv vositalari bilan yoritishda iqtisodiy faktorni hisobga olishi darkor. Bir tomondan ta'lim mazmuni, vositalari, ikkinchi tomondan ana shunday ta'lim vositalarini tanlab tashkil etish va ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi vazifalarini bajarish muhim ahamiyatga ega.

Biz mashg'ulot davomida mavzuga oid ma'lumotlarni berishda turli didaktik materiallardan foydalanamiz. Ushbu materiallardan bevosita yoki vositalar yordamida foydalanishimiz mumkin. Avvalo

biz didaktik materiallarning bevosita qo'llaniladigan oddiy turlari bilan tanishib chiqamiz. Bunday didaktik materiallar qanday maqsadda qo'llanilishiga qarab bir necha turlardan iborat bo'ladi (3-rasm).



*3-rasm. Didaktik materiallar va vositalarning klassifikatsiyasi, jihozlanishi*


**Ko'rgazmali materiallar.** Mashg'ulot davomida beriladigan o'quv materiali talabalarga og'zaki usulda yetkazishning imkonini bo'limganda uni albatta ko'rgazmali tarzda berish kerak bo'ladi. Bunday didaktik materiallar ko'rgazmali materiallar deyiladi.

Bular axborotlarni auditoriyadagi barcha talabalar uchun umumiy berishga mo'ljallangan. Bunday materiallardan asosan o'qituvchi talabalarga yangi bilimlarni berishda, odatda nazariy mashg'ulotlarda foydalanadi.

Ko'rgazmali materiallar o'quv axborotlarini grafik tasvirlagani uchun talabalarning tushunishlarini osonlashtiradi.

Ko'rgazmali materiallarning bir necha turlari bor. Ularning oddiyidan murakkabiga qarab ko'rib chiqsak. Rasmlar eng oddiy ko'rgazmali material hisoblanib, uni o'qituvchi mavzuga oid ob'yektning umumiy ko'rinishi, qismlari, shakli, nisbiy o'lchamlarini ko'rsatishda foydalanadi. Masalan, texnologik mashinaning tuzilishini, har tomonlama ko'rinishini tashkil etuvchi qismlarini ko'rsatish mumkin.

## ODDIY DIDAKTIK MATERIALLAR



*4-rasm. Oddiy didaktik materiallarning sinflanishi*

**Sxemalar** asosan murakkab ob'yektlarning tuzilishi va ishslash prinsipini soddalashtirilgan holda tushuntirish uchun foydalilanadi. Masalan, texnologik mashina va mexanizmlarning elektrik, pnevmatik, gidravlik sxemalarini olishimiz mumkin.

**Chizmalaridan** mavzuga oid ob'yektlarni chuqurroq o'rganishda foydalananamiz. Masalan, turli detallarning ish chizmalaridan foydalaniib, ularning aniq geometrik o'lchamlari va shakli, qanday elementlardan iboratligi kabi ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

**Jadvallar** mavzuga oid bir-biriga bog'liq bir nechta kattaliklarning ma'lum bir tartib asosida joylashtirilgan to'plamlaridir. Ular yordamida kerakli ma'lumotlar hamda kattaliklarni olish va hisoblash tez, oson kechadi. Masalan, jadvaldan foydalaniib istalgan markali podshipniklarning o'lchamlarini olishimiz mumkin.

**Diagrammalar** yordamida bir necha parametrlarning o'zaro nisbatini grafik tasvirlashimiz mumkin. Diagrammalar turli ko'rinishda tasvirlanishi mumkin: doiraviy, ustunli, chiziqli, uch

o'lchamli va h.k. Masalan, korxona ishlab chiqarayotgan mahsulotning turli yillardagi hajmi va undan keladigan daromad miqdorini uch o'lchamli ustunli diagramma yordamida tasvirlash mumkin.

**Plakatlar** ko'rgazmali materiallarning eng universal turi bo'lib, u o'zida yuqorida keltirilgan barcha turdag'i ko'rgazmali materiallarni mujassamlashtirishi mumkin. Shuning uchun yuqorida aytilgan ko'rgazmali materiallar yordamida o'quv materiallarining alohida bir qismi to'g'risida ma'lumot bersak, plakatlardan, butun bir mavzuga oid barcha ma'lumotlarni berishda foydalanishimiz mumkin. Masalan, tokarlik dastgohi to'g'risidagi plakatda dastgohning rasmi, uning kinematik sxemasi, uzatmalar qutisining ish chizmasi, tezliklar va uzatish nisbatlari jadvali, ish unumtdorligi grafigi kabi axborotlarning bari joylashgan bo'ladi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallarning bu turidan juda keng foydalaniladi.

**An'anaviy o'quv adabiyotlari.** Ta'lim berishda talabalarning bilim olishlari, mustaqil o'qishlari uchun ularga uslubiy yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga egadir. Bunday vaqtarda qo'llaniladigan didaktik materiallar o'quv adabiyotlari bo'lib, ular an'anaviy (bosma) va elektron ko'rinishlarda bo'ladi. Ular darsliklar, uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, to'plamlar, ma'lumotnomalar, lug'atlar, ma'ruzalar matni bo'lishi mumkin. Ulardan mashg'ulotlar davomida ham, mustaqil ishslashda ham keng foydalaniladi.

An'anaviy o'quv adabiyotlaridan o'qituvchining o'zi ham, talabalar ham foydalanishlari mumkin. Ularsiz ta'lim jarayonini olib borishning imkonи yo'q. Shuning uchun ta'limning o'quv-uslubiy materiallar bilan etarli darajada ta'minlanganligi katta ahamiyatga ega.

**Darsliklardan** nazariy bilimlarni olishda, darsdan tashqari mustaqil o'qish uchun foydalaniladi. Misol va masalalar to'plamlari, ma'lumotnomalar, lug'atlar va kataloglardan ko'proq amaliy mashg'ulotlar va mustaqil topshiriq bajarganda keng foydalaniladi. Mashg'ulot davomida yoki mustaqil ravishda topshiriq bajarayotganda talabalarga uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Fanni o'zlashtirishda ma'ruzalar matni ham talabalarga yaqindan yordam beradi.

**Tarqatma materiallar.** Mashg'ulot davomida o'quv materiallarini guruhdagi har bir talabaga yoki guruh ichidagi kichik

guruhchalarga alohida etkazishga to'g'ri keladi. Bunday vaqtida didaktik material tarqatib chiqiladi. Shuning uchun bunday didaktik materiallar tarqatma materiallar deb yuritiladi.

Didaktik materiallarning bu turidan asosan talabalar bilan individual yoki kichik guruhlarga bo'lib ishslashda, amaliy va nazorat mashg'ulotlarida keng foydalanamiz. Tarqatma materiallarning ham bir nechta turi bor.

**Test materiallari** bizning ta'lim tizimimizda ko'pdan beri qo'llanilib kelinmoqda va bu sohada katta tajriba orttirilgan. Talabalarning bilimlarini sinashda ulardan foydalanishning ustunlik tomonlari shuki, qisqa vaqt ichida, istalgan hajmdagi o'quv materiali bo'yicha, guruhdagi talabalar sonining ko'pligidan qat'iy nazar sinovni o'tkazish mumkin. Odatda testlar bir necha mavzular yoki to'liq fan bo'yicha savollarni o'z ichiga oladi.

Test materiallari asosan ikki qismdan iborat bo'ladi, savollar kitobchasi va javoblar varag'i. Ba'zan savollarni berishda qo'shimcha material va vositalardan ham foydalanishi mumkin.

**Axborot byulletenlari** tarqatma materiallarning yana bir turi bo'lib, ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida ular juda takomillashib ketdi. Nazariy mashg'ulot o'tish vaqtida talabalarga oldindan o'rganilayotgan mavzuning matni berilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulot vaqtida muhokama qilinayotgan muammoga doir boshlang'ich axborotlar talabalarga tarqatib chiqilishi mumkin. Talabalarni mashg'ulotlarga tayyorlashda ularni oldindan ba'zi axborotlardan xabardor qilish, ularning boshlang'ich axborotlarga ega bo'lishi yoki yangiliklardan voqif bo'lishi mashg'ulot oldiga qo'yilgan maqsadga samarali erishishga yordam beradi. Shuning uchun bunday didaktik tarqatma materiallarni **axborotnomalar** deyishimiz mumkin.

**Topshiriq kartochkalari** deganda, talabalar bilan amaliy mashg'ulot o'tayotganda, ularning har biriga yoki kichik guruhchalariga turli beriladigan yozma topshiriqlar tushuniladi. Bunday vaqtida qo'llaniladigan tarqatma didaktik materiallar topshiriq kartochkalari deyiladi. Ular laboratoriya ishlari, seminar treningi, grafik ishlar, misol va masalalar, tajriba ishlari, kasb mahoratiga doir va h.k. turdag'i amaliy mashg'ulotlarga doir ishlab chiqilishi mumkin. Ular oldindan bajariladigan ishning xususiyatlari

va talabalarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. Unda topshiriqqa doir tushuntiruvlar, topshiriqning sharti va namuna berilishi mumkin. Natijada undan foydalanganda ham o'qituvchining vaqtি tejaladi, ham talabaning topshiriqni bajarishi oson kechadi.

Anketalar odatda guruh talabalaridan ba'zi bir ma'lumotlarni olishga to'g'ri kelganda, biz ularga turli savollar bilan murojaat qilishimizga to'g'ri kelganda qo'llaniladi. Anketa yordamida goh ochiq, goh yashirin tartibda talabalarning munosabatlarini, qiziqishlarini va boshqa ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Bu ma'lumotlar asosida olib borilayotgan ta'lim va tarbiya ishlari kerakli o'zgartirishlar kiritamiz. Turli o'quv-tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishda ham foydalanishimiz mumkin.

*Namuna materiallari.* Turli nazariy va amaliy mashg'ulotlarda yoki auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarga o'r ganilayotgan ob'yektlar to'g'risida gapirganda imkon qadar ularning namunalaridan foydalanshimiz kerak. Bunday didaktik materiallar namuna materiallari deyiladi. Ularni biz tabiiy namunalar, xom ashylarning namunalari va tayyor mahsulotlarning namunalari deb farqlashimiz mumkin.

Tabiiy namunalarga tabiatdan olingan, inson ta'sir etmagan narsalarni olishimiz mumkin. Masalan, qazilmalar, mineral boyliklar, paxta, o'rmon va h.k. Mana shu tabiiy namunalarga ishlov berish natjasida ularda sifat o'zgarishi sodir bo'ladi. Bular paxtadan tola, daraxtdan taxta, rудадан temir va h.k. Bu namuna materiallar endi xom ashylarning namunalari hisoblanadi.


Endi xom ashylardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'rishimiz mumkin. Masalan: toladan gazlama, taxtadan mebel, temirdan detal va hokazo. Bular endi tayyor mahsulotlarning namunalari sifatida qo'llaniladi. Ayrim vaqtida xom ashyo va tayyor mahsulot orasida qat'iy chegara bo'lmaydi. Toladan gazlama ishlab chiqarilayotganda gazlama tayyor mahsulot sifatida qaralsa, gazlamadan kiyim tikilayotganda gazlama xom ashyo sifatida qaralishi tabiiy. Namuna materiallaridan namoyish qilishda, tajriba o'tkazishda, texnologik jarayonlarni ko'rsatishda qo'llash mumkin. Mashg'ulotlarda namuna materiallardan foydalanilayotganda talabalarning tushunishlari va tasavvur qilishlari oson kechib, ularning fanga bo'lgan qiziqishlari oshadi.

### ***Yordamchi moslamalar va murakkab didaktik materiallar.***

Didaktik materiallardan foydalanish va ularni saqlashda yordamchi moslamalar kerak bo'ladi. Ular qo'llaniladigan didaktik materiallarga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, ko'rgazmali materiallar uchun ularni osadigan doskalar, flipchartlar, ramkalar, ilgaklar, sim torlar zarur bo'ladi.

Tarqatma materiallar uchun pinvand, stol, lototron, ularni saqlash qutilari kerak bo'ladi. O'quv uslubiy materiallar uchun javonlar va stendlar kerak bo'lsa, namuna materiallari uchun shkaflar va namoyish stollari kerak bo'ladi. Modellar va ko'chma maketlarni saqlash uchun maxsus xonalar, namoyish qilish uchun esa namoyish stollari, ko'chirish aravachalari bo'lishi mumkin. Ba'zan model, maket va stendlardan foydalanish uchun elektr toki, yonilg'i, havo bosimi kabi manbalar kerak bo'ladi. Buning uchun esa maxsus jihozlangan laboratoriya va ustaxonalarga ehtiyoj tug'iladi.

Didaktik materiallar hajmiy o'lchamlarga ega bo'lsa (namuna materiallarini hisobga olmaganda), o'rganilayotgan materialning harakat va xususiyatlarni ko'rsata olsa yoki statsionar foydalanish xususiyatiga ega bo'lsa, ularni murakkab didaktik materiallar deb ataymiz. Ularni shartli ravishda sinflab chiqishimiz mumkin (5-rasm).



*5-rasm. Murakkab didaktik materiallarning klassifikatsiyasi*

**Modellar** – ta'limdi qo'llaniladigan didaktik materiallarning bir turi bo'lib, ular ilgarigi oddiy didaktik materiallardan hajmiy o'lchamga egaligi, harakatni ko'rsata olishi, qo'l bilan ushlab ko'rish va uning harakatini boshqarish mumkinligi kabi ustunliklari bilan

farqlanadi. Shuning uchun ulardan foydalanganimizda talabalar o'rganilayotgan murakkab ob'yeqtlni oson tasavvur qila oladilar.

Modellar ta'lrim muassasasiga tayanch oliy ta'lrim muassasalaridan tayyor holda ham kelishi mumkin, ularni o'quv yurti sharoitida o'zimiz ham tayyorlashimiz mumkin.

**Model** – o'rganilayotgan ob'yeqtning o'ziga o'xshash qilib tayyorlangan prototipi bo'lib, u har tomonlama soddalashtirgan holda tayyorlanadi. Bu modellashtirish bo'lib, tayyorlanayotgan model mos masshtabga keltiriladi. Avvalo geometrik masshtabga e'tibor beriladi, ya'ni u auditoriya masshtabiga keltiriladi.

Kichik ob'yeqtlar kattalashtirilishi, katta ob'yeqtlar kichraytirilishi, ba'zi ob'yeqtlar, o'lchamlari bilan auditoriya masshtabiga yaqin bo'lsa, o'z kattaligida tayyorlanishi mumkin. Natijada ulardan foydalanish qulay bo'ladi. Modelimiz harakatlanuvchi bo'lsa, kuch masshtabiga ham e'tibor berishimiz kerak.

Harakatni beruvchi kuchlar, masalan, aylanma harakat, bosim, harorat, ishqalanish, tok kuchi va boshqa kattaliklar modelning geometrik o'lchamlariga proporsional bo'lishi kerak. Aks holda, kuch model o'lchamlariga nisbatan kichik bo'lsa yoki katta bo'lsa, biz kerakli harakatni ko'rsata olmaymiz.

Modelni imkon qadar soddalashtirish kerak. Unda asosiy geometrik elementlar va asosiy ish bajaruvchi detallar bo'lishi kifoya, aks holda undan foydalanish noqulay bo'lib qoladi. Modellarning asosan uchta turini farqlaymiz. Bular geometrik, fizik va funksional modellar.

**Geometrik modellar** o'rganilayotgan ob'yeqtning geometrik xususiyatlari, ya'ni nisbiy o'lchamlari, shakli va geometrik elementlari to'g'risida ma'lumot beradi. Masalan, ichki yonuv dvigatevi silindri va porshenining geometrik modeli uning geometrik tuzilishi, nisbiy o'lchamlari to'g'risida ma'lumot beradi.

**Fizik modellar** o'rganilayotgan ob'yeqtning fizik xususiyatlarini namoyon qiladi. Masalan, ishqalanish, bosim, harorat, magnit maydoni, aylanma harakat va boshqa xususiyatlarni ko'rsatish uchun fizik modellardan foydalanamiz. Yuqoridagi misolni davom ettirsak, ichki yonuv dvigatevi silindri va porshenining fizik modeli silindr yonuv kamerasida temperatura

oshishi natijasida bosim paydo bo'lishi va porshenni harakat qilishga majbur etishini tushuntirishimiz mumkin.

**Funksional modellar** murakkabligi bilan ajralib turadi. Ular o'rganilayotgan ob'yeqtning bajaradigan funksiyasini ko'rsatish uchun mo'ljallangan bo'lib, yurgizish, ko'tarish, kesish kabi bajariladigan operatsiyalarni ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan misolni rivojlantirsak, ichki yonuv dvigatelidagi porshenning ilgarilanma – qaytma harakati tirsakli valga aylanma harakatni berishini va dvigate�ning bajarayotgan funksiyasini ko'rsata olamiz.

**Maketlar** modellarga nisbatan murakkabroq hisoblanib, bir nechta ob'yektlarni o'z ichiga olishlari mumkin. Shu jihatdan mакet tarkibida bir necha modellar bo'lishi ham mumkin. Ular texnologik mashina va jihozlarning maketlari, bino va inshootlarning maketlari hamda texnologik jarayonning maketlari bo'lishi mumkin.

Texnologik mashina va jihozlarning maketlari yordamida ularning tuzilishi, ishslash prinsipi va bajaradigan texnologik jarayonlarni ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, parmalash dastgohining maketini oladigan bo'lsak, unda dastgohning asosiy elementlari: zagotovkani mahkamlash stoli, dastgoh korpusi, parma, elektrodvigateli va reykadan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Bino va inshootlarning maketlari esa turli korxonalardagi binolar va inshootlarning tuzilishi, joylashishi va bajaradigan vazifasini ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Masalan, turar joy binosining maketi, elevatorning maketi. Bunday maketlarda binoning elementlari, inshootning tuzilishi, qanday texnologik mashina va jihozlardan iboratligi, ular o'zaro qanday texnologik operatsiyalarni bajarishini ko'rsatishimiz mumkin.

Texnologik jarayonlarning maketlari esa eng murakkab maketlar bo'lib, ular to'liq korxona to'g'risida ma'lumot beruvchi bir majmuiy maketdir. Uning tarkibida turli modellar, texnologik mashina va jihozlarning, hamda bino va inshootlarning maketlari ham bo'lishi mumkin. Bunday maketlar yordamida korxonaga xomashyo keltirilishidan mahsulot ishlab chiqarilgungacha bajariladigan texnologik jarayonlar yoki boradigan jarayonlar immitatsiya qilinishi mumkin. Natijada talabalarda bu jarayonni o'rganishga qiziqish ortib, uni tasavvur qilish va tushunish osonlashadi. Masalan, konserva zavodining maketini oladigan bo'lsak, bu maketda korxonaning ishlab chiqarish binolari va inshootlari ketma-ket

texnologik jarayon asosida joylashtirib chiqilgan bo'ladi. Bunday maketlarni hatto harakatlanuvchan qilib ham tayyorlash mumkin. Umuman olganda bu maketlar talabalarga kasb mahoratini rivojlantirishlariga, mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida texnologik operatsiyalarni ketma-ketligini boshqarishni o'rganishga katta yordam beradi.

*Stendlar* murakkab ko'rgazmali materiallar sirasiga kiruvchi didaktik materiallar hisoblanadi. Shuning uchun oddiy ko'rgazmali didaktik materiallardan farqli ravishda ulardan asosan qo'zg'almas holda foydalaniлади.

Stendlar o'zida bir yo'nalishdagi bir necha mavzular, hatto to'liq fanni ham mujassamlashtirishi mumkin. Shuning uchun stendlarda barcha turdag'i didaktik materiallardan foydalansa bo'ladi. Ularda umumlashtirilgan holda axborotlar beriladi.

Stendlar mavzularni, texnologik mashina va jihozlarni yoki texnologik jarayonlarni o'rganishga oid bo'lishi mumkin. Mavzuni o'rganishga oid stendlar ijtimoiy, iqtisodiy, ma'muriy, uslubiy yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Ular qo'zg'almas holda o'rnatilsa ham, undagi ma'lumotlar va materiallar doimo yangilanib turiladi. Masalan, "Vodoprovod jo'mragi"» uzelining chizmasi" misolida grafik topshiriqlarni bajarishga doir stendni olsak. Bunday stendda uzel detallarining eskizlari, ish chizmalari va uzelning yig'ish chizmasi, mavzuga oid qisqacha nazariy ma'lumotlar berilgan bo'ladi.

Bundan tashqari namuna sifatida vodoprovod jo'mragining har bir detali kerakli qirqimlar berilgan holda, alohida ajratib olinib, stendning tegishli joyiga mahkamlangan bo'ladi. Ularning har birining eskizlari va ish chizmalari bajarib ko'rsatilgan bo'ladi. Jo'mrakning yig'ma holdagi birikmasi, kerakli qirqimlar berilgan holda, tegishli joyiga mahkamlangan bo'ladi. Uning eskizi va yig'ish chizmasi ham ko'rsatiladi. Ushbu topshiriqni bajarishga doir uslubiy ko'rsatmalar, baholash mezonlari kiritiladi, hamda topshiriq uchun yig'ma detallarning rasmlari va variant nomerlari keltiriladi.

Texnologik mashinalar va jihozlarni o'rganishga oid stendlar. Masalan, biror bir texnologik mashina stendi yordamida uning turli bosimlar ostida ishlashini sinab ko'rishimiz mumkin. Stendni ishlatish jarayonida kerakli parametrлarni olishimiz yoki o'lchashimiz mumkin. Texnologik mashinaning tuzilishini

o'rganishimiz, texnik tavsiflari, alohida detal va mexanizmlari to'g'risida ma'lumotlar olishimiz mumkin.

Texnologik jarayonlarni o'rganishga doir stendda texnologik jarayonning ketma-ketligi, bajariladigan operatsiyalar, ularda ishtirok etuvchi mashina va jihozlar, qo'llanilgan xom ashyolar va tayyorlanadigan mahsulotlar namunalari va boshqa ma'lumot va materiallar keltirilgan bo'ladi. Masalan, konserva zavodining harakatlanuvchi maket-stendini oladigan bo'lsak, bu stendda korxonaning ishlab chiqarish sexidagi texnologik liniyaning texnologik jarayonni amalga oshirishini o'rganishimiz mumkin. Bunda o'rganilayotgan jarayonda qanaqa mashina va jihozlar ishtirok etayotganligi, ularning o'zaro texnologik operatsiyalarni bajarishi, xom-ashyoga qanday ishlov berilib, tayyor mahsulot qanday chiqarilishini o'rganishimiz mumkin. Bundan tashqari bu jarayonning ketma-ketligini boshqarishni o'rganish mumkin.

Demak, o'qitishning texnik vositalari deganda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlab, uning samaradorligini oshirish, ta'minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o'qitishning texnik vositalarini shartli ravishda uch asosiy guruhg'a bo'lish mumkin:

- audiovizual vositalar (kinoproektsiya, diaproektsiya va epiproektsiyalar, ovoz yozib olish, televidenie, radio);
- jihozlar, uskuna va asboblar;
- dasturli (kompyuterli) ta'lim vositalari.

O'qitishning texnik vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentlari bilan uzviy bog'liqlik va munosabatlарини hisobga olган holda foydalanish zarur. Aks holda mashg'ulot samarasini umuman yo'qqa chiqarish ham mumkin.

Mashg'ulotda o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish yordamchi xarakterga ega bo'lib, ularni tanlash, ishlatalish vaqt va joyi darsning umumiyligini rejasida maqsadlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining jonli muloqoti muhim ahamiyatga ega bo'lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo'la olmasligi hayotiy haqiqat.

O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda quyidagi texnikaviy-pedagogik talablar qo'yiladi:

- o'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda o'quv jarayonida ulardan majmuaviy tarzda foydalanishni hisobga olish zarur;
- o'quv xonasining istalgan joyidan yaxshi ko'rish va eshitish imkoniyatining mavjudligi;
- o'quv xonasida, shovqin, yoritilganlik, namlik va kabilar me'yorini ta'minlashi;
- oddiy, arzon, xavfsiz, uzoq muddat buzilmay ishlashi.

Ta'limgartarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish avvalo didaktik prinsiplarga amal qilishni ko'zda tutadi. Masalan, ko'rsatmalilik printsipi real ob'yekti bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi.

Real ob'yekti yoki uning tasvirini ko'rish (idrok etish) inson uchun uni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Ta'limgartarbiya ishida ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish zaruriyati insonning fikrlash xususiyatidan kelib chiqadi. Insonning fikrlash xususiyati ma'lumdan mavhum tomon rivojlanadi. Tushuncha va mavhum qonun-qoidalar aniq kuzatishlarga asoslansa, ularning mohiyat mazmuni ancha oson va tez shakllanadi. Inson tafakkurining rivojlanishi uning yoshiga, hayotiy tajribasi kabilarga bog'liq bo'lib, ta'limgartarbiya jarayonida hisobga olinishi, aniq dalillar va obrazlardan ajralib qolmasligini talab etadi.

- Tasviriy ko'rsatmalardan quyidagi hollarda foydalaniladi:
- o'rganiladigan ob'yekt juda katta yoki kichik bo'lganda;
  - o'rganiladigan ob'yektni bevosita ko'rish mumkin emas;
  - tushuncha va xulosalarni grafik tarzda ifodalash mumkin bo'lganda:

- murakkab ob'yektlarni soddalashtirish yoki ishslash tartibini ko'rsatish zarur bo'lganda:

- ob'yektning eng xarakterli zamon va makondagi holatni qayd etish va ko'rsatishda va shu kabilarda.

- Ko'rsatmali qo'llanmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:
- barcha talabalarga yaxshi ko'rindigan darajada katta bo'lishi;
  - o'quv xonasining istalgan joyidan bemalol o'qilishi;
  - muhim detallar va yozuvlarning boshqa diqqatni o'ziga tortuvchi rang bilan alohida bo'yalishi;

- tasvirlar imkon qadar ob'ektning asl rangiga mos bo'lishi;
- tasvirlarning estetik did bilan rasmiylashtirilishi;
- matnnning haddan tashqari ko'p bo'lmasligi;
- tasvirlangan ob'ektlarning tabiiy vaziyatda ko'rsatilishi;
- mashtabga rioya qilishi;
- arzon, qulay, uzoq vaqt o'z holatida saqlanishi va shu kabilar.

Shu o'rinda ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanish maqsad bo'lmay, balki natijaga erishish vositasi ekanligini unutmaslik zarur.

Ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanishda o'quv materialining mazmuni va vaqtini hisobga olish zarur. Mashg'ulotda ko'rsatmali qo'llanmalardan haddan tashsari ko'p ham foydalanish yaxshi natija bermaydi. Namoyish qilinayotgan materiallarni idrok etish jarayonida tahsil oluvchilar sezgi organlarining (ko'rish, eshitish, hidlash, ta'm bilish) ko'proq jalb etish zarur. O'qituvchining so'zi bilan ko'rsatmalilikning uyg'unligi katta ahamiyatga ega. Ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanishganda beriladigan izoh tahsil oluvchilar diqqat-e'tiborini asosiy materiallarga qaratilishini ko'zda tutadi.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rinni tutadi. Eng muhimi shundaki, amaliyot o'qituvchisi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim. Masalan: tikuv mashinasi ishida sodir bo'ladigan nuqsonlarni bartaraf eta bilishi, asosiy sozlanishlarni bajarishi va mashinani ishchi holatiga keltira olish kerak, ya'ni o'z kasbiy sohasining moyhir ustasi bo'lishi kerak. Amaliyot o'qituvchisi o'z kasbiy sohasi uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o'zi yangiliklar qila olishi mumkinligi yuzasidan umumiyligi tushunchaga ega bo'lishi lozim. Ko'pincha o'qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proyektor slaydlari kabi vizual vositalarni o'zlarini ishlab chiqadilar.

**O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash.** Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba materiali sifatida ishlataladigan vositalarimizni quyidagicha farqlanadi:

Ko'pincha o'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallarni sifatida, ya'ni o'qitish, o'rganish uchun ishlataladi.

O`quv  
materiallari

ular amaliyot o`qituvchilari tomonidan darsni ko`rgazmali o`tkazish va bilim berish uchun qo'llaniladi

Didaktik  
materiallar

ular talabalar tomonidan o`rganish uchun qo'llaniladi va o`qituvchisi tomonidan tayyorlanadi

O`quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o`qituvchi tomonidan ularning tanlanishi, nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar bo'lmasa, ularni o`qituvchining o`zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O`quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o`qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;
- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;
- baholash varag'i, nazorat qog'ozi;
- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar;

Nazariy darslar o`tkazish paytida amaliy ko'rsatmalar berilgan quyidagi vositalar ishlataladi:

Turi	Ishlatish uchun ko'rsatmalar
O`quv kitoblari	Kitobning muayyan betlarini belgilab, dars rejasiga kiritiladi
Tarqatma materiallar	O`quv kitoblaridan yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlanadi va ko`paytiriladi.
Doska tasvirlari	Mavzu va grafiklarga eskizlar tayyorlash
Slaydlar	Ular nusxalash apparatida yoki kompyuterda tayyorlanadi
Modellar	Ustaxonadagi har bir predmet yaroqli – ham yaxshi ham yomon mahsulotlari ko'rsatilishi lozim.

Amaliy mashg'ulotlar yoki amaliy ish jarayonlari paytida amaliy ko'rsatmalar bilan to'ldirilgan quyidagi vositalardan foydalaniladi:

Turi	Ishlatish uchun ko'rsatmalar
Texnik chizmalar (kinematik sxemalar, konstruktiv chizmalar)	Buning uchun asl nusxalari maxsus jildlarda to'planadi
Ekspluatatsion ko'rsatmalar	Nusxalardan tarqatmalar va slaydlar tayyorlash uchun ishlataladi
Ish rejalari va boshqa hujjatlar	Faqat nusxalar ishlataladi, asl nusxalari esa toza saqlanadi
Modellar, real jihozlar asboblar va mahsulotlar	Yaroqli va yaroqsiz jihozlar, yaxshi va yomon mahsulotlar sifatiga nisbatan yuzaga kelgan farqni ko'rsatib berishi mumkin

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

Talabalar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik materiallar faqatgina talabaga mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish materiallardan farq qilishi mumkin. Masalan: topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o'quv mazmunlari;
- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to'ldirilishi uchun);
- talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar;
- ustaxonada ishslash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar (eskizlar) va jadvallar;
- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar.

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va talabalar uchun);

- yashil qog'ozlar: talabalarga topshiriqlar;

- qizil qog'ozlar: o'qituvchining uslubiy hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari;

Ranglarni kodlash hujjatlaridan foydalanishni yengillashtiradi. Xuddi shu usuldan mazkur seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

O'qitish jarayonidagi eng muhim vositalar doskalar, flipchartlar va kodoskop (proyektor) hisoblanadi. O'qituvchi bu vositalar orqali ko'rgazmali tus beriladigan namunalar yaratishi kerak. Bo'r bilan yoziladigan doska uchun avval qog'ozda ishlangan va matnlar bilan to'ldirilgan suratlar, flipchartlar uchun esa qoida bo'yicha taqdimot namunalari bo'lishi mumkin.

Doska suratlari uchun namunalar asosan o'quv adabiyotlaridan olinishi yoki shaxsiy qarashlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanishi mumkin. Bunda ko'p vaqt sarf etmasdan oddiy shakllar orqali tuzilgan grafiklar, sxemalar, diagramma va shu kabilarni doskaga chizish mumkin. Matnlar uchun namunalar tayyorlash shart emas.

Shunga o'xhash tarzda flipchart suratlarini tayyorlash mumkin. Bu usul nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot tayyorlanishni yengillashtiradi.

Flipchart bloklarini birga olib yurish mumkinligi tufayli tasvirlar qog'ozlarga to'g'ridan-to'g'ri tushirilishi mumkin.

Mashg'ulot uchun didaktik materiallar tanlanayotgan va tayyorlanayotgan vaqtida biz mavjud didaktik vositalarni, auditorianing jihozlanganligini namoyish qilishga ajratiladigan vaqtini, axborotlar takrorlanmasligi va oddiysidan murakkabiga qarab joylashtirilishini hisobga olishimiz kerak. Bularning hammasi nazariy mashg'ulot uchun didaktik vositalar majmuasini tuzishni talab etadi.

**Amaliy va seminar mashg'ulotlarida didaktik vositalarni qo'llash.** Bu turdagи mashg'ulotlarda talabalarning olgan bilimlari mustahkamlanadi. Shuning uchun bu mashg'ulotlarda qo'llaniladigan materiallar va vositalar talabalar bilan individual yoki kichik guruhlarga bo'linib ishslashga qaratilgan. Bunda talabalar olgan nazariy bilimlariga tayanib misol va masalalar, topshiriq va

mashqlarni bajaradilar. Seminar mashg'ulotlarida esa bahsmunozara yuritadilar.

Shuning uchun amaliy va seminar mashg'ulotlarida nazariy mashg'ulotlardan farqli ravishda qo'llaniladigan didaktik vositalar asosan talabalarning faoliyatlariga qaratilgan bo'lishi kerak. Buning uchun turli sxema va chizmalar, kartochka va axborot bulletenlari, uslubiy ko'rsatma va darsliklarning an'anaviy va elektron variantlaridan foydalanadilar.

Shularga tayanib o'qituvchi mashg'ulot senariysini va qo'llaniladigan majmuani ishlab chiqishi mumkin. Masalan: seminar mavzusiga oid axborot byulleteni tarqatib chiqiladi.

Turli muammoli vaziyatlarda ushbu vositalarda ish bajarishni rejalashtirish va tashkil etish lozim. Darslarga tayyorgarlik paytida barcha talablar, ko'rsatmalarga amal qilishi lozim. Bu quyidagilardan iborat:



6-rasm. Ta'lif vositalaridan kompleks foydalanish tuzilmasi


Kompleks ta'larning keyingi bosqichi – didaktik ishlar va sharoitlarni hisobga olgan holda ta'lim vositalaridan foydalanishdan iborat. Turli ta'lim vositalarining ish bajarishi turlicha, ularning didaktik ish bajarishi va sharoiti ham turli xil.

### *Nazorat savollari*



1. O'qitish jarayoni tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
2. O'qitish jarayonini tashkil etishda dastlabki tayyorgarlik bosqicini izohlang.
3. Ta'lim jarayonida nazariy darslar tushunchasini izohlang.
4. Amaliy darslarga qanday mashg'ulotlar kiradi?
5. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bosqichlarini aytib bering.

### **Krossvord**



### **Krossvord savollari:**

#### *Eniga:*

1. Maxsus tayyorlangan radio-eshittirish bo'lib, unda reklama qilinayotgan ob'ekt haqidagi ma'lumot qiziqarli uslubda va odatda, musiqa jo'rligida bayon qilinadi. Audiorolik

6. Materialdan andazalarni qo'yib qirqib olish Bichish

#### *Bo'yiga:*

2. (fran. Albut, lot. avit. – xat yozadigan oq taxtacha) rasm chiziladigan, she'r, xotiralar va avtograflar yoziladigan muqovali daftар. Albom

3. (lot. applicatio - yopishtirish) – gazlama, qog'oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog'oz bo'laklari, teri tikish yoki donli o'simliklar poyalarini elimlash yo'li bilan naqsh tuzib, badiiy tasvir yaratish Applikatsiya

4. (frans. ensemble – birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik) – arxitekturada – bir xildagi arxitektura kompozitsiyasini tashkil etuvchi imoratlar yig'indisi. Tasviriy san'atda badiiy asarning g'oyaviy etukligini, barkamolligini anglatadi. O'zaro mos va uygun qismlarni birlashtirish orqali hosil bo'lgan bir butun narsa yoki ayrim badiiy asarga nisbatan ham qo'llaniladi. Bunga – Toshkent metrosi bezaklaridagi me'morchilik, naqqoshlik, haykaltoroshlik va rangtasvir san'atlarining uyg'unligi misol bo'ladi. Ansambl

5. mashina ignasi yordamida materialda hosil qilingan qo'shni teshiklar orasidagi iplar chalishuvining bitta tugallangan sikli Baxy

6. bu moddiy, his qilinadigan elementdir. Kostyumda – bu izim, chunki uni barcha elementlari muayyan ma'noga ega. Masalan, tugma faqat taqilma vositasigina emas, balki tizim .....sidir. Belgi

## 6 – MAVZU. NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOT TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI



### Reja:

1. Nazariy mashg'ulotlarning turlari.
2. Qiziqtirish metodlari.
3. O'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash uchun topshiriqlar berish.
4. Fanning o'qitish texnologiyasi va modeli.
5. Baholash va uning ahamiyati.
6. Baholash tamoyillari.
7. O'quv maqsadlariga asoslanganlik.
8. Baholashning reyting tizimi.

***Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: dialogik yondashuv, muammoli ta'lif. menuy, algoritm, munozara, o'z-o'zini nazorat, piramida.***

***Tayanch iboralar:*** pedagogik faoliyat, kasbiy pedagogik faoliyat, baholash, qiziqtirish, motivatsiya, bilimlarni qayta ishlash, baholash tamoyillari, o'quv maqsadlariga asoslanganlik, baholashning reyting tizimi.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy maxsus ko'rinish bo'lib, insoniyat jamiyatni tomonidan to'plangan bilim, tajriba, madaniyat, shuningdek, talabalarni rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlari avloddan avlodga uzatishga yo'naltirilgandir. Kasbiy pedagogik faoliyat maxsus tashkil etilgan ta'lif muassasalarida kechadi (amapga oshiriladi) va talabalar shaxsini rivojlantiradi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi talabalarning imkoniyatlari, jamiyat va davlatning mutaxassis kadrlarga bo'lgan talab hamda ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Bir tomonidan, u turli ijtimoiy, etnik guruhlar va yaxlit jamiyatning, ikkinchi tomonidan, alohida shaxslarning moyilligi, ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlarini o'zida ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning asosiy ob'yektlari sifatida quydagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

***Ta'lif-tarbiya muhiti*** - ta'lif-tarbiya beruvchi jamoa, talabalar faoliyati va ularning individual o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, pedagogik faoliyatning maqsadi bevosita ijtimoiy pedagogik vazifalar yechimini topish bilan bog'liq. Bular: tarbiyaviy mehnatni shakllantirish; talabalar faoliyatini tashkil etish; tarbiyalovchi jamoani tuzish; shaxsiy sifat va fazilatlarni rivojlantirish.

***Kasbiy pedagogik faoliyat*** - bu integrativ faoliyat bo'lib o'ziga psixologik, pedagogik va ishlab chiqarish texnologik komponentlarni qamrab oladi. Kasbiy pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi talabalarni kasb-hunar sir-asrorlariga o'rgatish va shaxsn rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat.

Kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida eng kamida quyidagi ikki turdag'i munosabatlар sodir bo'ladi: pedagogning pedagogik ta'sir vositasi va predmetiga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi sub'yekt - ob'yekt munosabatlari, pedagogik o'zaro tasir jarayonidagi sub'yekt - sub'yekt munosabatlari.

Pedagogik o'zaro ta'sir maqsadlarini amalga oshirish o'z navbatida talabalarga ta'sir ko'rsatish vositalari va usullarini tanlash hamda qo'llash bilan bog'liq. Mavjud bilimlarga asoslangan holda, pedagog vositalar va o'z ish-harakat usullarini qiyoslaydi.

Pedagogik masalalar yechimini topish usullarini tanlab, o'qituvchi har bir talabaning individual sifatlarini mo'ljallashi, jamoadagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini, jihozlanganlik darajasini, pedagogik jarayon davomiyligini hisobga olishi zarur. Bundan pedagogik masalalarning yechimini topish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga va uning kasbiy mahoratiga bog'liqdir.

Talabaning kasbiy rivojlanishi kasbiy pedagogik faoliyatning asosiy natijasidir.

Kasbiy ta'lim o'qituvchisi shaxsi: ijtimoiy, axloqiy. Kasbiy pedagogik va bilish tekisliklarida qaraladi yoki talqin etiladi. Bu holatni jadval shaklida quyidagicha tasvirlash mumkin.

Malakalar guruhi	Malakalarning tavsifi
Bilish (gnostik)	Umumkasbiy, ishlab chiqarish va psixologik-pedagogik bilimlarni egallah borasidagi bilish malakalar; yangi axborotlarni olish, undagi boshg'oyani ajratish; o'zining shaxsiy pedagogik tajribasini umumlashtira olish va tizimlashtirish, shuningdek, boshqalarning tajribalarini ham o'zlashtira olish
G'oyaviy	Talabalar orasida ijtimoiy muhim siyosiy tarbiyaviy ishlarni olib borish va kasbiy bilimlarni targ'ib etish malakalari
Didaktik	Ta'limning maqsadlarini aniqlash, unga mos shakl, metod va vositalarni tanlash, pedagogik vaziyatlarni shakllantirish, o'quv-ishlab chiqarish materiallарini tushuntirish, texnik ob'yektlar va ish usullarini namoyish etish

Tashkiliy metodik	Ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish; suhbat-o'rganishga qiziqish uyg'ota olish; talabalarning o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etish; ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari orasida maqbul va ongli o'zaro muloqot o'rnatish, o'z his-tuyg'ularini boshqara olish
Muloqotga kirishuvchanlik	Umumpedagogik malakalar va pedagogik rejissyorlik
Bashoratchilik	Ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini oldindan ko'ra bilish; shaxs va jamoani tashxislashga oid pedagogik vaziyatlarni tahlil etish; pedagogik faoliyatning muqobil modellarini tuzish; shaxs va jamoa rivojlanishini loyihalashtira olish; ta'lim-tarbiya jarayoni va uning natijasini nazorat qilish
Refleksiv (tirik organizmning tashqi ta'sirga javobi sifatida beixtiyor ko'rsatadigan reaksiyasi)	O'z-o'zini bilish, kasbiy qobiliyat va xulqini baholay olish, o'zini-o'zi dolzarblashtirish qobiliyati
Tashkiliy-pedagogik	Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalshtira olish; maqbul pedagogik o'zaro ta'sir va o'zaro muloqot vositalarini tanlash, o'z-o'zini tarbiyalash, talabalarni kasbiy jihatdan shakllantirish kabi umumpedagogik malakalar
Umumkasbiy	Chizmalarni o'qiy olish va bajarish; sxemalar, texnik diagrammalar tuzish, hisob grafik ishlarni bajara olish, ishlab chiqarishda iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlay olish
Konstruktiv (loyihachilik)	Texnologik jarayonlar va texnik qurilmalarni ishlab chiqish malakalari; o'quv va texnik-tehnologik hujjatlarni ishlab chiqish; loyihalashtirish ishlarni bajarish: texnologik va texnologik yo'riqnomalarini xaritalari hamda yo'naltiruvchi testlarni tuza olish

Texnologik	Ishlab chiqarish vaziyatlarini tahlil etish; texnologik jarayonni oqilona tashkil etish: texnologik qurilmalarni ishlatish kabilar
Operatsion ishlab chiqarish	Tutash kasblar bo'yicha umummehnat malakalariga ega bo'lish
Maxsus	Iqtisodiyotning aniq sohasi doirasida kasbiy tor malakalarga ega bo'lish

### O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar



7-rasm. O'qituvchi shaxsining komponentlari.

Pedagogning kasbiy layoqati muhim shaxsiy komponentdir. U integrativ xususiyatga ega bo'lib, mutaxassisning ishchanlik va shaxsiy fazilatlarini o'zida mujassamlash-tiradi hamda bilim, ko'nikma malaka va tajribalar darajasida o'z ifodasini topadi. .

**Kasbiy ta'lim o'qituvchisining muhim fazilatlari.** Pedagog shaxsining tuzilmasida kasbiy fazilatlar muhim ahamiyatga ega. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: maqsadga intiluvchanlik, shaxsiy faollik, o'z-o'zini boshqara olish, talabalar bilan ishlash xohishining mavjudligi, ekstremal vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik, to'g'riso'zlik, haqgo'ylik, zamonaviylik, insonparvarlik, bilimdonlik, pedagogik takt sohibi ekanlik, intizomlilik, pedagogik ishonchlilik.

O'qituvchining muhim kasbiy pedagogik fazilatlaridan biri mantiqiy fikrlash hisoblanadi. Bunday xislat tushunchalarni tahlil etish, sintezlash, turlash, mantiqiy aloqalarini o'rnatish, operatsiyalarini bajarishga yo'naltirilgan mantiqiy fikrlash usullarini yaxlit shakllanganligi kabilarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, pedagog professiogrammasiga artistik qobiliyatni ham kiradi. Bu qobiliyat obrazga kirib fikr va yechimlar topishni qamrab oladi.

Shaxsnинг muhim kasbiy fazilatlari uning aqliy, emotsiyonal, irodaviy tavsifi sifatida kasbiy pedagogik faoliyat natijalariga ta'sir ko'rsatadi, pedagogning individual ish uslubini belgilaydi.

**Baholash va uning ahamiyati.** Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida, ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi o'quv materiali yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali yetarli darajada yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ta'lim beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ishi metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturidagi materiallarni ta'lim oluvchining bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilishi va baholanishi uchun ham juda muhimdir.

Baholash nitijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq va ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchi ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmsandan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqrur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas.

Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lism oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda q'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlarini tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta'lism oluvchi o'z bilimlarining ijobjiy tavsifi, ta'lism muassasasida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nkmalaridagi ijobjiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lism oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lism oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lism beruvchi ta'lism oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zoro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lism oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lism jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib etadi. Shu bois, baholashni ta'lism olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lism muassasasi jamoasining ta'lism-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lism standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lism tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'riliishi kerak. Bu bilan ta'lism tizimida o'qitilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta'lism rejasi, uning katta-kichik bo'limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lism tizimi natijalari muayyan standart me'yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lism oluvchining, balki ta'lism beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv

jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lism vositalari, rejalar, ta'lism jarayonini tashkil etish sifatida ham baho beriladi.

Ta'lism dasturining qism bo'laklari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq vaadolatli baholanishning shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lismiga yordam beradi. Ta'lism oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lism berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarни aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- ✓ o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- ✓ keyingi bosqichga o'tishdan oldin, avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ✓ natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- ✓ talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- ✓ yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- ✓ o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- ✓ yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ✓ ta'lism jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- ✓ ta'lism oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- ✓ tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

**Nimani baholash kerak?**

- ✓ nazariy bilimlarni;
- ✓ amaliy ko'nikma va malakalarni;
- ✓ xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni;

**Qachon baholash kerak?**

- ✓ ta'lism jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
- ✓ ta'lism jarayoni davomida (joriy va oraliq baholash);
- ✓ ta'lism jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

### Baholashning asosiy xususiyatlari:

- ✓ ta'lim maqsadiga yo'naltirilganlik;
- ✓ muntazam o'tkazib borish;
- ✓ pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- ✓ umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholaniyotganida **kognitiv** o'quv maqsadlarga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida **psixomotorik**, hulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa - **affektiv** o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

**Baholash mezonlari.** Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'llo», «yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari ta'lim oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

**Baholash tamoyillari.** Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lim oluvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta'lim oluvchi uning qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini bilishi kerak. Ta'lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga, uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

Ta'lim oluvchining bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari turlichadir. Ba'zan ta'lim beruvchi bilimlarni

tekshirishning uzoq vaqt mobaynida bir xildagi usullarini qo'llaydi. Unda so'rash, savol berish, izohlash kabi muayyan odat paydo bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bugunday tekshirishga moslashib ketadilar, o'qituvchining qay tarzda so'rashi ularga oldindan ma'lum bo'ladi. Ular faqat ta'lim beruvchi uchun, uni qanoatlanadirish uchun javob bera boshlaydilar.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi:

- o'quv maqsadlariga asoslanganlik;
- haqiqiylik;
- haqqoniylilik;
- ishonchlilik;
- qulaylik.

**1. O'quv maqsadlariga asoslanganlik.** Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholash tizimi loyihalashtirilganda, baholash topshiriqlari berilgan ta'lim mazmuni doirasida bo'lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtishda, har doim quyidagi ikki savolni e'tiborga olish lozim:

Baholash topshiriqlari ta'lim jarayonidan ko'zlangan o'quv maqsadlarini to'la aks ettiradimi?

O'quv maqsadlari darajasiga baholash shakllari, usullari va mezonlari to'g'ri tanlandimi?

Masalan, yo'l harakatlari qoidalari bo'yicha olgan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin, undan mashinani boshqarish malakalarini baholashda foydalanib bo'lmaydi. Bu malakalar og'zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

**2. Haqiqiylik.** O'quv maqsadida ko'zda to'tilgan natijagina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U

baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ta'lism oluvchi erishgan natijalar to'g'risida asoslangan va ishonchli axborotlar berilishi kerak. Ta'lism oluvchi egallagan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarni o'lichash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

**3. Haqqoniylik (ob'yektivlilik).** Baholash tizimi o'quv maqsadlariga mos bo'lishi, shuningdek, baholash shart-sharoitlari va maqsadlari bilan talabalar oldindan tanishgan bo'lishlari lozim. Ta'lism oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

**4. Ishonchlilik.** Natijalarni baholash mobaynida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin, bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Usul ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligi qanchalik ishonchli ekanligi nazarda tutiladi.

Baholash ishonchli bo'lishi uchun ta'lism oluvchilarda bir-biriga o'xshash, ammo har xil sharoitlarda baholash o'tkazilganda, natijalari bir xil bo'lishi kerak. Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo'lishi uchun turli ekspertlar yordamida turli vaqtarda baholash o'tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

Baholash ishonchliliginining ikki tomoni bor. Baholash usulining ishonchliligi - agar foydalanilayotgan baholash usulining ishonchliligi yuqori bo'lsa, talabaning o'zlashtirish darajasi baholashning har xil usullaridan foydalanganda ham o'zgarmay qoladi (olingen natijalar bir xil, o'zgarmas bo'ladi).

Baholashning o'zlashtirish darajasini baholash usullarining ishonchliligi deb, baholash boshqa joyda va boshqa imtihon oluvchi tomonidan o'tkazilganda ham, uning bir xil bo'lishi, o'zgarmasligi tushuniladi.

Baholash usullarining ishonchlilik darajasi quyidagi holatlarda ko'proq bo'ladi:

- hamma ta'lism oluvchilar qo'yilgan talabni aniq tushunsa;

- baholash shartlari oldindan ma'lum qilinsa va unga rioya qilinsa;

- hamma natijalar baholashning oldindan kelishilgan mezonlari to'la asoslangan bo'lsa;

- tasodifiy xatolarni kamaytirish maqsadida mos baholash turlari qo'llanilsa.

**5. *Qulaylik.*** Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o'quv ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lim oluvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'lмаган qismlariga nisbatan ko'proq ball berish kerak bo'ladi.

Baholashning reyting tizimi. Reyting tizimidagi ta'lim jarayonida baholash quyidagi nazorat turlari orqali aniqlanishi mumkin:

- nazorat qilish;

- xulqini baholash;

- nazariy va amaliy bilimlarni baholash.

### **1. *Nazorat qilish orqali o'zlashtirganlikni aniqlash:***

- ta'lim oluvchining bilim ko'rsatkichlari darajasini, malakasini shakllantirish;

- ta'lim oluvchini doimiy baholash va ular olgan baholarni taqqoslab borish;

- ta'lim oluvchining o'qishga intilishi va o'zaro bellashish imkoniyatini shakllantirish;

- ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi va malaka ko'nikmalarini haqqoniy baholash;

- ta'lim beruvchilarning pedagogik faoliyatini to'g'ri baholash.

### **2. *Xulqini baholash orqali o'zlashtirganlikni aniqlash:***

- ta'lim oluvchilarning darslarga qatnashish intizomini yaxshilash va ularni fanlar bo'yicha uzluksiz tayyorgarligini tashkil etish;

### **3. *Nazariy va amaliy bilimlarni baholash orqali o'zlashtirganlikni aniqlash:***

- ta'lism beruvchi va ta'lism oluvchining o'z qobiliyatini oldindan rejalashtirish;
- ta'lism jarayonining borishini tezkor tahlil qilish;
- o'z faoliyatida zaruriy o'zgarishlar kiritish imkoniyatlarini yaratish.

Reyting tizimi yuqorida sanab o'tilgan barcha nazorat turlarini o'zaro taqqoslash orqali ta'lism jarayonidagi baholash tizimini yaratadi. Reyting tizimida ta'lism oluvchilar bilimi doimiy ravishda nazorat qilinib va baholanib boriladi. Reyting nazorat tizimi asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fanning ta'lism oluvchi o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlari ballar bilan baholash yotadi. Respublikamiz ta'lism muassasalari o'quv jarayonida qo'llanilayotgan reyting tizimiga asoslangan holda ikkita nazorat turidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Har bir o'qituvchi o'z fani bo'yicha reyting tizimini loyihalashtirishda quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Har bir fan bo'yicha semestr davomida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 100 ballni tashkil etadi;

2. Har bir fan uchun ajratilgan maksimal ball nazorat turlari bo'yicha taqsimlanadi;

Har bir darsda tayyorlanib kelgan ta'lism oluvchi javob berishi va ball olishi mumkin, lekin ta'lism beruvchi qolgan ta'lism oluvchilarni ham e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim.

Oraliq nazoratning asosiy maqsadi ta'lism oluvchilar tomonidan ma'lum bir mavzu, bob yoki modul bo'yicha erishilgan natijalarni (belgilangan standartlarga erishganligini) aniqlashdan iborat. Oraliq nazoratni topshirish barcha ta'lism oluvchilar uchun majburiy hisoblanadi.

Yakuniy reyting ko'rsatkichini aniqlash uchun semestr yakunida yoki o'kuv predmeti yakunida ta'lism oluvchining barcha mavzular bo'yicha olgan ballari hisoblanib, o'rtachasi aniqlanadi. Semestrda fan yuzasidan necha soat dars o'tilgan bo'lsa, har biriga maksimum 100 balldan ajratilib, semestr yakunida o'rtacha ball hisoblanadi va reyting jurnaliga qo'yiladi.


O'quv rejasi va fan dasturiga asosan tuzilgan tizim – mavzu rejasi bo'yicha, hamda ajratilgan soatlarni e'tiborga olgan holda, har bir talabani semestr davomida necha marta nazorat qilish imkoniyatlaridan kelib chiqib, nazorat va so'rov turlari aniqlab chiqiladi va ma'lum bir fan bo'yicha "Reyting ballarining taqsimoti" tuziladi.

### Nazorat savollari:

1. Nazariy mashg'ulotlarning turlarini aytib bering.
2. Qiziqtirish metodlariga misollar keltiring.
3. O'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash uchun qanday topshiriqlar berish mumkin.
4. Fanning o'qitish texnologiyasi va modeliga misol keltiring.
5. Baholash va uning ahamiyatini izohlang.
6. Baholash tamoyillarini sanab o'ting.
7. O'quv maqsadlariga asoslanganlik tamoyilini izohlang.
8. Baholash reyting tizimi haqida nimalarni bilasiz?



### Krossvord



## Krossvord savollari:

### Bo'yiga:

1. Buklama - yaxlit (bir) taboq qog'ozga bosilib, ikki va undan ortiq saxifalarga bukiladigan nashr turi. Buklet
2. Reklamada: bir shaxs yoki bir gurux odamlar haqidagi statistika ma'lumotlarining (yoshi, jinsi, ma'lumoti, kasbi, fuqarolik xolati, e'tiqodi va h.k.lar to'g'risidagi ma'lumotlar) jamlanmasi. Demografiya
3. Bu material yuzasining tuzilishini xarakterlovchi xususiyat. Faktura tabiiy (mo'yna, teri, yog'och, zamsha) va mexanik yo'l bilan olingan hosila bo'ladi. Materiallar silliq, g'adir-budur, yaltiroq, xira, tukli fakturali bo'lishi mumkin. Hosila fakturaning xarakteri materialning qanday usulda (to'qimachilikda, to'r to'qishda olinganiga, yuzasidagi bo`rtiq qismlarining baland-pastligini va iplarning material zichligini belgilaydigan chalishish xarakteriga bog'liq Faktura

### Eniga:

4. Bu buyumning faoliyati va uni harakatini dinamik tavsifidir. Optimizastiyalashtiradi. Funkstiya
5. Bu odatda aynan bir tur materialdan tayyorlanib, ma'lum bir maqsadga mo'ljallangan bir sidra kiyimlar yig`indisi (ich kiyim garnituri, zargarlik buyumlari va hokazo). Garnitur

Bosma reklama vositasi, jurnal yoki kitobga ilova turi. Reklama murojaati joylashtirilgan yuqori sifatlari qog'oz varag'i yoki prospekt shaklidagi ko'p sahifali nashr. Ko'p marta hizmat qilishi va xotirada yaxshi saqlanishi bilan ajralib turadi. Illova

## **7 – MAVZU. MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**



### **Reja:**

Ta'lim texnologiyasi va uning tuzilishi.

1. Kasb ta'limida muammoli ta'lim texnologiyasi va uni amalga oshirish yo'llari. Muammoli darslarning didaktik maqsadlari.
2. Kasbiy ta'limda muammoli o'qitishning uch sharti.
3. Kasbiy ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishning didaktik maqsadlari.
4. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati.
5. Kasbiy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchining amalga oshiradigan ishlari.

**Tayanch iboralari:** kasbiy ta'lim texnologiyasi, kasb ta'limida axborot texnologiyalari, muammoli o'qitish, muammoli vaziyat, didaktik maqsadlar, o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'qituvchining amalga oshiradigan ishlari.

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'limgan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihat - tarbiya muammosini ham hamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularni kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga oliniyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa o'qituvchining texnologik jarayon bilan ishslash qobiliyatiga bog'liq.

O'qituvchining belgilangan ta'lim-tarbiya vazifalarini me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablar asosida yo'l qo'yiladigan chegaraviy ko'rsatkichlar doirasida bajarish holati ishslash qobiliyati deb atalishi mumkin. Binobarin, u yoki bu fan o'qituvchisining mahoratini

aniqlashda uning faoliyati davlat ta'lif standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi.

Pedagogik texnologiya esa har doim ta'lif maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Xo'sh, o'qituvchi faoliyatining texnologiya-lanuvchanlik darajasi qanday mezonlar bilan o'lchanadi? Fikrimizcha, bunday mezonlar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad - talaba tomonidan didaktik jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar, faoliyat turlari;

- ta'lif mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstraktsiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi;

- o'quv materiallarni o'zlashtirish bosqichlarining yyetarlicha mantiqiy qat'iyligi - didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi;

- o'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi;

- o'qituvchining qoidabop (algoritmlı) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasining ko'rsatilishi;

- talaba va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy va kasbiy mohiyat va boshqalar);

- o'qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

O'yaymizki, bu ko'rsatgichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa o'qituvchini yuqori malakali mutaxassisiga aylantiradi, talabaning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi. Shu bilan birgalikda taklif etilganlar "haqiqatning oxirigi bekti" degan fikrdan uzoqmiz, chunki pedagogik texnologiyani loiyhalash shunchalik murakkab jarayonki, u har bir ta'lif turi, qolaversa, har bir fan uchun o'ziga hos ijodkorlikni talab etadi. Ta'lif tizimida tub islohotlar zarurligini e'tirof etish uchun o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab pedagogik leksikonda "Innovatsiya" iborasi qo'llana boshlandi. U pedagogika

nazariyasi va amaliyotida allaqachon o'z o'rnini topgan bo'lsada, uning mohiyati shu paytgacha to'laqonli yoritilmagan hisoblanadi, ya'ni yakdillik mavjud emas.

Keng ma'noda "Innovatsiya" pedagogik tizimga yangilik kiritish yo'li bilan ta'lif-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, sifat va samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Pedagogika tizimiga kiritilgan yangilik sifat va samaradorlikka salbiy ta'sir qilishi ham mumkin. Biz tizimga uning ichki zaxira va imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklarga innovatsiya deb tushunamiz.

Pedagogik tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va samaradorlikka erishishga oid g'oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini-pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin. So'nggi 20-25 yillar davomida pedagogik tizimga ko'plab yangiliklar kiritilayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Misol sifatida yangi kontseptsiyalar, investitsiyalar, DTS, testlar, muqobil o'quv rejalar, yangi turdag'i o'quv yurtlari, texnologiyalar va shu kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ma'lumki, pedagogik jarayon tizimlilik xususiyatiga ega bo'lib, ma'lum belgilangan chegarada barqaror qoladigan komponentlarni o'ziga qamrab oladi. Agar kiritilayotgan yangilik ruxsat etilganidan ortib ketsa, tizim buzilib, uning o'rniغا yangi xususiyatga ega boshqa tizim hosil bo'ladi.

**Pedagogik jarayon** - o'zining mohiyatiga ko'ra har doim texnologiyalashadi. Texnologiyalanish pedagogik tizimning ichki sifati bo'lib, uning imkoniyatlari qat'iy qonuniyat va qoidalarga bo'ysunadi.

Texnologiyada variativlikka imkon berilmaydi, undan biror kichik komponentni olib tashlab bo'lmaydi, chunki texnologiyada ortiqchalikning o'zi mavjud emas.

Undagi biror komponentni almashtirsak, albatta natija o'zgarib ketadi.

Tizimning umumiy nazariyasidan ma'lumki, bir paytning o'zida uning ko'p parametrlarini (yo'nalishlarda) yaxshilash mumkin emas. Shuning uchun ham tizimga yangiliklarni asta-sekinlik bilan kiritib, uning foydaliligiga ishonch hosil qilgandan so'ng har tomonlama tekshirish, keyingi o'zgartirishlar haqida o'yash zarur. Tahlillarimiz pedagogik tizimni takomillashtirishning quyidagicha ikkita: jadal va ekstensiv (nojadal) yo'llarining mavjudligini ko'rsatadi. Jadal yo',

pedagogik tizimning ichki imkoniyatlari hisobiga rivojlantirishni, ekstensiv yo'l esa qo'shimcha vositalar, jihozlar, vaqt, kuch, mablag'lar jalb etishni nazarda tutadi.

Pedagogik jarayon ko'p qirrali bo'lib, unga tarixiy, ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik, gigienik, tashkiliy boshqaruv, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, masifikuraviy, huquqiy-me'yoriy va shu kabi nuqtai nazarlardan yondoshish mumkinligi ko'p sonli olimlar va amaliyotchilar tomonidan ta'kidlangan.

Pedagogik jarayonni jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil deb qarab J.G.Yo'ldoshev va S.A.Uzmonovlar uni: "Ijtimoiy hodisa, nazarli fan, o'quv fani, ta'lif-tarbiya tizimi, jarayon, pedagogik faoliyat va uning metodikalari hamda aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi" tarzida talqin etadilar.

Bundan pedagogik texnologiya ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor omil ekanligi kelib chiqadi. Pedagogik texnologiyalar mohiyati va mazmuniga ko'ra jamiyatshunoslik, psixologiya, fiziologiya, pedagogika fanlari nazariyasi va amaliyoti. ilg'or tajribalar, shaxs va jamiyat taraqqiyoti haqidagi g'oyalar asosida rivojlanadi.

«Texnologiya» iborasi mahorat, san'at va ta'limot, o'rgataman yoki o'rganaman ma'nosini anglatadi. U pedagogikaga ishlab chiqarish sohasidan kirib kelgan.

Ishlab chiqarish nuqtai nazaridan olib qaraganda, texnologiya - mehnat ob'yektiga maqsadga muvofiq ta'sir etib, uning holati, xususiyati, shakli kabilarni o'zgartirish san'ati, mahoratini o'zlashtirish manosini anglatadi.

Pedagogik nuqtai nazaridan olib qaraganda, u talabalar ongi, sezgilari, his-tuyg'ulari kabilarga maqsadga muvofiq ta'sir etib, ularda ko'zda tutilgan bilim, ish-harakat usullari (ko'nikma, malaka) va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish tizimi sifatida tavsiflanadi. Bunda jarayon ishtiroychilarining shaxsiy va texnik vositalar imkoniyatlari hisobga olinishi tabiiy holdir.

Ta'lif texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslarini uning qonuniyatlari, tamoyillari, maqsadi, mazmuni, vazifalari, ob'yekтив hamda sub'yekтив omil, asosiy tushuncha va mezonnari kabilalar tashkil etadi. «Ta'lif texnologiyasi» iborasi esa inglizcha "an educational technology" – ta'lif berish san'ati, mahorati ma'nosini anglatadi.

Tahlillarimiz Garbiy Yevropa hamda AQSh da shaxsga ta'lim-tarbiya berish va uni rivojlantirish jarayoni "Ta'lim jarayoni" deb yuritiladi, shunga ko'ra mazkur mamlakatlarda "pedagogik texnologiya" emas, "ta'lim texnologiyasi" iborasi qo'llaniladi.

Shuning uchun ham biz "pedagogik jarayon", "pedagogik texnologiya" "ta'lim texnologiyalari" iboralaridan sinonim sifatida foydalanamiz. Bundan ming yil muqaddam (870-950) yillarda yashab, ijod etgan buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Farobi biror sohada faoliyat ko'rsatish maqsadida bo'sangiz eng avvalo quyidagi qoidaga amal qilishingiz zarur degan edi:

Manbalar tahlili bu tushunchaga turlicha izoh berilganligidan dalolat beradi. Bu holat ma'lum ma'noda to'g'ri, chunki har bir shaxs unga turli nuqtai nazardan yondoshadi. Lekin bir sohada faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar uchun yakdillik bilan qabul qilingan izoh albatta zarur. Hatto YuNESKO tashkiloti bergen izoh ham vatandosh olimlarimiz tomonidan turlicha talqin etilganligiga guvoh bo'lib turibmiz.

Xozirgi paytda aksariyat mamlakatlar, shu jumladan respublikamiz uzuksiz ta'lim tizimida ham turlicha nomlangan texnologiyalardan foydalanimmoqda.

Mustaqil respublikamiz ta'lim sohasidagi islohotlar ta'lim-tarbiyaning samarali omillaridan keng ko'lamda foydalanish, bu jarayon qatnashchilari orasida ongli hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish, talabalarning shaxsiy xususiyatlari va milliy mentalitetini hisobga olishni taqozo qiladi.

Bu xayrli ishga respublikamiz olimlari va amaliyotchilarini ham baholi kudrat o'z ulushlarini qo'shamoqdalar.

Biz ko'p sonli pedagog olimlar va amaliyotchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarga qo'shilgan holda ta'lim-tarbiya ishida talabalarning faolligini ta'min etuvchi omillardan oqilona foydalanish hozirgi zamon va istiqbol talabi deb bilamiz.

Faol ta'lim omillaridan foydalanish g'oyalari XIV-XVI asrlarda ilgari surilgan bo'lib, talabalarga tayyor o'quv materiallarini emas, balki ularni ongli, mustaqil izlanuvchan faoliyatlarini orqali o'zlashtirishlariga erishish zarur, ana shunda bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlar muhim qiymatga ega bo'lishi ko'rsatilgan.

Talabalar shaxsida mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik hiss tuyg'ulari tanqidiy fikrlash kabi sifatlarni shakllantirishda faol ta'lim

omillaridan foydalaniladi. Bunday omillar nomidan ma'lum bo'lib turibdiki, bu jarayon talabalarning o'ziga xos individual xususiyatlarini rivojlantirish, namoyon etishiga shart-sharoit yaratish uchun qo'llaniladi.

Pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiya metodlarini tanlash markaziy masalalardan biridir.

"Metod" ob'ektiv olamni bilish, tadqiq qilish usulidir. Ta'lim metodi ilm fan, kasb-hunar yoki alohida o'quv predmetiga oid bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni o'zlashtirish maqsadida qo'llaniladigan o'qituvchi va talabalarning hatti-harakat usullari tizimidir.

Ta'lim metodlari pedagogik jarayonida ko'zlangan maqsadga binoan pirovard natijani ta'min etuvchi yo'l (usullar) tizimidir. Metodlar - o'z navbatida usullardan tashkil topadi. Ta'lim-tarbiya metodlarida pedagogikaning ob'yektiq qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, prinsiplari, shakllari o'z ifodasini topadi.

Yu.K.Babanskiyning tadqiqot ishlarida 21 foiz o'qituvchilar ta'lim metodlarini tanlashda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishlari ko'rsatilgan.

Pedagogik amaliyotda ko'pchilik o'qituvchilar odatda "Barchasidan kam", "Barchasi teng" yoki "ta'lim bo'lgan" (moddiy), metodlar prinsipi bo'yicha faoliyat ko'rsatadilar.

Ta'lim metodlarini maqbul tanlash uchun ularning barcha turlarini bilish, muhim xususiyatlariga ko'ra shajararesh, ya'ni turlash, ulardan samarali foydalanish omillarini bilish zarur.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va talabalarning o'zaro aloqador hamkorlik faoliyat usullari - ta'lim metodlari deb yuritiladi. Har qanday ongli faoliyatni o'zaro aloqador tashkil etish, qiziqtirish, amalga oshirish va nazorat qilish bosqichlaridan iborat bo'lganligi bois, Yu.K.Babanskiy ta'lim metodlarini ham quyidagi uch guruhga ajratadi:

- o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etish metodlari;
- o'quv-bilish faoliyatiga rag'batlantirish metodlari;
- o'quv-bilish faoliyati samaradorligini nazorat qilish metodlari.

Ta'lim metodlarining samaradorligi bilan har qanday sharoitda oxir-oqibat talabalar o'zlashtirgan bilim ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarining shakllanish samaradorligi va sifatiga bog'liq bo'ladi:

- ta'lif metodlaridan samarali foydalanish uchun ularni ma'lum tizimda tasavvur etish zarur. Biz quyida akademik Yu.K.Babanskiy taklif etgan metodlar shajarasini bilan qisqacha tanishishga harakat qilamiz.

I. Ta'lif metodlari axborotlarni uzatish va idrok etish manbaiga ko'ra quyidagicha turlanadi:

- a. Og'zaki (hikoya, suhbat, ma'ruza);
- b. Ko'rsatmali (rasmlar, diagrammalarni ko'rsatish, namoyish qilish);
- c. Amaliy (tajriba-sinov ishlari, mashq, o'quv ishlab chiqarish mehnati kabilalar).

II. Axborotlarni uzatish va idrok etish mantig'iغا ko'ra talim metodlari: induktiv va deduktiv bo'ladi.

Induktsiya xususiy, juz'iy hodisa va dalillardan umumiylashtirish usuli, deduksiya esa umumiyyadan xususiy xulosa chiqarish yo'lidir.

III. Bilimlarni o'zlashtirishda talabalarning fikr yuritish mustaqilligi darajasiga ko'ra:

1. Mahsulsiz (talabalar nofaol ishtirokchi sifatida qatnashadilar).
2. Mahsulli (talabalarning faol izlanuvchan o'quv-bilish va ishlab chiqish faoliyatida ishtirok etishlarini ko'zda tutadi).

IV. O'quv ishlarining boshqarilish darajasiga ko'ra:

1. O'qituvchining bevosita rahbarligi ostidagi o'quv ishlari;
2. Talabalarning o'z ustlarida mustaqil ishlashlari: (kitob (manba)lar bilan ishlash; yozma ishlarni bajarish; laboratoriya ishlari; mehnat vazifalarini bajarish kabilalar).

V. Suhbat-o'rganishga qiziqtirish metodlari.

1. O'quv-bilish o'yinlari;
2. O'quv munozaralari;
3. Emotsional - axloqiy vaziyatlar.

VI. Burch va javobgarlikka rag'batlantirish metodlari:

1. Suhbat-o'rganishning muhimligiga ishontirish;

2. Talablar qo'yish;

3. Talabalarning bajarilishi yuzasidan mashq qildirish;

4. Rag'batlantirish va jazolash;

VII. Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari: individual so'rov; yoppasiga so'rov; og'zaki sinov; og'zaki imtihon; mashinali yoki mashinasiz nazorat; og'zaki o'z-o'zini nazorat qilish.

VIII. Yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari: yozma nazorat ishlari; yozma sinov ishlari; yozma imtihonlar; yozma dasturlashtirilgan ishlarni bajarish; yozma o'z-o'zini nazorat qilish.

IX. Laboratoriya amaliy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari:

1. Laboratoriya amaliy nazorat ishlari;
2. Mashinali yoki mashinasiz nazorat ishlari;
3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun mo'ljallangan laboratoriya amaliy ishlarini bajarish.

X. Shaxsiy his-tuyg'ularni shakllantirish (tarbiya) metodlari: suhbat; namuna bo'lish, ma'ruza; munozara.

XI. Ijtimoiy axloqiy tajribalar va amaliy faoliyatni tashkil etishni shakllantirish metodlari: pedagogik talab; jamiyat fikr mulohazalari; odatlantirish; mashqlantirish; tarbiyaviy vaziyatlarni yuzaga (vujudga) keltirish.

XII. Odob-axloq va xulq-atvorni rag'batlantirish metodlari:

1. Musobaqa;
2. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
3. Jazolash.

Yuqorida zikr etilganlarni qisqacha qilib quyidagicha sxematik ravishda ko'rsatish mumkin.

Real pedagogik jarayonda metodlarning qanday turlari bor yoki yo'qligini bilishgina emas, balki ularidan samarali foydalana olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim metodlari ta'lim jarayonini amalga oshirish usullari, ya'ni o'qitish va o'qishdan iborat binar xususiyatga ega bo'lganligi uchun M.I.Maxmutov uni ikki tomonlama deb e'tirof etadi.

O'qitish: maqsad qo'yish va talabalar faoliyatining mazmuni va tartibini aniqlash; o'zining o'qituvchilik, o'rgatuvchilik faoliyi, talabalarning bilish va o'quv-ishlab chiqarish faoliyatlariga rahbarlik qilish; nazorat qilib baholash; xulosa chiqarish kabilarni ko'zda tutadi.

Yuqorida zikr etilgan metodlar guruhlarining har biri ham qator aniq ta'lim metodlaridan tashkil topadi. Masalan, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda eng avvalo og'zaki (so'zlab berish, ma'ruza, suhbat va shu kabilar) ko'rsatmali (priborlarni namoyish etish, illyustratsiyalarni ko'rsatish kabilar), amaliy (mashq laboratoriya tajribalari, mehnat hatti-harakatlari va boshqalar) metodlar qo'llaniladi. Bu barcha metodlar o'quv axborotini o'qituvchi tomonidan

uzatish va talabalar tomonidan idrok etish: eshitish, kuzatish, amaliy hatti-harakatlar orqali his etishni ta'minlaydi. Shu o'rinda o'quv axborotini jonli nutq, ya'ni o'qituvchining so'zi orqali talabalar ongiga yetkazish eng muhim o'r'in tutishini yodda saqlash zarur.

O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari induktiv va deduktivga bo'linib, o'quv materiali qanday mantiqiy tartibda yoritilishini, ya'ni xususiydan umumiya yoki aksincha, umumiyan dan xususiyga tomon rivojlanishini belgilaydi.

O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari guruhi o'z navbatida muammoli izlanuvchan va mahsulsiz metodlarga bo'linadi. Bunda o'quv materiali talabalar tomonidan muammo bo'yicha mustaqil fikr yuritish yoki o'qituvchi uzatgan tayyor axborotlarni faqat xotirada saqlab qolishni ko'zda tutadi. Shunday qilib, bиргина suhabatning o'zi og'zaki, deduktiv va izlanuvchan ta'lif metodi sifatida talqin etilishi mumkin bo'ladi. Ta'lif metodlari talabalar o'quv-bilish faoliyatining mustaqillik darajasiga ko'ra: o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida yoki mustaqil holda o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlariga bo'linadi. Bu metodlarning har biri ham ma'lum ma'noda talabalarni o'quv-bilish faoliyatga qiziqtirishi va faollashtirishi mumkin. Shuningdek, pedagogik amaliyatda talabalarning suhabat-o'rganishga qiziqishini ta'minlash va suhabat-o'rganishga bo'lgan javobgarligini oshirish yo'nalishida ham qator maxsus metodlar qo'llaniladi. Bunday metodlar suhabat-o'rganishga qiziqtirish va motivlashtirish nomi bilan yuritilib, ularga bilish o'yinlari, o'quv munozaralari, rag'batlantirish, o'qishda muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, o'quv talablarini qo'yish kabilalar misol bo'ladi.

Pedagogik tadqiqotlar ta'lif-tarbiya ishida muvaffaqiyatlarga erishish uchun nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Nazorat: og'zaki, yozma, laboratoriya, individual, yoppasiga, mashinali, mashinasiz, bevosita, bilvosita kabi turlarga bo'linadi.

O'qituvchi barcha metodlarning imkoniyatlari va qo'llanish-hollarini bilgan holdagini ulardan o'z o'rnda foydalanib, yuqori samaradorlikka ega bo'lishi mumkin. Bunda, eng avvalo, shuni yodda tutish zarurki, pedagoglar tomonidan ta'lif metodlari turli darajalarda tanlanadi. Ularning ba'zi birlari faoliyatida shakllangan (stereotip) taqlid qilish, ya'ni bir qolipda ish yuritishga asoslansalar, ikkinchilari ichki his-tuyg'uga asoslanib, uchinchilari o'zaro aloqadorliklarga

binoan, to'rtinchilari qo'llab-tekshirib ko'rish kabilarga ko'ra ta'lif metodlarini tanlaydilar. Hayot esa ta'lif metodlarini pedagog tomonidan ilmiy-metodik tavsiyalar asosida ongli ravishda ilg'or pedagoglar tajribalariga tayangan, o'z imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlashni talab etadi. Ta'lif metodlari majmuasi haqida tasavvurlar har doim aniq bo'lishi zarur, chunki ulardan ma'lum holatda foydalanish muvaffaqiyatli bo'lsa, boshqa holatda ular shart-sharoitga to'g'ri kelmasligi mumkin. Masalan, og'zaki metodlar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni uzatish bilan birga talabaning abstrakt tasavvurlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga ulardan bir tomonlama, ya'ni monologik hamda ko'rsatmali obruzli va hatti-harakatlar orqali xotiraga mansub talabalar tomonidan o'quv materialini tushuntirishni qiyinlashtiradi. Chunki ular yetarli darajada ko'nikma va malakalarni rivojlantirmaydi. Ularning eng asosiy kamchiligi qisqa vaqt davomida bir marta zu?r bo'lishi, ya'ni takrorlanmasligidir.

Ko'rsatmali metodlar axborotni ko'rsatmali obruzli idrok etishga qaratilib, talabalarda ta'lif samaradorligini oshiradi. Lekin undan haddan tashhari ko'p foydalanish abstrakt tafakkur, nutq va o'z fikrini bir-biri bilan bog'lash mahoratini rivojlantirishga imkon bermaydi.

Amaliy metodlar kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning asosi bo'lib, nazariyani amaliyat bilan bog'laydi. Lekin bu metodlar bilan ham barcha masalalarning yechimini topish mumkin emas. Chunki ulardan foydalanilganda nazariy bilimlarni o'zlashtirish nutq va abstrakt tafakkurni rivojlantirish imkoniyatiga nisbatan past darajada bo'ladi.

Mahsulsiz ta'lif metodlaridan o'quv axborotini tez fursatda xotirada puxta saqlab qolish maqsadida foydalaniladi. Lekin ular talabalarning mustaqil izlanuvchan o'quv-bilish faoliyatida ishtiroy etishlariga imkon bermaydi. Shuning uchun ham ulardan amaliyatda dasturlashtirilgan ta'lif sharoitida testlar shaklida foydalaniladi. Mahsulsiz ta'lif metodlari o'quv materialini elementlari bo'yicha eslab qolish va o'zlashtirish darajasini nazorat qilish, ta'lif-tarbiya ishlmini individuallashtirish, bilimlarni individual o'zlashtirish sur'atini aniqlash maqsadlarida foydalaniladi. Dasturlashtirilgan ta'lif elementlari odatda o'quv materiali mantiqan tugallangan qismlarga bo'lingan hollarda talabalarning o'quv-bilish faoliyatini bevosita

boshqarish kerak bo'lgan va tez fursatlarda axborotni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash zarur bo'lgan paytlarda qo'llaniladi.

Shunga haramasdan bunday metodlardan foydalanish nisbatan ko'p vaqt talab etadi. Zarur darajada tafakkurlash qobiliyatini rivojlantirmaydi. Mustaqillik, izlanuvchan faoliyatidan haddan tashqari ko'p foydalanish materialning asl mohiyatiga tushunmay, ko'r-ko'rona yod olishga olib keladi. Demak, ulardan muammoli izlanuvchan metodlar bilan uyg'un holda foydalanish ko'zlangan natijani beradi.

Muammoli izlanuvchan ta'lim metodlaridan talabalarning mustaqil izlanuvchan o'quv-bilish faoliyatlarini rivojlantirish maqsadlarida foydalaniladi. Bunday metodlar o'quv materialini mustaqil ravishda mohiyatiga tushungan holda o'zlashtirilishiga imkon beradi.

Ulardan asosiy tushuncha, qonun va nazariyalarni shakllantirishni ko'zda tutuvchi materiallarni o'rganishda foydalanish samaralidir.

Muammoli izlanuvchan metodlar daliliy materiallarni bayon etish ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, yangi materialni o'rganish, mazmunni talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan ob'yektlar orasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini ko'rsatish, umumlashtirishlar talab etilgan hollarda yuqori samara bermaydi.

Talabalarning mustaqil ishi bu faoliyat ideali, chunki kelajakda mutaxassis butun umri davomida ana shunday faoliyat bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida mustaqil ishning o'rni va rolini oshirishga harakat qilish zarur. Lekin u o'z-o'zicha emas, balki O'qituvchining bevosita rahbarligi ostida bajariladigan ishlar bilan uyg'un holda qo'llanilganda ko'zlangan natijani beradi.

Bunday mustaqil ishlarga ma'lum tayyorgarlik ko'rish zarurligi kelib chiqadi, aks holda mahsulsiz o'quv vaqtlar sarfiga olib keladi. Uning haddan oshib ketishi ham ortiqcha zo'riqishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun mustaqil ishlarning hajmi o'quv materialining xususiyatlari, talabalarning tayyorgarlik darjasи, yaratilgan shart-sharoit kabilarga binoan tanlangan bo'lishi zarur. Ta'lim-tarbiya metodlarini tanlashga ta'sir etuvchi omillar:

- birinchidan, mashg'ulotlarning maqsad va vazifalari;
- ikkinchidan, o'quv materiallarining xususiyatlari;

- uchinchidan, talabalarning yoshi, individual xususiyatlari, tayyorlik darajalar kabilar;
- to'rtinchidan o'qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darjasni, o'z ishiga ijodiy yondashishi.
- javobgarlikni his etishi kabilar;
- beshinchidan, shart-sharoit;
- oltinchidan, ajratilgan vaqt;
- yettingidan, ta'lif-tarbiya jarayonining moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy ta'minoti va shu kabilar.

Qissadan hissa shuki, kasbiy ta'lif metodlaridan mexanik tarzda emas, balki ilmiy asoslangan holda majmuaviy foydalanish davr talabi, kasbiy ta'lif-tarbiya jarayoni sifat va samaradorligini ta'min etuvchi kafolatli mezondir. Shu o'rinda ta'lif metodlari va vositalarining uyg'unligini ta'minlash ham muhimligini yodda tutish zarur.

### **Ta'lif metodlari va vositalarining uyg'unligini ta'min etish**

Dars mazmunining asosiy elementlari	Ta'lif metodlari	Ta'lif vositalari
I. Avval o'tilgan mavzuni takrorlash	Og'zaki so'rov, yoppasiga so'rash, didaktik materiallar bilan ishslash, amaliy ish	Modellar, diapozitivlar, tarqatma materiallar, rasmli kartochkalar namoyish varaklari
II. Yangi materilni o'rganish	Tushuntirib, bayon etish - muammoli bayon etish, suhbat, amaliy ishlar	Modellar, rasmlar, diagrammalar, diapozitivlar, stendlar
III. Yangi o'rganilgan materialni mustahkamlash	Suhbat	Amaliy tavsifli topshiriqlar, mashq q urilmalarida ishslash, testlar va shu kabilar

Kasbiy ta'lifning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish ta'limi metodlari haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tish zarur ko'rindi.

Ishlab chiqarish ta'lifining asosiy maqsadi eng avvalo bo'lajak mutaxassislar shaxsida ma'lum kasb va ixtisoslikka oid kasbiy mahoratni shakllantirish hisoblanadi. Bu global maqsad ishlab chiqarish ta'limi vazifalarida o'z ifodasini topadi.

**Kasbiy mahorat** – ishlarni bajarish sifati, mehnat unumдорлигі, kasbiy mustaqillik, mehnat madaniyati, mehnatga ijodiy munosabat, mehnat faoliyatining iqtisodiy maqsadga muvofiqligi kabi ko'rsatkich hamda mezonlarga ko'ra baholanadi va quyidagilarda o'z ifodasini topadi: ishlab chiqarishga oid texnik masalalarning yechimini topish; dasturli boshqarish jihozlariga mos dasturlar ishlab chiqish va amalda qo'llash; mashina va mexanizmlarning prinsipial va kinematik sxemalardan foydalanib o'quv-ishlab chiqarish ishlari rejimi va o'lchamlarini aniqlash; montaj sxemalarini ishlab chiqish; ishlov berish, yihish, sozlash kabi texnologik jarayonlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish, ishlab chiqarish texnik vazifalarini yaratish; mehnat unumi va mahsulot sifatini oshiradigan moslamalarni ishlab chiqish; ish vaqtin, xom ashyo, energiyani iqtisod qilish; ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish va hokazolar.

Ta'lim metodi tarixiy kategoriya bo'lib, pedagogik jarayonning maqsadi, mazmuni va vositalariga binoan o'zgarib boradi.

Kishilik jamiyatining dastlabki paytlarida bola katta yoshlilar tomonidan bajarilgan hatti-harakatlarni aynan takrorlash, ya'ni taqlid qilish, mashq qildirish asosida o'rnatilgan.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning jadal rivojlanishi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi faqat uning shaxsiy faoliyati orqali amalga oshadi. Agar talaba o'zining o'quv-bilish faoliyati mohiyatini anglab yetmasa, barcha hatti-harakatlari tashqi tazyiq natijasida amalga oshirilib, o'zlashtirgan bilimlari rasmiy xarakterga ega bo'ladi.

Bundan shaxs rivojlanishida irlisyat, ta'lim tarbiya, muhit bilan birga shaxsiy faoliyat muhim ahamiyat kasb etishi kelib chiqadi. Shaxs faoliyati uning ichki dunyosi, tafakkuri kechinmalari, diqqati, xayoli, hissiyoti bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining mahorati o'quv materialini pedagogik qayta ishlab, talabada unga nisbatan ongli munosabat paydo qiladigan holatda yetkazishdan iborat. Chunki shaxs motiv, hissiyot, shaxsiy fikr va hatti-harakatlar vositasida namoyon bo'ladi.

Demak, faol ta'lim talaba o'quv-bilish faoliyatini ongli tashkil etish bilan uzviy bog'liq bo'lib, muammoli izlanish, tadqiqotchilik, dialogik va poliologik muloqot va munosabatlarni talab etiladi.

Bu g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan va yetarli darajada tadqiq etilmagan pedagogik muammo sifatida e'tirof etiladi.

Ma'lumki, har kanday pedagogik texnologiya ta'lif-tarbiya qonuniyatlarini va prinsiplariga asoslanib, mazmunni yangicha shakllantirish, uni talabalar mulkiga aylantirishning maqbul shakl, metod, vositalaridan foydalanish, shart-sharoitlarini yaratish hamda ulardan oqilona foydalanishni ko'zda tutadi. Bunda maqbullik ta'lif-tarbiya jarayoni ishtirokchilari tomonidan imkon qadar kam zo'rirqish kuchlari, vaqt sarf etgan holda har tomsnlama mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirilishini maqsad qilib olmog'i zarur.

Pedagogik texnologiya turlarini tanlash - shakllantirilishi ko'zda tutilgan bilim, ish-harakat usullari, shaxsiy fazilatlar, mashg'ulotlarning tashkiliy shakli, qo'llanilayotgan metodlar, vositalar va shu kabi ko'plab omillarga bog'liq. Masalan, talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'quv materialiga nisbatan tanqidiy yondoshish malakalarini shakllantirish hamda mahsuldar o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda binar yoki integrativ dars, ishchanlik yoki rolli o'yin, evristik suhabatdan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur vaziyatda ta'lif-tarbiya metodlari qo'yilgan maqsad bilan albatta mutanosib bo'lishi kerak.

Pedagogik texnologiya aniq maqsadni ko'zda tutib ma'lum nazariya asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik texnologiyaning ilmiy konsepsiysi ta'lif tarbiya orqali talabalarini rivojlantirish maqsadlariga erishish borasida falsafiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik va didaktik asoslarini qamrab oladi. U ta'lif, tarbiya va talaba shaxsini rivojlantirilishini loyihalashtirish, amalga oshirish, natijalarini nazorat qilib baholashdan iborat o'zaro uzviy bog'liq bosqichlarini o'ziga qamrab oladigan tizimdir.

1. Ma'lum ilmiy kontseptsiyaga asoslanganlik.
2. Tizimlilik - pedagogik jarayon va uning tarkibiy qismlarining yaxlit o'zaro bog'liqligi.
3. Maqbulligi - davlat ta'lif standartlari yoki talablari darajasida axborot hajmi va darajasiga maksimal yaqinlashtirish.
4. Natijalarni imkon qadar barqarorlashtirish.
5. Boshqa ishtirokchilar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi, ya'ni texnologiyalanuvchanlik kabilar.

Zamonaviy ta'lif texnologiyalari talabalarni egallayotgan bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarini izlab topishga, mustaqil o'rganishga, o'z fikrlarini bayon etishga imkon beradi. Bu jarayonda o'qituvchi-talaba shaxsining shakllanishi, rivojlanishiga sharoit yaratib, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyalarini bajaradi.

Ta'lif texnologiyalariga dolzarb muammo sifatida e'tibor berilayotganligining sabablar:

- birinchidan, talaba shaxsini rivojlantirish imkoniyatlarining kengligi;

- ikkinchidan, pedagogik jarayonga tizimli-faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini berish;

- uchinchidan, o'qituvchini pedagogik jarayonning maqsadidan boshlab, olingan natijani nazorat qilib, baholashgacha va zarur hollarda kerakli tuzatishlar kiritishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi;

- to'rtinchidan, faollashtirish omillariga asoslanganligi bois ko'zda tutilgan maqsadga yaqin natija olish imkonini beradi.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, pedagogik jarayon (ta'lif texnologiyalari)ga qo'yilgan asosiy talab ortiqcha (ruhiy va jismoniy) zo'riqish kuchlari, vaqt, mablag' sarf etmagan holda yuqori (sifat va samaradorlik) natijalariga erishishdan iborat. Shu o'rinda pedagogik jarayon unda ishtirok etuvchi sub'yektlarga bevosita bog'liq bo'lib, u qanday tashkil etilib, o'tkazilishidan qat'iy nazar quyidagilarni ta'minlashni ko'zda tutadi:

- pedagogik jarayon samaradorligi va sifatini oshirish;
- pedagogik jarayon ishtirokchilari orasida ongli muloqot va munosabatlarni qaror toptirish;

- talabalar tomonidan bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni har tomonlama mukammal o'zlashtirilishini ta'minlash;

- talabalarda ongli faol, mustaqil, ijodiy fikrlash va hattiharakatlarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish;

- talabalarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

- demokratik va insonparvarlik g'oyalariga amal qilish kabilari.

Yuqorida zikr etilganlarga ko'ra "Pedagogik (ta'lif) texnologiya"si ta'lif-tarbiya va shaxsni rivojlantirish jarayonlarshi maqbullahshtirish maqsadida inson va texnika iimkoniyatlari hamda

ularning o'zaro ta'sirini hisobga olib, talabalarda bilim, ish-harakat usullari va ijodiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlanpshirishni ko'zda tutuvchi loyihalashtirish, tatbiq etish (amalga oshirish), natijalarni maqsad bilan qiyoslab kerakli tuzatishlarni kiritish bosqichlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizimdir.

X.Avliyoqulov yuqorida zikr etilgan ta'lim texnologiyalari mohiyati va mazmunini chizma tarzida ifodalashga harakat qilgan. Biz uning ishidan ba'zi bir lavha keltirish bilan chegaralanamiz. Muallif taklif etgan bu va boshqa ko'p sonli chizmalardan ko'rgazmali materiallar sifatida foydalanib mashg'ulotlar o'tkazish bevosita samaradorlikni ta'minlash mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko'rsatish bevosita ijtimoiy raqobat muhitini talab etadi. Bu muhit o'z navbatida yangiliklarga yuqori sifat va samaradorlikka intilish, ijodkorlik, izlanuvchanlik, ishchanlik kabi ongli faoliyatga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli yosh avlodda mustaqil ravishda suhbat o'rganishga nisbatan ongli munosabat his-tuyg'usini (rag'bat) uyg'otadi. Pedagogik jarayonda rag'bat uni sifat va samaradorligini kafolatlovchi asosiy omil deb qaraladi. Bundan talabalarda suhbat o'rganishga bo'lgan rag'bat muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy holdir. Davr talabani faol ishtirokchiga aylanishini talab etmoqda. Bu faollik o'z navbatida ongli munosabat, mustaqillik, ijodkorlik, izlanuvchanlik kabi sifat (fazilat)larni tarkib toptirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamiz ta'lim sohasidagi islohotlar ta'lim-tarbiyaning samarali omillaridan keng ko'lamma foydalanish, bu jarayon qatnashchilari orasida ongli hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish, talabalarning shaxsiy xususiyatlari va milliy mentalitetini hisobga olishni taqozo qiladi. Bu xayrli ishga respublikamiz olimlari va amaliyotchilari ham baholi qudrat o'z ulushlarini qo'shmaqdalar. Masalan, R.J.Ishmuhamedov ishlarida: klaster (tarmoqlar), 3x4, blitz-o'yn metodlari; intervyu, ierarxiya, muloqot, boshqaruv, bumerang texnikasi; talaba-o'qituvchi shaxsi treningi; murakkab vazifalarni qo'llash, aqliy hujum, skrabey, Veyer, FSMU, sinektik muammoli o'qitish, ijodiy masalalarni hal qilish, tarozi, yelpig'ich, individual o'qitish, mualliflik texnologiyalarining mohiyati, ularning qo'llanish hollari yoritilgan.

Har qanday yangilik amalga joriy etilishida eng avvalo uning yuqori samaradorligi hisobga olinadi. Amaliyatga keng ko'lamda joriy etilayotgan pedagogik (ta'lif) texnologiyalarga qo'yiladigan asosiy talablar olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lмаган pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihatı - tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularni kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga oliniyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsnинг rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa o'qituvchining texnologik jarayon bilan ishslash qobiliyatiga bog'liq.

O'qituvchining belgilangan ta'lif (tarbiya) vazifalarini me'yoriy hujjalarda ko'rsatilgan talablar asosida yo'l qo'yiladigan chegaraviy ko'rsatkichlar doirasida bajarish holati ishslash qobiliyati deb atalishi mumkin. Binobarin, u yoki bu fan o'qituvchisining mahoratini aniqlashda uning faoliyatni davlat ta'lif standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi.

Pedagogik texnologiya esa har doim ta'lif maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lган bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Xo'sh, o'qituvchi faoliyatining texnologiyalanuv-chanlik darajasi qanday mezonlar bilan o'lchanadi? Fikrimizcha, bunday mezonlar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad - talaba tomonidan didaktik jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar, faoliyat turlari;

- ta'lif mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstraktsiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi;

- o'quv materiallarni o'zlashtirish bosqichlarining yetarlicha mantiqiy qat'iyaligi - didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi;

-o'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi;

-o'qituvchining qoidabop (algoritmlı) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasining ko'rsatilishi;

-o'q'uvchi va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy va kasbiy mohiyat va boshqalar);

-o'q'itish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

O'yaymizki, bu ko'rsatgichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa o'qituvchini yuqori malakali mutaxassisiga aylantiradi, talaba (talaba)ning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi. Shu bilan birgalikda taklif etilganlar "haqiqatning oxirigi bekati" degan fikrdan uzoqmiz, chunki pedagogik texnologiyani loiyhalash shunchalik murakkab jarayonki, u har bir ta'limga turi, qolaversa, har bir fan uchun o'ziga hos ijodkorlikni talab etadi.

Agar o'z pedagogik faoliyatning ushbu mezonlarga mos kelishini ta'minlayotgan bo'lsangiz, shubhasiz, Siz loyiha muallifisiz. Endi metodist-o'qituvchilikdan "pedagog-texnolog" darajasiga ko'tarildingiz. Shunday yangi kasbiy faoliyat har biringizga nasib etsin.

Hozirgi vaqtida o'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalariga sifat jihatdan tez o'tish uchun ob'ektiv asos yuzaga keldi, chunki iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi innovatsion jarayonlar o'z-o'zidan ta'limga ham tubdan o'zgartirishlarni taqozo etmoqda. Hech bir o'qituvchi ertami-kechmi bu jarayonga qo'shilmasdan chetda qolishi mumkin emas. O'qituvchining an'anaviy ish usullari, ta'limga, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, o'qitishni kompyuterlashtirish sifatlarini o'zlashtirish zaruriyati bularni ilmiy-metodik asoslash ehtiyojini tug'ilishida ob'yektiv omil bo'lib qolmoqda.

O'qituvchiga albatta psixologik-pedagogik savodsizlikni tugatish emas, balki ta'limga amaliyotining rivojlanish istiqbollarini

ongli programmalashtirishga, yangi pedagogik texnologiyalarni asoslashga imkon beradigan ilmiy tasavvurlar tizimi kerak.

Jahon amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'z fuqarolarini axborotlashgan muhitda faoliyat ko'rsatishga o'rgatgan jamiyatgina vaqtan yutadi, chunki faqat miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslangan iqtisodiyot tizimining kelajagi yo'q.

Shunday qilib, ta'lif jarayoniga o'qitish texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:

- ta'lif jarayonini, talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o'zlashtirish sur'atini, qiziqish va mayllarini hisobga olib ko'proq individual ravishda yordam berish;

- talaba-talabalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o'zini o'zi takomillashtirish, ta'lif va kasbga qiziqishlarini shakllanishiga intilishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- ta'lif jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o'rGANISH;

- ta'lif jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;

- barcha ta'lif muassasalarida o'qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish;

- ta'lif jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo'li bilan takomillashtirish.

Demak, shaxsnинг faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko'nikma va malakalarni egallash dinami-kasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq; a) shaxsnинг muayyan sifatlari yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa-unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir; b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa-psixologik sifatlar, ya'ni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir). Lekin xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqticha cho'zilib ketadi, xolos.

Shunday qilib, qibiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan birga: a) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, aqliy sifatlarga, xotira xislatlarga xarakter

fazilatlariga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas; b) shuningdek, qobiliyatlarni shaxsnинг mazkur xususiyatlari bilan qatorga qo'yish, ularni ayniylashtirish ham nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash joizki, mulohaza bildirilgan sifatlardan ba'zi biri yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bera olsa yoki ularning ta'sirida vujudga kelsa, u holda shaxsnинг mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb atash imkoniyati tug'iladi.

Agar o'z pedagogik faoliyatizingizning ushbu mezonlarga mos kelishini ta'minlayotgan bo'lsangiz, shubhasiz, Siz loyiha muallifisiz. Endi metodist-o'qituvchilikdan "pedagog-texnolog" darajasiga ko'tarildingiz. Shunday yangi kasbiy faoliyat har biringizga nasib etsin.

Hozirgi vaqtda o'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalariga sifat jihatdan tez o'tish uchun ob'yektiv asos yuzaga keldi, chunki iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi innovatsion jarayonlar o'z-o'zidan ta'limdi ham tubdan o'zgartirishlarni taqozo etmoqda. Hech bir o'qituvchi ertami-kechmi bu jarayonga qo'shilmasdan chetda qolishi mumkin emas. O'qituvchining an'anaviy ish usullari, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, o'qitishni kompyuterlashtirish sifatlarini o'zlashtirish zaruriyati bularni ilmiy-metodik asoslash ehtiyojini tug'ilishida ob'yektiv omil bo'lib qolmoqda.

O'qituvchiga albatta psixologik-pedagogik savodsizlikni tugatish emas, balki ta'lim amaliyotining rivojlanish istiqbollarini ongli programmalashtirishga, yangi pedagogik texnologiyalarini asoslashga imkon beradigan ilmiy tasavvurlar tizimi kerak.

Jahon amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'z fuqarolarini axborotlashgan muhitda faoliyat ko'rsatishga o'rgatgan jamiyatgina vaqtadan yutadi, chunki faqat miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslangan iqtisodiyot tizimining kelajagi yo'q.

Shunday qilib, ta'lim jarayoniga o'qitish texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:

- ta'lim jarayonini, talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o'zlashtirish sur'atini, qiziqish va mayllarini hisobga olib ko'proq individual ravishda yordam berish;

- talaba-talabalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o'zini o'zi takomillashtirish, ta'lif va kasbga qiziqishlarini shakllanishiga intilishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- ta'lif jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o'rganish;
- ta'lif jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;
- barcha ta'lif muassasalarida o'qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish;
- ta'lif jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo'li bilan takomillashtirish.

Demak, shaxsnинг faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladiqan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq; a) shaxsnинг muayyan sifatlari yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa-unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir; b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa-psixologik sifatlar, ya'ni qibiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir). Lekin xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqtি cho'zilib ketadi, xolos.

Shunday qilib, qibiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan birga:

a) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, aqliy sifatlarga, xotira xislatlarga xarakter fazilatlariga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas;


b) shuningdek, qibiliyatlarini shaxsnинг mazkur xususiyatlari bilan qatorga qo'yish, ularni ayniylashtirish ham nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Shuni ta'kidlash joizki, mulohaza bildirilgan sifatlardan ba'zi biri yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bera olsa yoki ularning ta'sirida vujudga kelsa, u holda shaxsnинг mazkur individual xususiyatlarini qibiliyatlar deb atash imkoniyati tug'iladi.

### Nazorat savollari

1. Kasbiy ta'lim texnologiyasi va uning tuzilishini izohlang.
2. Ta'limda muammoli ta'lim texnologiyasi va uni amalga oshirish yo'llarini aytib bering.
3. Kasbiy ta'limda muammoli o'qitishning shartlarini sanab bering.
4. Pedagogik jarayonda muammoli vaziyatni yuzaga keltirishning didaktik maqsadlarini aytib bering.
5. Maxsus fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchining amalga oshiradigan ishlari.

### Krossvord



## Krossvord savollari:

### Bo'yiga:

1. Global va lokal kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butunjaxon kompyuter tizimi. Internet
2. Maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir soxada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining turi Kasb

3. Bu faraz, ziyraklik, sezarlik. O'zaro qandaydir umumligi bor uch atama mavjud: ilhom, instikt – tasavvuf bilim, tasavvuf ko'tarinkli, tasavvuf faoliyat. Intuiстиya

### Eniga:

4. (lot. inversio – o'rin almashtirish) o'ziga xos qiziqarli usul – zidni asos qilib loyihalash usuli, o'rin almashish usuli, ko'pincha be'mani o'rin almashishda. Natijada kostyum dizaynida bu usulning ayrim misollari quidagilar: choklari o'ngiga tikilgan buyumlar; ichi bo'sh ko'p sirtqi chuntakli sumkalar; ikkiyuzli buyumlar; firma leyblini (belgisi) buyumning o'ng tomoniga chiqarish; va h.k. Inversiya

5. Bu matodan qilingan, odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, eng avvalo, tanani tashqi muhit sharoitidan saqlaydi va insonning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qilib, estetik funktsiyani bajaradi. Kiyim

Korxona, tashkilot, sotish joyi va x.k.larning tashqi reklama vositasi.

Lavxa

## **8 – MAVZU. TA'LIM JARAYONIDA TALABALARING BILISH JARAYONLARINI FAOLLASHTIRISH HAMDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA FOYDALANISH TAVSIYA ETILADIGAN FAOL METODLARNI QO'LLASH**

### **Reja:**

1. Faol metodlar haqida ma'lumot
2. Muammoli o'qitish.
3. Modulli o'qitish metodi
4. Dasturlashtirilgan o'qitish metodi.
5. Motivatsiya (qiziqtirish) metodi.



**Tayanch iboralari:** tafakkur, motivatsiya, metod, jarayon, maxsus fanlar, faol metodlar, dasturlashtirilgan, kompyuter, elektron darslik, muammoli o'qitish, muammoli metod, modul.

Keyingi yillarda pedagogika fani va amaliyotida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda faollashtirishga yo'naltirilgan faol metodlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishga katta e'tibor qaratilyapti.

"Tarbiya san'ati – deyarli hammaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa, hatto oson tuyulish xususiyatiga ega, u qanchalar tushunarli va oson tuyulsa, o'sha inson u bilan nazariy va amaliy jihatdan shunchalar kam tanish", degan edi K.D.Ushinskiy.

Tarbiya – pedagogik nazariya va amaliyotidagi eng o'zgarmas, va eng qadimiy muammodir. Lekin, "Bolalarni tarbiyalash muammosi yo'q, faqatgina: qanday qilib bolalar va kattalar birga yashashlari mumkin, degan bir savol bor, xolos," degan edi L.N.Tolstoy. Bunday tarzda qo'yilgan savol eng avvalo, o'zingizga nazar tashlappingiz kerak bo'lgan har qanday holatdagidek o'ta murakkabdir.

Tarbiya, asosan, quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: ko'rsatish va tushuntirish, rag'batlantirish va jazolash, vazifa berish va talab qilish, tekshirish, tuzatish, ishontirish va tahlil qilish. Ana shunday ta'sir ko'rsatish yo'li bilan kattalar bolalarning bilish va amaliy faoliyatlarini yuzaga keltirib, ma'lum tomonga yo'naltiradilar va bu faoliyatlar nazorat qilinib, to'g'rilib hamda shuning bilan birga faoliyatlarini rivojlantirish amalga oshiriladi.

Pedagogikada tarbiya berish usuli ikki turga bo'linishi qayd etilgan. Avvalgi usul, (ilhomlantiruvchi) san'atni o'z rag'batlari bilan o'r ganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinci usul, (majbur etish) esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarни tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul, tarbiya beruvchi yoki shogirdlar ustida turgan o'qituvchilarning qo'llaydigan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat yoki davlat, mazkur mamlakatda yashovchining muallimi, tarbiyachisi bo'ladi. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat (davlat) va muallim har ikkovi o'z yo'lida bolalar yoki mehnatkashlarga tarbiya beruvchi ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi.

Forobiy tarbiyaning usuli deganda axloqiy fazilatlarni tushunadi. Uning tasavvurida axloqiy fazilatlar bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlardir. Ammo, bu xislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun ham, Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas balki kishilarning aqliy faoliyatning natijasi sifatida ham talqin etilganligini ko'ramiz. Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir.

U "... insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l, - ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat, nazariy bilimlar va omiliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan amalga oshiriladi" deb ta'lim beradi.

Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi deb uqtiradi alloma.

Farobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa tarbiyada ma'naviy, axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi deb tushuntiradi.

Bahouddin Naqshband tarbiyaviy qarashlarining markazida orif insonni shakllantirish g'oyasi yotadi.

Orif inson avvalo aqli, ilmli va ma'rifatli bo'lishi lozim. Uning ta'limotiga ko'ra insoniy ilmi shariat, ilmi ma'rifat va ilmi haqiqatni o'z ichiga olgan tasavvur ta'limotidan iborat bo'lishi lozim. Bu yo'l orqali insonlar mavjud dunyo tilsimlarini o'rganishlari va bilishlari imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xo'ja Bahouddin Naqshbandning bu ta'limotini o'rganuvchilarga pиру ustoz bo'lib ta'lim bergenlar. Piru ustoz Naqshband muridlar(shogirdlar)ning dunyoqarashini kengaytirib Valiy avliyo darajasigacha aqlini rivojlantirganlar, ularga ta'lim berish uslubiyotini ishlab chiqqanlar. (Bu toifa uch qismga bo'linadi: muqallid, oif va mukammal). Bu pedagogika buyuk sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilishida qolibona harbiy yurishlarida, mamlakatda asosiy tartib o'rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik mehr-shavqat, odamiylik va axloq-odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga katta yordam bergen. Ustozning axloq va odob haqidagi ta'limotiga quyidagilar kiradi:

- adolat vaadolatsizlik;
- so'z va ishning birligi;
- do'st va dushmanlik;
- botirlik va qo'rkoqlik;
- so'z va shirinsuxanlik.

Ta'lim-tarbiya ishlari ham Naqshband g'oyalalarini ifoda etuvchi mafkura sifatida amalga oshiriladi. Farzandlarga islam diniga e'tiqod qilishni o'rgatish bilan birga alloma mehnatni sevishni, axloqli bo'lishni, odamlarga yordam ko'rsatishni, bilim olish, hunar o'rganish va boshqa olijanobliklarni uqtiradilar. Masjid va madrasalarda talabalar ongida ollohga yaqin bo'lishning to'g'ri va samarali yo'li tarki dunyochilik emas, balki jamiyat saodati uchun yashash, bunyodkorlik, savob ishlar va mehnatni qadrlash, ilm va bilim olishdir. Mukammal axloqqa erishish, xullas jamiyat hayotida faol ishtirok etishni taqozo etadigan xulq-atvorni, sa'y-harakatni o'zida mujassam etadigan mafkura izchil ravishda singdirildi.

Agar bolalarga jazo berish sabablarini chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, burchakda tik qo'yish yoki shirinlikdan mahrum qilish jazosini atroflarida shu "sho'r suv"ni "shimish"ga olib keladigan

shunday muhitni yaratib qo'yganlarini sezmaydigan kattalarga berish kerak bo'ladi. Lekin, ularning shu siz ham muammolari ko'p, shuning uchun ular o'zlariga tinmay: "Men o'z ehtiyojlarimni boshqarayapmanmi? Nimani afzal ko'rib, nimani ko'proq qadrlayapman? Va bu hatti-harakatim boshqalarga bo'lgan munosabatlarimda qanday aks etyapti?" degan savollarni beraverishdan tortinadilar. O'z hissiyotlarini boshqarish, ularni (o'z erkinligini) cheklash, boshqasini (va uning erkinligini) hisobga olish – tarbiyaning asosi. Shu ma'noda, o'quv dargohini (o'qituvchilar) mutaxassislar rahbarligi ostida mashq qilib ko'rish mumkin bo'lgan mashq maydonchasiga o'xshatsa bo'ladi. Tajribali tarbiyachi, eng avvalo, har bir talabaning o'z hissiyotlarini hisobga olib, uni maqsadga yo'naltiradi, ularni boshqarish uchun sharoit yaratib beradi. Bu sxemada shunday ko'rinish kasb etadi:



*8-rasm. Tarbiya jarayonini tashkil etish mazmuni*

Hissiyotlar boshqarilishi – bu dolzarblikni tushunish, qiziqish harakatga undovchi sabab – faoliik, qaror qabul qilish demak. Agar har birimiz o'z dunyoqarashimizni kengaytirish orqali o'z hissiyotlarimizni boshqarish, muvofiqlashtirish, me'yorga intilishni o'rgansak, hayotimizdan jahldorlik, ochko'zlik, munofiqlik ketib, aqlimiz kiradi. Ongimizning aynan shu qismi o'z hayotimiz ma'naviyati darajasini boshqaradi, ya'ni:

- yaxshilik yoki yomonlik;
- ijodiy yaratuvchanlik yoki bema'ni vayrongarchilik;
- boshqalarga nisbatan sevgi yoki nafratga o'z munosabatimizni belgilaydi.

Xulosa qilib aytsak, tarbiyani o'z hissiyotlarini, xohish va istaklarini boshqarish jarayoni, deb aytsak xato bo'lmaydi.

Pedagogik jarayonda o'z hissiyotlarini boshqarishni har bir talabaga o'rgatish bu maqsadni aniq mo'ljalga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

O'qituvchi auditoriya bilan o'zaro muloqot (o'quv jarayonidan alohida vaqtida emas) o'z vaqtida tarbiyaviy jarayon borayotganligini anglay olishi darkor. Qiziqishlarini saqlab qolish, asoslab bera olish, faoliyklarini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilarda pedagogik jarayonda maqsadni yuzaga keltiradi, ular kasbiy faoliyatda juda zarur bo'lgan o'zliklarini anglash mashqini oladilar.

Tarbiya to'g'risida qanchalar gapirilgan. Yana biror narsa qo'shish mumkinmikan? Balkim, agar fikr, so'z, harakatni ishlab chiqishga undaydigan yo'nalishni: jarayondan natijaga "bilim, mahorat, ko'nikma"dan "bilim, mahorat, ko'nikma plyus qarashlar, harakatlar"ga cheklangan intellektli iste'molchini shakllantirish(diqqat, o'qish, xotira - imtihon uchun etarli!)dan to'laqonli yaratuvchi(diqqat, o'qish, xotira, fikrlash)ni shakllantirishga o'zgartira bilsak, mumkindir. Shundagina, tarbiyaga ham qandaydir yangilik kiritish mumkin bo'ladi.

O'quv jarayoniga qadam qo'ygan talabalar o'qish mazmuni qo'yilishi kerak bo'lgan o'z ichki ehtiyojlari (ichki normalar)ga ega bo'ladilar, ya'ni ba'zi bir tashqi narsalar (informatsiya) hozircha ularga begona bo'lgan har qanday narsa ularni hushyorlikka chorlaydi.

Narsa hodisaning tarkibini sistemali (tizimli) ravishda ko'rish kerak, ya'ni ma'lum ilmiy bilimni zanjirga aylantirish: sistema (elementlar va aloqalanish), yoki podsistema (elementlar va aloqalar) va h.h.

Kasbiy faoliyat mazmunining asosi bo'lib - malakali talablar, o'lchovlar, mezon, maqsad, vazifalar xizmat qiladi va ular kasbiy faoliyatga o'qish yordamida madaniyatga ega bo'ladilar.

Kasbiy faoliyat mazmunini, uning quyidagi qurilma ko'rinishida ko'rish mumkin:



*9-rasm. Kasbiy faoliyatni tashkil etish mazmuni*

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, o'lchovga mazmun va mezon ta'sirini ko'rsatish orqali amalga oshadi va u kasbiy madaniyatni shakllantiradi. Bu shaxsning kasb ko'nikmalarini o'stirishga xizmat qiladi.

Ko'pincha kattalarning ta'limgagi odatiy texnologiyalari – ma'lumotlarni berishgagina yo'naltirilgan bo'ladi va shu sababli talabalarga har qanday mazmunda bo'lishi mumkin bo'lgan o'z muammolarini hal qilish metodi, usuli va texnologiyasini o'zlashtirishga sharoit yaratilmaydi. Bunda mazmun tuzilmasi fikrlash texnikasini, uni taqdim etish usuli esa kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirmaydi. Bu kasbiy faoliyat uchun salbiy holatdir.

Faqatgina pedagogik texnologiyalarda talabaning ichki xususiyatlarini o'stirish, ularni uning ichki mazmuniga bog'liq holda amalga oshirilgan taqdirdagina tarbiya va ta'limda unumдорликни kam yo'kotishi mumkin. O'qituvchi "mening yo'limdan yur" talablari o'rniga "Atrofga qara, o'yla, tanla, mening yordamimda o'rgan" talabiga o'tsagina bu kasbiy faoliyatni tashkil etish maqsadli bo'ladi. "Taraqqiyot va ta'lim biror kishiga tayyor holda xabar berilmaydi va taqdim etilmaydi. Buning uchun istagan har bir odam unga o'z faoliyati, o'z kuchi va o'z intilishi orqali erishadi" – degan edi, A. Disterveg.



10-rasm. Ta'lim mazmuni va faoliyat mezonlarining bog'liqligi

Pedagogik faoliyatda o'qituvchining fikrlashi (fikrlash texnikasi), so'z bilishi (kommunikativ) qobiliyati, izlanuvchan ongi va anglanganligi (refleksli) harakatida namoyon bo'ladi.

Fikrlash texnikasi qobiliyatlarni rivojlantirish, izlanuvchanlik texnikasini egallashdan kelib chiqadi.

Har qanday pedagogik texnologiya ham o'qituvchi, ham talabadagi fikrlash texnikasini amalga oshirish jaryonida sodir bo'ladi va rivojlanadi.

Tabiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning funksiysi ta'lim jarayonining asosini tashkil etadi.

Atrofimizga qaraylik: bizni norozi qiladigan hamma holatlar bir-birimizni tushunmaslik, bir-birimiz bilan kelisha olmasligimiz, o'z fikrimizni o'zgalar diqqatiga etarli darajada asoslab, nuqtai nazarimizni, himoya qila olmasligimizdan kelib chiqadi. Donishmandlardan biri "oxirgi dalil-o'q" deb bekorga aytмаган. Demak, o'q otishning raqobatdoshi – ko'proq, salmog'liroq dalillarni keltirish ekan, ya'ni fikrlash ekan, u albatta – natijali bo'ladi.

Pedagogik jaryonda kommunikatsiya ro'y beradi – intellektual va hissiy mazmunlar almashadi, ya'ni pedagogik muhitda qayd etilganidek, to'g'ri va teskari aloqa ya'ni natijali kommunikatsiya sodir bo'lishini tashkil etish orqali o'qituvchida yuqori malaka shakllanadi.

Refleksiv qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy yoki shaxsiy sifatlarining ishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik ijodkorlik va mahorat ko'pincha o'qituvchining rivojlanish darajasiga bog'lik bo'ladi. Biror yangilik yaratishga, o'z harakatlarini, tajribalarini qaytarishga urinish, agar sharoit o'zgarishi, ya'ni yangilik elementlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bunda o'qituvchiga ijodiy qobiliyatlar zarur bo'ladi.

Agar ta'lif sub'yekti to'g'risidagi bizning tasavvurimiz bizni o'rabi turgan olam yaxlitligiga mutanosib ravishda: fikr-so'z-harakat ("ruh"- "sotsio"- "bio") bilan hamjihat bo'lsa, bizning pedagogik jarayondagi vazifamiz - shu yaxlitlikni ta'minlash uchun asos bo'ladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:



11-rasm. Pedagogik jarayonning vazifalari

Fikr, so'z, harakat mazmunidan o'rin olgan qibiliyatlar o'zgarishi - tabiat in'om etgan hamma narsani ongimizda rivojlantirishi mumkin.

Unutmaylik, pedagogik jarayonda aynan metodlar - talabalarning faoliyat yo'nalishini aniqlaydi va belgilaydi, o'qituvchining mahoratiga bog'liq ravishda u yoki bu qobiliyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan o'quv yurtini faqat ilm olish maskani emas, balki mashq maydonchasi sifatida ham ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Chunki u yerda bo'lajak kasbiy faoliyat egalari o'z qobiliyatlarini malakali mutaxassislar rahbarligida rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladir. Bunda metod boshqaruvchi roldida bo'ladi. Qarang:

Ba'zan metod unumdorligi kasbiy faoliyat unumdorligi bilan almashtiriladi. Ayni paytda, metod tanlashda quyidagi asosiy mezonlardan foydalaniladi:

- talabalar qobiliyatini rivojlantirish;
- faoliyatning kasbiy vositalar bilan mutanosibligini ta'minlash;
- refleksiya, kommunikatsiya, fikrlash texnikasining ijtimoiy-madaniy o'lchovlarga muvofiqlashtirish;
- pedagogik jarayonning mazmuni va maqsadlariga mutanosiblikni ta'minlashdan iborat.



12-rasm. Pedagogik jarayonda metodlar – talabalarning faoliyat yo'naliishini aniqlovchi va bosharuvchi

Kasbiy faoliyatda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashda ijtimoiy buyurtma olgan zamonaviy oliy ta'lim tizimining yaxlitligi birinchi darajali bo'lgan sifat o'zgarishlarini o'z boshidan kechirmoqda.

O'qitishda eng samarali metodlaridan biri bu muammoli o'qitishdir.

Muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan talabalarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida

talabalar kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Albatta talabalarning darslarga qanchalik darajada faol qatnashish yoki qatnashmasligi talabaga juda bog'liq. Lekin bunda o'qituvchi tayyor bilimni talabalarga berib qoladi xolos. Umuman olganda talabalarning aktivligi sezilarli darajada emas. Shuning uchun ham o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan har qanday urinish yetarli darajada samara bermasligi mumkin. Bunday holatda qanday yo'l tutish mumkin. Albatta o'qitish jarayonida juda ko'p usullarni qo'llash mumkin. Lekin darslarni muammoli qilib o'tish ana shu yuqorida aytilgan kamchiliklardan xolis bo'lishi mumkin. Bunda har bir talaba darsning mohiyatini tushunib olishi va uni oldida ma'lum bir muammo o'qituvchi tomonidan qo'yilishi kerak. Bu qo'yilgan muammoning qanchalik darajada talabalarga ijodiy intilishni uyg'otishi albatta muammoning xarakteriga bog'liq. Bunda har bir talaba o'z oldida turgan muammoni bila turib uni ijobiy yechishga harakat qilishi kerak. O'qituvchi esa bu jarayonni kuzatib borib, tegishli maslahat va yo'naliishlarni ko'rsatishi kerak. Hozirgi zamonaviy darslarning eng xarakterli tomoni ham shundadir.

Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lish - individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli darslarning yana bir xarakterli tomoni shundaki, bu metodni qo'llash bilan faqtgina talabalar bilimini o'stiribgina qolmay, balki talabalarda shu fanga qiziqish uyg'onadi.

Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, talabani uni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi - individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli vaziyat yaratishning uslubiy yo'llari quyidagilar:

- qarama-qarshiliklarga olib kelinadi va talabalar o'zlariga yechim yo'llarini izlash taklif etiladi;
- ishtiropkchilarga, hodisaga turli xil holatlardan baho berish taklif etiladi;
- muammoli nazariy va amaliy topshiriqlar aniqlanadi;
- taqqoslash umumlashtirish va xulosalar chiqarish;

- aniq savollar qo'yiladi.

Ta'limning muammoli-qidiruv uslublari amalda bilimni so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot uslublar yordamida amalgaga oshiriladi. Shu bilan birgalikda o'quv materialini muammoli bayon qilish uslubini qo'llash, amaliy muammoli-qidiruv ishlarini bajarish, hatto tadqiqot tipidagi amallarni olib borish to'g'risida so'z yuritish mumkin.

O'quv materialini muammoli uslub yordamida o'tish muammoli tuzilgan ma'ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil qilish, talaba fikrini o'z ortidan ergashtirish, uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Muammoli ta'lif uslublaridan biri evristik va muammoli qidiruv suhbatni hisoblanadi. Bunda o'qituvchi (pedagog) talabalar oldiga qator izchil va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan savollar majmuini qo'yadi. Talabalar ularga javob berganda qandaydir shakllarni aytadilar. Aytganlari to'g'ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat qiladilar. Shu bilan birga yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil ravishda oldinga siljishni amalgaga oshiradilar. Agar evristik suhbatda bunday taxminlar yangi mavzuning faqatgina biror qismiga aloqador bo'lsa, muammoli-qidiruv suhbatda talabalar muammoli vaziyatning butun bir tizimini yechadilar. Shuning uchun ham bu suhbatlarning farqi shartli va faqatgina muammoli vaziyatda qo'llanish tadbirlariga taalluqlidir.

Ta'limning muammoli-qidiruv uslublarida ko'rgazmali qo'llanmalar esda saqlashni faollashtirish maqsadida emas, balki darsda muammoli vaziyatni yaratadigan eksperimental masalalarni qo'yish uchun ishlataladi. Bundan tashqari, keyingi paytda rasmlar va chizmalar tizimi ko'rinishida muayyan o'quv vaziyatlari tasvirlarining ko'rgazmali qo'llanmalari ko'p tayyorlanmoqda. Bu usulda talabalarning mustaqil fikrlashining ustuvor sabablarini aniqlash oson ko'chadi.

Muammoli-qidiruv uslublari ko'proq ijodiy bilim faoliyatini ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Ular talabalarning bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallahiga yordam beradi. Bu uslublar, ayniqa, quyidagi hollarda samarali qo'llaniladi: o'quv jarayonida tushuncha, qonun va nazariya kabilarni shakllantirish ko'zda tutilganda, faktik axborotni ma'lum

qilish, mehnat faoliyatining laboratoriya-eksperimental o'quv va ko'nkmalarini hosil qilishda, o'quv materialining mazmuni prinsipial jihatdan yangi bo'lmasdan, ilgari o'rganilganining mantiqiy davomi bo'lsa, uning asosida talabalar yangi bilimni qidirish uchun mustaqil qadam tashlasa, mazmun hodisadagi sabab-oqibat va boshqalarga olib kelsa.

### **Modulli o'qitish metodi**

"Moduli o'qitish" termini xalqaro tushuncha modul bilan bog'liq bo'lib, uning bitta ma'nosi – faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u, modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi.

Modul fanining fundamental tushunchalarini – ma'lum hodisa yoki qonun, yoki bo'lim, yoki ma'lum bir yirik mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruheni o'z ichiga oladi.

Modul bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgandir.

Har bir modul ma'ruzaviy mashg'ulotlar va shu bilan bog'liq bo'lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqaqlash orqali, o'qitishni tabaqaqlash imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi.

Modulli o'qitish – o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u talabalarining bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

#### **Modul:**

- faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallash va tizimlash, dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;

- o'qitishni individuallashtirish;

- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;

- kasbga qiziqtilish asosida, faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

- modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq;
- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materialarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitish, fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o'quv o'yinlar;
- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

Modulli o'qitishda talabalarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Modulli yondashuv o'qituvchi uchun ma'lum darajada darslik funksiyasini bajaruvchi o'quv qo'llanmalar va o'quv materiallарини ishlab chiqishda ham qo'llanishi mumkin. Maxsus fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'quv amaliyotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan o'quv materiallari bo'yicha namunaviy modullar (1-ilovada) keltirilgan. Ushbu o'quv materiallarining afzalligi shundaki, modul bo'yicha amalga oshiriladigan har bir faoliyat turi xaritalar ko'rinishida berilib, ular asosan talabaning mustaqil ravishda amaliy ishlarni bajarish, tajribalar o'tkazishga yo'naltirilish imkoniyatini beradi.

## **Dasturlashtirilgan o'qitish metodi**

Dasturlashtirilgan o'qitish - bu dasturlashtirilgan o'quv materialining o'qituvchi (kompyuterlar, elektron darslik, kinotrinajor va boshqalar) yordamida boshqaradigan o'zlashtirishdir.

Dasturlashtirilgan o'qitish tamoyillarga ajraladi.

Boshqaruvchi tuzilmalarning ma'lum darajasidagi ierarxiysi quyidagi mas'uliyatli vaziyatlarda pedagog tizimni boshqaradi:

- fandan umumiyo yo'nalishni belgilash, fanga munosabat, individual yordam va tuzatishlar kiritish;

- pedagog va talabaga zarur bo'lgan tezkor teskari aloqa, biriga o'quv materilani tushunish uchun ikkinchisiga tuzatishlar kiritish uchun.

Teskari aloqa ikki xil shaklda amalga oshiriladi. Ichki va tashqi ko'rinishda.

Ichki teskari aloqa - talabaning o'zi tomonidan bajariladigan, o'quv materialining o'zlashtirilishini muttasil tahlil qilib borish.

Tashqi teskari aloqa - pedagog yoki boshqaruvchi - o'qituvchi qurilma tomonidan o'quv materialining talaba tomonidan o'zlashtirilishini muttasil baholab borish.

O'quv materialini qadamlab beruvchi texnologik jarayon asosida ishlab chiqilgan o'qituvchi dasturlar. Bu esa, o'quv materialini dastruda alohida mustaqil, ammo o'zaro bog'liq qismlar ko'rinishida shakllanishini anglatadi. Qadam o'zaro bog'liq uchta zvenodan iborat: axborot, teskari aloqa elementi va nazorat izchil qadamli o'quv amallari yig'indisi o'qituvchi dasturni - dasturlashtirilgan o'qitish asosini tashkil etadi.

O'qitishning individualligini turli xil vaqtida bo'lsa ham, o'quv materialining to'la o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Chunki o'qitish, sur'ati, o'quv materialining har bir talaba tomonidan o'zlashtirilishi individualdir.

O'qituvchi (o'rgatuvchi) vositalardan foydalanish. Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasining xususiyati shundaki, o'quv materiali talabalar tomonidan nazorat topshiriqlarini o'z ichiga olgan uncha katta bo'limgan bloklar bo'yicha o'zlashtiriladi.

Dasturlashtirilgan o'qitish jarayonida talabalar juda faol ishlaydilar. Talabalar egallagan bilim albatta oldindan tuzilgan dasturning qanchalik darajada to'g'riligiga bog'liq.

Dasturlashtirilgan o'qitishning yana bir xususiyati shundaki, u o'qituvchiga juda katta imkoniyatlar ochib beradi, ya'ni, o'qituvchi ijodiy ishlarni olib borishi hamda talabalar bilan ko'proq mustaqil ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi.

Dasturlashtirilgan o'qitishning asosiy afzalliklarida biri doimo o'z-o'zini nazorat qilish va talabalarning material ustida ishslash jarayonida ularning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari ustidan nazorat qilishdir. Talabalar o'z-o'zlarini nazorat qilishlari bajarilgan jarayon natijalarini namuna bilan solishtirib ko'rish orqali amalga oshiriladi, namuna esa dasturning har bir qadamdag'i ichki teskari aloqa materiallarida keltiriladi. Tashqi teskari aloqani amalga oshirish, ya'ni o'qituvchi tomonidan nazorat qilish ancha murakkab ishdir. Nazorat qilishning uzuksizligini ta'minlash maqsadida turli xil nazorat qiluvchi qurilmalari qo'llaniladi.

Nazorat qiluvchi qurilmalari sifatida kompyuter ishlatiladi. Talabalar bilimini tekshirish maqsadida har bir mavzu oxirida, o'quv materiali oxirida o'qituvchi test savollari va ularning to'g'ri javob kodini kiritishi kerak. Shuning uchun ham talaba o'qituvchining ishtiokisiz ob'yektiv ravishda o'z-o'zini nazorat qila olmaydi, chunki u savolning to'g'ri javobi kodini qurilmaga kiritish uchun bu javobni oldindan bilishi kerak.

### **Motivatsiya (qiziqtirish) metodi.**

Motivatsiya metodida darsda talabalar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo'lмаган mavzular to'g'risidagi suxbat bilan boshlanadi.

Iloji bo'lsa darsga bog'liq bo'lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan qiziqarli kashfiyat, yangilik yoki hikoyat tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida talabalarning kayfiyatga, shu sohaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda talabalar o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishga yordam beradi.

Agar dars birinchi bor yangi talaba guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi qisqacha o'zini tanishtirib o'tib, talabalarga ham o'zlarini tanishtirish imkoniyatini berish kerak. Bu talabalarda ishonch tug'diradi, talabalar o'zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Ta'riflangan va tanlangan o'qitish fanlarni va modullari

asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinli (ichki) va ekstrinli (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

So'ngra o'qituvchi talabalarga maxsus soha bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyuşhtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi mavzuni boshlashdan avval o'tilgan mavzular qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

Talabalarga mavzularga mos tarqatma materilalar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini engillashtiradi. Mavzuga kirlmay turib, tarqatma materiallar tarqatilmaydi. Ularni mavzuga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni o'qib chiqish uchun etarli daqiqalar berish va talabalar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talabalarga tafakkur qilish va qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarurdir. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng avtiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni echish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

U har bir topshiriq yoki mashqdan keyin talabalar o'zlarini bajargan ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat esa natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilishdan iboratdir. O'quv fani yakunida suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida talabalarning natijalari, ularning amalga oshgan va oshmagan ishlari, shuningdek, talabalarning o'z natijalari yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

### Nazorat savollari


1. Muammoli o'qitish deganda nimani tushunasiz?
2. Muammoli vaziyat yaratishning uslubiy yo'llari qaysilar?



3. "Moduli o'qitish" tushunchasini izoxlang. Modul nima?
  4. Modulli o'qitish samaradorligi qaysi omillarga bog'liq?
  5. Dasturlashtirilgan o'qitish va motivatsiya (qiziqtirish) metodi o'rtasidagi farq nimada?



## Krossvord



## Krossvord savollari:

### Bo'yigq:

1. ... uchun topshiriq bo'lgan holda bajariladi, topshiriq jamiyatning qandaydir texnikaviy buyumni olishga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi. Loyihalash

Enigg;

**2. bu bir predmetning ob'emiini tasviri. Uning formasini, proporsiyasi va funkstiyasi tasvirlovchi predmet Maket**

3. (franstuzcha «mode» so'zidan olingen bo'lib - me'yor, tarz, usul ma'nosini bildiradi) paydo bo'lishi anchagina murakkab vokeba bo'lib, jamiyat hayotidagi qator hayot omillariga bog'liq, insonning iuda kup faoliyatiga utadi. Moda

4. «Kiyim kechak» so'zлari odatda hozir «ansambl» (franstuzcha ensemble - «birgalikda») deb yuritiladigan to'shunchani yoki tarkibiy qismlarining, qo'shimcha bezaklarining xarakteriga, rangi, faktorasiغا va hokazog'a qarab ma'lum marosimlarga mo'ljallangan kostyumi bildiradi Libos

Ta'limda u ikki ma'noda ishlataladi: 1. Xabar – o'qish jarayonini amalga oshiruvchi vosita. Bilimli kishining unga talabgor bo'lganlarga bilim berishi, etkazishi. Ma'lum qilish deb, til va ko'rgazmalar yordamida uni boshqalarga bildirishdir. 2. Bilim darajasi. O'qish, bilish, ya'ni borliqdagi ob'ektiv mavjud qonuniyatlarni his qilish natijasida olingan bilimlar yig'indisi – past ma'lumotli, o'rta va yuqori ma'lumotli va xokazo. Ma'lumot

## 9 – MAVZU. MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA TA'LIM OLUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASH



### Reja:

1. Bilim, ko'nikma, malaka.
2. Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiya ahamiyati.
3. Baholashning mohiyati.
4. Baholash usullarini tanlash va ta'lif oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash.

*Tayanch iboralar: bilim, ko'nikma, malaka, bilimni baholash, baholash usullari, ko'rsatkichlar, fakt, qonuniyatlar, ta'lif oluvchilar.*

Talabalar o'qish jarayonida bilim ko'nikma va malakalarini egallab oladilar. Bilimlarda ob'ektiv dunyo umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni o'rganishni nazarda tutadi.

Bilimlar ta'sirchanligi, ularni bemalol egallab, ularning o'zgaruvchanligi, ulardan turli sharoitlarda, jumladan, yangi bilimlarni egallash uchun foydalana bilish bilimlarning to'laligi va chuqurligining muhim ko'rsatkichidir.

Ko'nikma – kishining ma'lum bir harakatlarni ongli ravishda bajarish qobiliyatidir, bu qobiliyat bilimlar va eng oddiy tajriba asosida hosil qilinadi. Bilimlar bajarilayotgan harakatning nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlar tufayli harakatlarning ayrim bosqichlari va ularning ketma-ketligi tushunarli bo'ladi. Ko'nikmalar – bu amaldagi bilimlardir.

Malaka - mashq qilish yo'li bilan hosil bo'ladigan ish-harakatdir. Mashq qilish natijasida yurish, o'qish, yozish, og'zaki hisoblash,xilma-xil mehnat jarayonlarini bajarish malakalari hosil qilinadi. Talaba harakatni bajarishning muayyan usullarini egallab oladi va bu ishni ongning nazoratisiz avtomatik ravishda bajaradi. Lekin boshlang'ich bosqichda harakat doimo ongli suratda bajariladi. Masalan, tikuv mashinasiga ip taqish ketma-ketligini tasavvur qilish, kerakli ip va ignani tanlash lozim. Agar talaba ipni taqishni bir necha marta takrorlagandan so'ng, harakat odatdag'i bir harakatga aylansa, u ongning zohiriylishtirokisiz bajariladi. Yangi tikuv mashinasiga iplarni taqish, gazlamani tepki ostiga o'rnatish va mashinasi ishga tushirish ishlarini ko'p marta takrorlash har doim bu harakatlarning ketma-ketligini o'ylab ko'rishdan ozod qiladi.

Tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayon o'zgarganda ya'ni tikilayotgan kiyimga qo'yiladigan texnologik talabga qarab, iplar rangi, turi, ignalar, tepkilar tanlanadi. Bunda tikuvchining ongi ishga kirishadi.

Ta'limga oluvchilar tomonidan o'quv materialilari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'limga jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'limga oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash - ta'limga jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiyligi ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'limga beruvchi ham, ta'limga oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida, ta'limga beruvchi uchun ta'limga oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali, yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'limga oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ta'limga beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari

ta'lim beruvchining o'quv dasturiga materialalarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq-ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmsandan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlarining ijobji tavsifi, kasb-hunar kollejida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobjiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onalarining unga, uning kollejdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga munosabatiga hech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan

baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqtov, ma'qullah, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga egadir.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiyligi o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajaraliyotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'riliши kerak. Bu bilan ta'lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta'lim rejasi, uning katta kichik bo'limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi natijalari muayyan standart me'yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta'lim dasturini qism bo'laklari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanish shakllanishga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijodiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- ❖ o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- ❖ keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;

- ❖ natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
- ❖ talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- ❖ yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- ❖ o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- ❖ yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ❖ ta'lif jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- ❖ talabalarni yutuqlariga qiziqtirish uchun;

Tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- nazariy bilimlarni;
- amaliy ko'nikma va malakalarini;
- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni
- qachon baholash kerak?
- ta'lif jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
- ta'lif jarayoni davomida (joriy baholash);
- ta'lif jarayoni yakunida (yakuniy baholash).
- baholashning asosiy xususiyatlari:
- ta'lif maqsadiga yo'nalghanlik;
- muntazam o'tkazib borish;
- pedagogik, psixologik va xuquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiyl qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa - affektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Bolon deklaratsiyasi amalda bo'lgan chet el mamlakatlari tajribasi asosida zamонавиъ axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lif tizimiga yangi usullar kirib kelmoqda. Bu holat nafaqat o'qitishning yangi usullari shakllanishi, balki bilimni baholash jarayonlariga ham ta'sir etmoqda. Ma'lumki, talabalar bilimni nazorat qilish va baholash ta'lif berish jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Bunda asosan har bir talabaning individual ko'rsatkichlari aniqlanadi. Ya'ni baholash jarayoni turli

talabalarning ko'rsatgan natijalarini taqqoslashni ko'zda tutmaydi. Bilimni baholashning asosiy maqsadlaridan biri ta'lim oluvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlariga asoslanib, o'qituvchining ta'lim berish natijalarini tahlil qilgan holda, unga keyingi o'qitish jarayonini qanday tashkil qilish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilishga qaratilgan.

Hozirda baholashni shakllantiruvchi turli interaktiv vositalardan foydalanilmoqda. Shunday vositalardan biri:

### Quizalize

Bu talabalar o'rtasida test va viktorinalar o'tkazishga mo'ljallangan ajoyib vosita. Uning yordamida o'qituvchi dars jarayoni yoki uyga vazifani qiziqarli topshiriqlar ko'rinishida tashkil etishi mumkin. o'qituvchi baholash natijalarini tezda ko'rishi va har bir talabaning kuchli va kuchsiz jihatlarini osongina aniqlashi mumkin. Viktorinani yaratish jarayoni juda sodda. Bunda saytdan ro'yxatdan o'tgandan so'ng, "Mening viktorinalarim" bo'limida "Yangi viktorina tuzish" tugmasini bosish bilan amalga oshiriladi. Viktorina savol va javoblarini tegishli maydonlarga to'ldirib bo'lgach, uni guruhga sinov tariqasida taqdim etiladi. Har bir savoldan keyin talabaning belgilagan to'g'ri javobi uchun ballar beriladi va u talabaga ko'rsatiladi. Talabalar uni tahlil qilishi yoki yo'l qo'ygan xatolarini ko'rishlari mumkin.

### Kahoot

Kahoot dasturi turli multimedia elementlari – matn, surat va videolardan foydalanib, talabalar o'rtasida onlayn test, debat va so'rovnomalar o'tkazish imkoniyatiga ega. Bunda talabalar istalgan ko'rinishdagi qurilmalardan foydalanishlari mumkin.



Har bir savolga rasm yoki videoni biriktirish hamda bajarish vaqtini belgilash mumkin. Bu o'yin ko'rinishidagi test jarayonini o'tkazishda projektordan foydalaniladi. o'qituvchi umumiyl ekranga savol va javob variantlarini chiqaradi.



Talaba esa kompyuter, planshet yoki o'z mobil telefoni ekranida faqat variantlarni belgilaydi.



Savollarga qanchalik to'g'ri va tez javob berilsa, shuncha ko'p ball beriladi. Bu orqali qaysi talaba mustaqil va qaysi biri yonidagi kursdoshidan ko'chirayotganini aniqlash oson. Test so'ngida umumiyl natijalar ekranga chiqariladi. Har bir talabaning u yoki bu savolga bergen javobi doimiy saqlanadi va istalgan vaqtida har bir testing natijalarini Excel jadvali shaklida yuklab olish mumkin. Kahoot'ning yana bir jihat shundaki, undagi tayyor test topshiriqlaridan foydalanib, o'z testlaringiz sonini ko'paytirishingiz mumkin.

### Flipquiz

Bu onlayn vosita “Mening o'yinim” («Своя игра»)ga o'xshash tartibdagi interaktiv savollar o'yinini tuzishga mo'ljallangan.



Undan ham individual topshiriqlar, ham guruhli o'yinlarni tashkil qilishda foydalanish mumkin.

### Socrative

Talabalar bilan qiziqarli o'quv mashg'ulotlari va didaktik o'yinlar tashkil qilishga mo'ljallangan. Bu dastur ham juda sodda va foydalanish qulay. Internet yordamida istalgan qurilmadan kirish imkoniyati mavjud. Savollarni uch xil ko'rinishda tuzish mumkin:

- bir necha javob variantlarini tanlash;
- to'g'ri/noto'g'ri variant va qisqa yozma javob kiritish;
- o'qituvchi savollar va javoblarni kiritadi.

Savollarga rasmni biriktirish mumkin. Umumiy natijalarни Excel jadvallari ko'rinishida kompyuterga yuklash mumkin. Socrative'dan foydalanish sharti 2 xil: erkin va pulli. Erkin foydalanishda talabalar soni 50 nafarga cheklangan.

### TodaysMeet

Talabalar bilan chatlar tashkil etish uchun qulay vosita. Undan foydalanish juda qulay. Uning yordamida u yoki bu mavzuda talabalar bilan muhokamalar tashkil etish mumkin. Foydalanish uchun dastlab ro'yxatdan o'tgach, virtual auditoriya yaratiladi va

vaqt chegarasi belgilanadi. Bu auditoriyaning URL havolasini talabalarga uzatib, debatni boshlash mumkin bo'ladi.

### **Plickers**

Onlayn dastur o'qituvchilarga real vaqt rejimida talabalardan javob olish imkonini beradi. Ularga maxsus QR-kod tushirilgan qog'ozlar tarqatiladi. Bu kodlarning har bir tomoniga javob variantlari harflari yozilgan.



Talabalar ekran yordamida savol bilan tanishtirilgach, ulardan tegishli javob variantni yuqoriga tutib, QR-kodni ko'rsatish talab etiladi.

O'qituvchi Plickers tizimi bilan sinxron ishlaydigan telefon yordamida kodlarni skaner qiladi va talabalardan qay biri to'g'ri javob berishini o'z ekranida kuzatib turadi.

Hozirda bunday tizimlarning amalda qo'llanilishi talabalarni dars mashg'ulotlariga yanada chuqurroq tayyorlanishga undamoqda. Professor-o'qituvchilar ham o'z navbatida, olingan nazorat tahlili natijasida har bir talabaga o'zlashtirishi sust bo'lgan mavzular bo'yicha tushuntirish va individual topshiriqlar berishi yaxshi natijalar bermoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan interaktiv dasturlar qatorida yana bir nechta onlayn tizimlar mavjud.

### Bu tizimlarning qiyosiy jadvalini ko'rib chiqamiz

Uskuna	Turi	Maqsadi	Vazifasi	Platforma	Foydalanish	Afzallikkari	Kamchiliklari
Quizalize	Web sayt	O'zaro mulqot, taqdimot o'tkazish, texnologiyani qo'llash	Maqsadli praktika, baholash	Telefon, planshet, shaxsiy komputer	Bepul, qisman pulli	Real vaqt dagi natijalar, baholashning qog'ozsiz shakli	Internet tarmog'i, cheklangan savol turлari
Kahoot	Web sayt	Kritik qaror qabui qilish, Axborotni qayta ishlash Xotirani mustahkamlash	Maqsadli praktika, Baholash, Bahslar o'tkazish, So'rovnomalar	Telefon, planshet, shaxsiy komputer	Bepul	Real vaqt dagi natijalar, Grafika va videoan foydalanish, Juda sodda interfeys Tayyor testiardan foydalanish	Internet tarmog'i, Ayni talabani doimiy kuzatib borish imkoniyati yo'qligi, Savol va javoblar matni chegarasi
Socrative	Web sayt	Guruvida ishlash, mustaqil tahsil, qaror qabul qilish	Baholash, auditoriyani boshqarish	Telefon, planshet	Bepul	Turli savol turлari, qiziqarli viktorninalar yaratish	Talaba haqida uzoq muddatlari tahlil olish uchun o'qituvchi har

							bir testni qo'lda umumlashtiradi
TodaysMeet	Web sayt	Hamkorlikda ishlash, Ijtimoiy tarmoqda ishlash	Unumdorlik, Auditoriyani boshqarish	Telefon, planshet, shaxsiy komputer	Bepul	Bahslarni o'tkazish, Ko'pfunksiyali	Chatda ba'zi belgilarni ishlatish taqilangan
Plickers	Web sayt	Mustaqil tahlil, xotirani charxlash, qaror qabul qilish	Maqsadli praktika, baholash	Android, iPhone, iPad	Bepul	Mobil texnologiyaga bog'langan kodlangan javob varaqalari talabalarni qiziqishini orttiradi	Savollar faqat ko'pvariantli va ha/yo'q ko'rinishda, qog'oz kartochkalarni chop etish, javoblarni skanerlashda vaqt yo'qotish
Formative	Web sayt	Mustaqil tahlil	Baholash, auditoriyani boshqarish	Telefon, planshet, shaxsiy komputer	Bepul	Zamonaviy dizayn, sodda va mukammal savollar	Topshiriqlar faqat individual foydalanish uchun

164

GoSoapBox	Web sayt	Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, to'g'ri savol tuzish	Taqdimot, Baholash, auditoriyani boshqarish	Telefon, planshet, shaxsiy komputer	Bepul, qisman pulli	Talabalar bilimini tezkor aniqlash va ularga izoh berish, sodda va tushunarli	Tizimdan foydalanish yo'riqnomasini yanada mazmuniroq tuzish lozim
Poll Everywhere	Web sayt	Mustaqil tahlil, qaror qabul qilish	Taqdimot, baholash	Telefon, planshet, shaxsiy komputer	Bepul, qisman pulli	Istalgan platformada ishlaydi, so'rovnomalar yodamida bahslar o'tkazish	Hisobotlarni ko'rish va baho qo'yish pulli hisoblanadi
The Answer Pad	Web sayt	Xulosa qilish, kritik fikrlash	Baholash	Telefon, planshet, shaxsiy komputer	Bepul, qisman pulli	Joriy va yakuniy baholash	Taqdimot va topshiriqlarga fikr qoldirish imkonsizligi

O'qituvchining bunday onlayn servislardan foydalanishi berilgan nazariy bilimlarni talabalar tomonidan o'zlashtirishini va ularning materialni tushunish darajasini qisqa vaqt ichida aniqlashga yordam beradi. Agarda shu kabi texnologiyalarning baholash tizimini tahlil qilib, uni baholashning reyting tizimiga kiritilsa, talabalarning o'quv mashg'ulotlaridagi ishtirokini yanada faollashtiradi. Bunday vositalar yordamida dars mashg'ulotlarini qiziqarli va quvnoq ravishda olib borish hamda talabalarni baholashni interaktiv usulda tashkil qilish mumkin. Shu o'rinda mobil telefon va planshetlar dars jarayoniga to'sqinlik qiluvchi emas, balki yordamchi qurilmalar vazifasini bajaradi.

Oliy ta'limga muassalarida va kasb-hunar kollejlarida ta'limga jaryoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy o'quv uslubiy majmualarni ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta'limga maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta'limga tajribalaridan foydalanilmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirish ta'limga sohasida xalqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning g'oyalari va davrimizning ilg'or yangiliklarini o'zida mujassamlashtirgan metodik tizimning yaratilishiga asos bo'lmoqda.

O'qitish jarayonining vazifasi ta'limga, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Biroq kasbiy ta'limga yo'naliishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlashda ta'limga oluvchilarining qobiliyati, ong va ko'nikmalarini o'stirish, ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish muammosi bundan ham muhimroq. Bu xususiyatlar kelajakda ta'limga oluvchilar qobiliyatini rivojlantirishga, ongli ravishda o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyatni oshishiga yordam beradi. Shuning uchun ta'limga oluvchilarining ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, talabalarining ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko'nikma, malakalarini shakllantirish uchun ta'limga jarayonini yuqori darajali malakaga ega bo'lgan pedagoglar, hamda qobiliyatli va mohir mutaxassislarni jalb qilish, ularni ham ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyani va ularning ishslash texnologiyalari bilan

tanishtirish zarur. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqidir. Yana bir jihatni muhimki, kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan talabalarining kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilish, ushbu jarayonni yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash lozim.

Bo'lajak kasb-hunar kolleji o'qituvchisida zamonaviy kasbiy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari to'g'risida bilim hamda maxsus fanlarni o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, o'tkazish va baholash bo'yicha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Hozirgi paytda kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni o'qitishda yangi ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quv-uslubiy ta'minot muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kasb-hunar kollejlar tizimini takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarini tadbiq etishga doir xorijiy mamlakatlarning yetuk mutaxassislari va malakali pedagoglari ishtirokida seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiylar o'tkazilmoqda.

Biz tomonidan o'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan ta'lim oluvchilar o'zlarida muayyan kasb ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lislari va tanlagan ixtisoslikni egallashlari uchun maxsus fanlarni chuqr o'rganishlari kerak bo'ladi.

Kasbiy ta'limda maxsus fanlar umumta'lim fanlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ixtisoslikni o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonini tashkil etishda, ta'lim metodlarini tanlashda, nazariy va amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda, o'quv uslubiy majmualarni yaratishda, boshqacha yondashuv talab etiladi.

Tadqiqotlarda ta'lim oluvchilarda kasbiy-politexnik va kasbiy-texnikaviy tushunchalarni shakllantirish uchun maxsus fanning

mazmunini ishlab chiqish hamda o'quv maqsadini belgilashda kasbiy politexnik tamoyillarga, ya'ni ma'lum bir ishlab chiqarish sohasi bo'yicha jihozlar, mashinalarning ishlash tartiblari; ishlab chiqarish texnologiyalarining bajarilish ketma-ketligi; kasbiy faoliyatni tashkil etishning ilmiy asoslari; soha bo'yicha mehnat faoliyatining iqtisodiy tamoyillariga rioya qilish lozim.

Maxsus fanlarga aniq bir ishlab chiqarish sohasi bo'yicha texnikalar yoki texnologik jarayonlar bo'yicha ta'lif oluvchilarda kasbiy shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar asosini tashkil etuvchi bilimlar kiradi.

**Baholash**-ta'lif jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Mutaxassislik fanlarni faol metodlardan foydalanan o'qitishda talabalar bilimini va ko'nikmalarini baholash o'quv maqsadlariga yo'naltirgan holda muntazam o'tqazib turilishi kerak

Bilim va ko'nikmalarni baholashda quyidagilarga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega:

- o'quv maqsadlariga yo'naltirgan holda oraliq va joriy nazoratlar muntazam o'tkazib turilishi kerak;

- pedagogik va psixologik tamoyillarga, hamda baholash standartiga asoslanishi lozim.

- baholashdan oldin talabani unga qo'yiladigan talab va baholash mezonlari bilan tanishtirish.

- bilim va ko'nikmalarni baholash natijalari talabalarga iloji boricha tez vaqt ichida bildirilishi kerak.

- talabaning olgan past natijalar sabablari muhokama etilishi kerak.

- past natijalar olgan talabalarga qo'shimcha ta'lif olish bo'yicha imkoniyatlar yaritilish kerak.

Baholash natijasida nafaqat ta'lif oluvchining, balki ta'lif beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lif vositalari, rejalar, ta'lif jarayonini tashkil etish sifatida ham baho beriladi.

Ta'lif dasturining qism bo'laklari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanishning shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va

umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lrim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lrim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

**Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:  
Nima uchun baholash kerak?**

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin, avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
  - natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
  - talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
  - yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
  - o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
  - yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
  - ta'lrim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
  - ta'lrim oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
  - tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

**Nimani baholash kerak?**

- nazariy bilimlarni;
- amaliy ko'nikma va malakalarni;
- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni.

**Qachon baholash kerak?**

- ta'lrim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
- ta'lrim jarayoni davomida (joriy va oraliq baholash);
- ta'lrim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

**Baholashning asosiy xususiyatlari;**

- ta'lrim maqsadiga yo'naltirilganlik;
- muntazam o'tkazib borish;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o'quv maqsadlarga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, hulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa-affektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

**Baholash mezonlari.** Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari ta'lif oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

**Baholash tamoyillari.** Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lif oluvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Bilimlarni baholash individual harakterga egadir. Har bir ta'lif oluvchi uning qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini bilishi kerak. Ta'lif beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish hamda baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga, uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

Ta'lif oluvchining bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi hamda baholanadi. Ta'lif oluvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari turlichadir. Ba'zan ta'lif beruvchi bilimlarni tekshirishning uzoq vaqt mobaynida bir xildagi usullarini qo'llaydi. Unda so'rash, savol berish, izohlash kabi muayyan odat paydo bo'ladi. Ta'lif oluvchilar bugunday tekshirishga moslashib ketadilar, o'qituvchining qay tarzda so'rashi ularga oldindan ma'lum bo'ladi. Ular faqat ta'lif beruvchi uchun, uni qanoatlantirish uchun javob bera boshlaydilar.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi:

- o'quv maqsadlariga asoslanganlik;
- haqiqiylik;
- haqqoniylilik;
- ishonchlilik;
- qulaylik.

### **Ta'lim oluvchilarni baholashning asosiy xususiyatlari**

1. *O'quv maqsadlariga asoslanganlik.* Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholash tizimi loyihalashtirilayotganda, baholash topshiriqlari berilgan ta'lif mazmuni doirasida bo'lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirayotganda, har doim quyidagi ikki savolni e'tiborga olish lozim:

Baholash topshiriqlari ta'lif jarayonidan ko'zlangan o'quv maqsadlarini to'la aks ettiradimi?

O'quv maqsadlari darajasiga baholash shakllari, usullari va mezonlari to'g'ri tanlandimi?

Masalan, yo'l harakati qoidalari bo'yicha olgan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin, undan mashinani boshqarish malakalarini baholashda foydalanib bo'lmaydi. Bu malakalar og'zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. *Haqiqiylik.* O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natija-gina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisob-lanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ta'lif oluvchi erishgan natijalar to'g'risida asoslangan hamda ishonchli axborotlar berilishi kerak. Ta'lif oluvchi egal-lagan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarni o'lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

*Haqqoniylilik (ob'yekтивлilik).* Baholash tizimi o'quv maqsadlariga mos bo'lishi, shuningdek baholash shart-sharoitlari va

maqsadlari bilan talabalar oldindan tanishgan bo'lishlari lozim. Ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi hamda hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

**3. Ishonchlilik.** Natijalarni baholash mobaynida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin, bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Usul ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligi qanchalik ishonchli ekanligi nazarda tutiladi.

Baholash ishonchli bo'lishi uchun ta'lim oluvchilarda bir-biriga o'xshash, ammo har xil sharoitlarda baholash o'tkazilganda, natijalari bir xil bo'lishi kerak. Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo'lishi uchun turli ekspertlar yordamida turli vaqtarda baholash o'tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

Baholash ishonchliliginining ikki tomoni bor:

Baholash usulining ishonchliligi. Agar foydalanilayotgan baholash usulining ishonchliligi yuqori bo'lsa, talabaning o'zlashtirish darajasi baholashning har xil usullaridan foydalanganda ham o'zgarmay qoladi (olingan natijalar bir xil, o'zgarmas bo'ladi).

Baholashning o'zlashtirish darajasini baholash usullarining ishonchliligi deb, baholash boshqa joyda va boshqa imtihon oluvchi tomonidan o'tkazilganda ham, uning bir xil bo'lishi, o'zgarmasligi tushuniladi.

Baholash usullarining ishonchlilik darajasi quyidagi holatlarda ko'proq bo'ladi:

- hamma ta'lim oluvchilar qo'yilgan talabni aniq tushunsa;
- baholash shartlari oldindan ma'lum qilinsa va unga rioxva qilinsa;
- hamma natijalar baholashning oldindan kelishilgan mezonlari to'la asoslangan bo'lsa;
- tasodifiy xatolarni kamaytirish maqsadida mos baholash turlari qo'llanilsa.

**4. Qulaylik.** Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o'quv ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab

bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lim oluvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rghanish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'limgan qismlariga nisbatan ko'proq ball berish kerak bo'ladi.

**Baholashning reyting tizimi.** Reyting tizimidagi ta'lim jarayonida baholash quyidagi nazorat turlari orqali aniqlanishi mumkin:

- nazorat qilish;
- xulqini baholash;
- nazariy va amaliy bilimlarni baholash.

1. Nazorat qilish orqali o'zlashtirganlikni aniqlash:

- ta'lim oluvchining bilim ko'satkichlari darajasini, malakasini shakllantirish;

- ta'lim oluvchini doimiy baholash va ular olgan baholarni taqqoslab borish;

- ta'lim oluvchining o'qishga intilishi va o'zaro bellashish imkoniyatini shakllantirish;

- ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi va malaka ko'nikmalarini haqqoniy baholash;

- ta'lim beruvchilarning pedagogik faoliyatini to'g'ri baholash.

2. Xulqini baholash orqali:

- ta'lim oluvchilarning darslarga qatnashish intizomini yaxshilash va ularni fanlar bo'yicha uzlusiz tayyorgarligini tashkil etish amalga oshiriladi.

3. Nazariy va amaliy bilimlarni baholash orqali o'zlashtirganlikni aniqlash:

- ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchining o'z qobiliyatini oldindan rejalahtirish;

- ta'lim jarayonining borishini tezkor tahlil qilish;

- o'z faoliyatida zaruriy o'zgarishlar kiritish imkoniyatlarini yaratish.

Reyting tizimi yuqorida sanab o'tilgan barcha nazorat turlarini o'zaro taqqoslash orqali ta'lim jarayonidagi baholash tizimini yaratadi. Reyting tizimida ta'lim oluvchilar bilimi doimiy ravishda

nazorat qilinib va baholanib boriladi. Reyting nazorat tizimi asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fanning ta'limgan oluvchi o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlari ballar bilan baholash yotadi. Respublikamiz ta'limgan muassasalari o'quv jarayonida qo'llanilayotgan reyting tizimiga asoslangan holda ikkita nazorat turidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Talabalar kasbiy sifatlarga ega bo'lgan ishlarni bajarish jarayonida har xil ijodiy vazifalarni hal qilishga duch keladilar. Masalan, talabalar biron bir buyumning tayyor mahsulot bo'lgunga qadar jarayonning barcha asosiy bosqichlarini bosib o'tishlari muhimdir.

Har bir o'qituvchi o'z fani bo'yicha reyting tizimini loyihalashtirishda quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Har bir fan bo'yicha semestr davomida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 100 ballni tashkil etadi.

2. Har bir fan uchun ajratilgan maksimal ball nazorat turlari bo'yicha taqsimlanadi:

**Joriy nazorat.** Joriy nazorat o'tkazishning asosiy maqsadi ta'limgan oluvchini baholash uchun so'rovlar soni chegaralangan. Har bir darsda tayyorlanib kelgan ta'limgan oluvchi javob berishi va ball olishi mumkin, lekin ta'limgan beruvchi qolgan ta'limgan oluvchilarni ham e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim.

**Oraliq nazorat.** Oraliq nazoratning asosiy maqsadi ta'limgan oluvchilar tomonidan ma'lum bir mavzu, bob yoki modul bo'yicha erishilgan natijalarni (belgilangan standartlarga erishganligini) aniqlashdan iborat. Oraliq nazoratni topshirish barcha ta'limgan oluvchilar uchun majburiy hisoblanadi.

**Yakuniy reyting ko'rsatkichi.** Yakuniy reyting ko'rsatkichini aniqlash uchun semestr yakunida yoki o'quv predmeti yakunida ta'limgan oluvchining barcha mavzular bo'yicha olgan ballari hisoblanib, o'rtachasi aniqlanadi. Semestrda fan yuzasidan necha soat dars o'tilgan bo'lsa, har biriga maksimum 100 balldan ajratilib,

semestr yakunida o'rtacha ball hisoblanadi va reyting jurnaliga qo'yiladi.

O'quv rejasi va fan dasturiga asosan tuzilgan tizim - mavzu rejasi bo'yicha, hamda ajratilgan soatlarni e'tiborga olgan holda, har bir talabani semestr davomida necha marta nazorat qilish imkoniyatlaridan kelib chiqib, nazorat va so'rov turlari aniqlab chiqiladi hamda ma'lum bir fan bo'yicha «Reyting ballarining taqsimoti» tuziladi.

### **Ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash**

Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonida talabalar xulqi va bilimini baholash muhim ahamiyatga ega. Xulqni baholash talabaning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash demakdir. Bu xususiyatlar kuzatilgan xulqdan kelib chiqsada, lekin o'lchash mumkin bo'lgan natija qamroviga kirmaydi. Misol uchun, talabaning ishlash tarzini baholash, uning berilgan topshiriqni muntazam yoxud nomuntazam, samarali yoki samarasiz ravishda bajarayotganligi haqida tegishli xulosalar chiqarish mumkin.

Bilimni baholash deganda, erishilgan natijani qamrab olish va o'lchash, shuningdek, uni natija ko'lami bilan taqqoslash tushuniladi.

Xulq va bilimni baholash quyidagi xususiyatlarga ega:

- ta'lif maqsadlariga yo'naltirilganlik;
- muntazam o'tkazib turish;
- huquqiy, pedagogik va psixologik tamoyillarga asoslanganlik;

- hamma qabul qilgan baholash andozalariga asoslanganligi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lif tizimi va uning barcha tarkibiy qismlari tekshirib ko'riliishi mumkin.

Bu bilan ta'lif tizimi kutilayotgan natijani berayotganligi yoki bermayotganligi tekshirilib, o'lchab ko'rildi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta'lif rejasini, uning katta va kichik bo'limlarini qamrab oladi. Uzoqroq vaqt davomida amalda bo'lgan ta'lif tizimi natija andozasi orqali ifodalanishi mumkin.

Kollej talabalarning, balki amaliyot o'qituvchilarining ham kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ko'rsatib boriladi. Ta'lif vositalari, rejalar, tashkiliy ishlarning sifatiga ham baho berishi mumkin. Natija qismlarini muntazam baholab borish aniq va adolatli xulosalarga olib keladi.

Baholashda mazkur xulosalarning umumlashtirilishi baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. O'qituvchi muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish uning maqsad sari intilishi va istaklarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulqni baholashni hukm chiqarish quroli sifatida tushunmaslik kerak. Shu sababli o'qituvchi baholash jarayoniga hamkor sifatida jalb etilishi lozim. Bu orqali o'qituvchi o'z shaxsiy xususiyatlari xususida ba'zi ma'lumotlarni bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladi, masalan:

- uning topshiriqlarni bajarishga bo'lgan imkoniyatlari;
- asablarining bardoshliligi;
- uning irodasi va umid-ishonch ruhi.

O'qitish davomidagi nazorat, natijalarni o'lchab borish, xulqi va bilimlarini baholash talabaning o'zligini anglashi uchun yana bir imkoniyatdir.

#### *Xulq va bilimlarni baholash uchun ko'rsatmalar:*

1. Xulqi va bilimlarini baholashdan oldin talaba talab va mezonlar haqida xabardor qilinishi kerak.

2. Xulqi va bilimlarini baholab bo'lgandan so'ng talabaga uning natijalari iloji boricha uzoq vaqt cho'zmasdan bildirilishi kerak.

3. Talaba olgan yomon baholar sabablari baholash suhbati orqali muhokama etilishi kerak.

Bunda amaliyot o'qituvchisining hatti-harakatlari ham ushbu yomon natijalarga sabab bo'lishi mumkinligini inobatga olish lozim.

4. Yomon natijalarini birgalikda yaxshilash borasida ko'rildigan chora-tadbirlar haqida maslahatlashib olish kerak.

5. Talabaga xulqi va bilimlarini baholash natijalarini ko'rish va o'z munosabatini bildirish huquqi berilishi kerak.

Topshiriqlar natijalarini o'lchash va baholash maqsadida ongli ravishda qo'yilgan talablardir. Testlar bilim, qobiliyat ko'nikma, shuningdek, fe'l-atvor va munosabatni tekshirish jarayoni va vositasidir.


Testlar quyidagi yo'nalishlarga tuzilishi mumkin:

- natija andozalarini aniqlash uchun natija testlari;
- intellekt va boshqa qobiliyatlarni aniqlash uchun qobiliyat testlari;
- talabaning ma'lum bir kasbga layoqatli ekanligini aniqlash testlari;

- talabaning motiv, ijtimoiy qadriyatlari va qarashlarini aniqlash testlari;

Bu bilan birga joriy, oraliq va yakuniy nazorat testlari ham farq qilinadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlari va aqliy layoqatini baholashda og'zaki hamda yozma baholash topshiriq shakllaridan foydalaniladi.



Og'zaki shakldan ko'proq og'zaki savol-javoblarni qisqa vaqt ichida o'tkazish uchun foydalaniladi. Ushbu jihatiga ko'ra, bu baholash topshiriq shaklidan oraliq nazoratni amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Og'zaki topshiriq shaklining turlari:

- ochiq;
- yopiq.

Og'zaki shakning **ochiq turi** deganda, ta'lim oluvchining so'rалган material yuzasidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda erkin va ijodiy yondoshish asosida javob berishi nazarda tutiladi.

**Yopiq turda** esa ta'lim oluvchi faqat berilgan material doirasida javob berish bilan cheklanib qoladi.

Og'zaki topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning bilimlari bilan birga o'zini tutishi, reaksiyasi va muloqot qilish qobiliyati inobatga olinadi. Ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

- kasbiy holatlarga simulyasiya( taqlid) qilish;

- yechish yo'llarini topish bilan bog'liq muammoli holatlarni muhokama qilish;

- talabalarning muammoli holatlarga bo'lgan shaxsiy munosabati.

Psixik omil (tanglik, erkin emaslik, qo'rquv kabilalar) katta rol o'ynashi tufayli ko'pincha haqiqiy natijalar berish qobiliyati ko'rinxay, yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

O'qituvchi og'zaki topshiriq bo'yicha savollar tuzayotganda quyidagi xususiyatlarni inobatga olishlari lozim:

- gaplar mos so'roq so'zlardan tuzilgan bo'lishi kerak;

- savol aniq va tushunarli tuzilgan bo'lishi lozim;

- savol to'g'ridan-to'g'ri muammoga qaratilgan bo'lishi kerak;

- «ha» yoki «yo'q» javobini talab etuvchi savollar bo'lmasisligi kerak;

- savol faqatgina bitta gapdan tuzilishi lozim;

- savol faqat bir talabaga emas, balki barchaga taalluqli bo'lishi kerak;

- javob berishga vaqt ajratilgan bo'lishi lozim.

Bugungi kunda test topshiriqlarining bir qator turlaridan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarining nazariy bilimi va aqliy layoqatini baholashda foydalanilmoqda.

## Baholash metodlari va vositalarini ishlab chiqish

### 1. BIR TANLOVLI TESTLAR

Bir tanlovli test topshiriqlari yagona javobni tanlash imkoniyati berilgan topshiriqlar hisoblanadi.

Bir tanlovli savollar «asos» deb yuritiladigan tugatilmagan jumla yoki savollardan iborat bo'lib, unga ketma-ket to'rtta yoki beshta haqiqatga yaqin bo'lgan javoblar tanlovi keltiriladi. Ta'lim oluvchi ular orasidan bitta to'g'ri javobni tanlashi kerak. To'g'ri javob «kalit» deb, noto'g'ri javoblar «chalg'ituvchi» javoblar deb ataladi.

**Misol:** Zararkunanda kapalaklar turlari keltirilgan qatorni toping.

A) ombor kuyasi, tegirmon qizil kapalagi;

B)malla unxo'r, un mitasi;

V)un kanasi, ombor kuyasi;

G) malla unxo'r, don chaxlagich

**Javob:** V

## 2. KO'P TANLOVLI TESTLAR

Ko'p tanlovli test topshiriqlarida javoblar varianti bir nechta to'g'ri javoblardan iborat bo'ladi.

**Misol.** Diafanoskop kassetasi nechta xonadan iborat?

- 1) 50
- 2) 100
- 3) 75
- 4) 90

**Javoblar:**

- A) 2 va 4
- B) 1 va 3
- V) 2 va 1
- G) 3 va 1

**Javob:**

## 3. TO'LDIRUVCHI TESTLAR

Bu topshiriqni echish to'liq bo'limgan matnlarga kiritiladigan tushunchalar, gap bo'laklari, simvollar va sonlardan tashkil topadi hamda ta'lim oluvchidan berilgan jumlanı kerakli so'z bilan to'ldirishi so'raladi.

**Misol.** Ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining muayyan maqsadga qaratilgan, bиргалидаги faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan yo'llar yig'indisi - deb ataladi.

## 4. MUVOFIQLASHTIRUVCHI TESTLAR

Bunday test topshiriqlarida ta'lim oluvchilarga ikkita ro'yxat taqdim etilib, ulardan birida savollar turkumi, ikkinchisida esa javoblar turkumi aks ettirilgan bo'ladi. Ta'lim oluvchilar savollar turkumiga muvofiq keluvchi javoblarni topishlari va belgilashlari talab etiladi.

**Misol:**

- A) ro'yxat: metodlar

A) AQLIY

1. Ta'lim beruvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish nehun ta'lim oluvchilarini kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshitiqning yechish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi

B) DAVRA  
SUHUBATI

2. Biror muammoni yechishda ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metod

C) KICHIK  
GURUHLARDA  
ISHI ASII

3. Ta'lim oluvchilar o'rtaсиda va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o'z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

#### 14-rasm. Ta'lim metodlari va ularni tashkil qilish mazmuni

***Yoki javob:*** A2, V3, S1.

Muvofiqlashtiruvchi testlar bir qiymatli yoki ko'p qiymatli bo'lishi mumkin. Bir qiymatli testlarda ustunlardagi savollar va javoblar miqdori bir xil nisbatda, ya'ni bir savolga bir javob to'g'ri kelishi kerak bo'ladi. Ko'p qiymatli muvofiqlashtiruvchi testda esa ustunlardagi savollar va javoblar miqdori har xil nisbatda, ya'ni bir necha savolga bir javob to'g'ri kelishi mumkin, yoki aksincha bir savolga bir necha javob to'g'ri kelishi mumkin.

Javobni belgilashda birinchi ustundagi savollarga ikkinchi ustundagi javoblarni topib, uni ma'qullash belgisi orqali ifodalash mumkin. Yoki javoblarni savollar belgisi va javoblar raqamini mos ravishda belgilash mumkin.

Talabalarning bilimi va ko'nikmalari testlarning ijobiy yechimini topishlariga qarab aniqlandi. Mustaqil ishlari bo'yicha shakllangan ko'nikmalarini baholashda berilgan topshiriq bo'yicha mustaqil ma'lumot yig'ish, rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish kabi mezonlardan foydalanildi.


Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishni faollashtirishning birinchi bosqichida talabalarning dastlabki bilim darajasi, mustaqil ishslash qobiliyati hamda egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi tahlil qilish lozim. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda

faol ta'limg metodlarini qo'llash orqali talabani "ta'limg ob'yekti" dan "ta'limg sub'yekti" darajasiga o'tishga imkon yaratiladi, mashg'ulotlarda ijodiy muhitni yuzaga keltiradi. Bu esa ta'limg jarayonida talabalarning faolligini oshiradi. O'qituvchi esa bilimlarni yetkazuvchi emas, balki bilimlarni talabalar tomonidan, mustaqil ravishda o'zlashtirilib olishga yordam beruvchi, ta'limg jarayonining maslahatchisiga aylanadi. Demak, talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va mustaqil faoliyatlarni rivojlantirish uchun maxsus fanlarni faol metodlar asosida o'qitish jarayonini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

### Nazorat savollari

1. Bilim, ko'nikma va malaka nima?
2. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
3. Baholashning mohiyatini tushuntiring.
4. Baholash metodlari va vositalarini ishlab chiqish bosqichlarini izohlang.
5. Baholash jarayonida qanday ko'rinish va mazmundagi test savollari mavjud?

### Krossvord



## Krossvord savollari:

### Bo'yiga:

1. ma'lum bir hodisa eki jarayonning holatini kuzatish, xisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash. Monitoring
2. kamchiligi mavjud material. Nuqson
3. gazlamani surilmaydigan qizdirilgan ikki sath orasida siqish. U presslar yordamida bajariladi. Presslash
4. ikki ma'noga ega – bu qandaydir buyumni nomidan qilingan tasvir, u mutlaqo boshqa shakl yoki abstrakt tushuncha bo'lishi mumkin. Atamani ikkinchi ma'nosi – yozma belgi (harf, notalar, raqam, matematik ramzlar va b.). Ramz

### Eniga:

5. inson xatti-harakatini boshqaradigan, uning yo'nalishi, uyushishi, faolligi va barqarorligini belgilaydigan, insonning o'z ehtiyojlarini qondirishga undaydigan fiziologik va psixik xususiyatga ega bo'lgan organik jarayon. Motivatsiya
6. umumiy vazifa ado etuvchi bir qancha buyumlar: unda material bilan uslub birligi bo'lishi shart emas (bolalarning ich kiyim nabori). Nabor
7. lo'nda matnli, katta o'lchamdagи tasvir ifoda etilgan bosma nashr. Plakat

## GLOSSARIY



Atamaning o'zbektilida nomlanishi	Atamaning ingliztilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Ta'lim	Education	Образование	bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni bo'lib, kishini hayotga va kasbga tayyorlashning asosiy vositasidir.
O'qitish	Teaching	Обучение	o'qituvchi va ta'lim oluvchining birlgiligidagi faoliyati va bu jarayonda ta'lim oluvchilarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.
O'qitish metodikasi	Methods of teaching	Методика обучения	pedagogikaning o'qitish, qonuniyatlari, qoidalar, tashkil etish shakkari, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib baholash metodi hamda vositalarini o'zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog' idir. Har bir o'quv fani o'qitish sohasi o'rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko'rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.
Kasbiy pedagogika	Professional pedagogy	Профессиональная педагогика	umumiyligi pedagogikaning bir sohasi bo'lib, u tarbiya, ta'lim, o'qitish haqida qator nazariyi va amaliy ma'lumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug'ullanadi.
Kasb ta'lim texnologiyasi	Professional Education Technology	Технология профессионального образования	butun o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimi usuli bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtaSIDA

			muloqot to'g'risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta'lif jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi.
Kasbiy ta'lif metodikasi	Technique of professional education	Методика профессионального образования	ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlar, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog' idir
Didaktika	Didactics	Дидактика	grekcha didaskien so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma'nolarini anglatadi. Shunga ko'ra didaktika – bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika o'qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi
Didaktikaning predmeti	Subject of didactics	Предмет дидактика	ta'lif-tarbiya muassasasi sharoitda pedagog rahbarligi ostida amalga oshiriladigan o'quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatları tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta'lif-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lif mazmunini belgilashning ilmiy asosları, o'qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'lifning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi
Metod	Method	Метод	iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'lifot ma'nosini anglatib) voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir.

Metodologiya	Methodology	Методология	metod va logiya iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta'limot ma'nosini anglatadi. Demak, metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy tashkiliy komponentidir
Pedagogik texnologiya	Pedagogical technology	Педагогическая технология	ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida butun o'qitish va o'rgatish jarayonini aniq ketma-ketlikda puxta loyihalashtirilib tashkil etish, amalga oshirish va baholashning yaxlit tizimi bo'lib, uning asosini berilgan sharoitlar hamda ajratilgan vaqt ichida o'quv maqsadlariga kafolatli erishishlarini ta'minlash g'oyasi tashkil etadi
Ta'limni baholash	Evaluation of education	Оценивание образования	pedagoglar tomonidan ta'lim jarayonida erishilgan natijalarni baholash, chetga og'ish aniqlanganda ularning sabablarini aniqlash, ko'nikmalar va bilimlarda topilgan kamchiliklarni to'lg'azish, rejalashtirilgan yangi vazifalarni loyihalashni ham nazarda tutadi
Kasbga yo'naltirish	The direction to the profession	Направление в профессию	jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchiga ma'lum bir kasb-hunar o'rgatishga yo'naltirish jarayoni ma'rifiy jarayoni
Dars	Lesson	Урок	- aniq maqsadni ko'zlab, ajratilgan vaqtda o'qituvchi rahbarligida talabalar bilan olib boriladigan mashg'ulot. Darsning maqsadi, mazmuni va hajmi davlat ta'lim standarlari asosida belgilanadi
Ma'ruza	Lecture	Лекция	rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan ta'lim hamda tarbiya jarayonidir.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari	Practical, laboratory, seminars	Практические, лабораторные, семинарные занятия	aniq maqsadga qaratilgan bo'lib, ma'lum bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktik harakatga aytildi.
Mustaqil ishlar	Independent works	Самостоятельные работы	nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, kengaytiradi, mustahkamlaydi, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish uchun yo'naltiriladi
O'quv amaliyoti	Teaching practice	Учебная практика	talabalarning olgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini real vaziyatlarda qo'llash orqali ularda malakalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotdir
Nazariya	Theory	Теория	tafakkurning barcha bosqichlaridan o'tgan va amaliyotda sinab ko'rilib maromiga yetkazilgan bilimlar majmui
Elektron o'quv adabiyotlari	Electronic educational literature	Электронные учебные литературы	zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan manba hisoblanadi
Elektron darslik	Electronic textbook	Электронный учебник	kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv metodini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materialllar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan adabiyot turi
Ilm	Science	Наука	insonning o'qish, o'rganish va shaxsiy hayotidagi tajribalar, kuzatishlar natijasida shakllangan bilim va malakalar majmui. Inson kamolotidagi ilm

			egallash qobiliyati, uning ulkan fazilatlaridan biri hisoblanadi. Chunki, inson ilm bilan shon-sharafga erishadi-shuhrat qozonadi
Ilmiy fikrlash	Scientific thinking	Научное мышление	bu ko'proq nazariy tushunchali fikrlashdan iborat bo'lib, "fikr-yangi-fikr-g'oya-qara sh-qonun-qoida-ta'lomit" kabi tizimdag'i aqliy faoliyatdir
Intellekt	Intelligence	Интеллект	insonning dunyoqarashi kengayishidagi tafakkur qila olishi qobiliyati natijasi. Bunda intellektni shakllantiruvchi omillarga ong, aql, fikr, g'oya, ta'lomit va shu kabilalar kiradi
Interfaol metod	Interactive method	Интерактивный метод	bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro teng muloqot va ta'sirdagi dars jarayonini amalgalash oshirish usuli. "Interfaol" so'zi "interaktiv" so'zining o'zbek tilidagi bayoni.
Namunaviy o'quv dasturi	Typical training program	Типовая учебная программа	muayyan predmetlar bo'yicha ta'lim mazmunining zaruriy minimumini va o'quv materialini o'zlashtirish darajalarini batafsil oshib beruvchi hujjat
Namunaviy o'quv rejasi	Model curriculum	Типовой учебный план	o'qitish muddatini hisobga olib, kasbga (mutaxassislikka) muvofiq ravishda blokli fanlar ro'yxati va hajmining davlat miqiyosini belgilovchi hujjat
Ishchi o'quv dasturi	Working curriculum	Рабочая учебная программа	muayyan o'quv predmeti uchun namunaviy o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan va o'qitishning to'liq mazmunini oshib beruvchi hujjat
Ishchi o'quv reja	Working curriculum	Рабочий учебный план	muayyan ta'lim muassasasi uchun o'qitish jarayonining kalendor - taqvim tuzilmasini va bosqichlarini ifodalaydigan namunaviy o'quv reja asosida ishlab chiqilgan hujjat
Kasb	Profession	Профессия	maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir

			soxada kasbiy faoliyatni amalgalashirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining turi
Kasbiy tayyorgarlik	Professional training	Профессиональная подготовка	aniq kasbiy faoliyat doirasida ish bajarishga imkon beruvchi bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi jarayon
Natija	Results	Результат	dars mashg'ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan va ta'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir
Tadqiqiy qobiliyat	Research skills	Исследовательские навыки	o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatiga ijodiy yondashish orqali muommoli vaziyatlarni o'z vaqtida hal eta olish va jarayonlarni har qanday sharoitda to'g'ri baholay olish mahoratlarining mahsulidir
Uslugub	Style	Стиль	Jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyatidagi muhim va xarakterli belgilari obrazli sistemasi ijodiy prinsiplarining tarixan tarkib topgan birqadar barqaror mushtarakligidir.Uslugub- bu davrning badiiy tili va xarakteristikasıdır. Davr o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy informatsiya bilan belgilanadi.
Unifikatsiya	Unification	Фабрика	Standartlashning eng ko'p qo'llaniladigan va ishlaydigan uslubi bo'lib, uning asosiy maqsadi bir funksional mo'ljallangan mahsulotning mavjud turli tuman turlarga va tiplarga bo'lish orqali kamaytirishdan iboratdir

Yengil sanoat	Light industry	Лёгкая промышленность	Xom-ashyoning xilma-xil turlaridan iste` mol buyumlari va mahsulotlari ishlab chiqarishga ihtiisoslashtirilgan va bir-biri bilan o'zaro bog'langan sanoat tarmoqlari yig'indisi.
Urf	Fashion	Мода	bu yangilanish. Bu tabiat rioya qiladigan prinsip! Daraxt eski bargini, odam esa jonga tekkan kiyimini tashlaydi. Moda zerikarli bir xillikdan xalos bo'ladi. Odamlar bir – biriga yoqishni xoxlaydi: chirolyi kiyinsam, yaxshi ko'rinsam deydi – bu tabiiy ehtiyoj
Kompozitsiya	Composition	Композиция	musiqa, amaliy san'at yoki mo'yqalam asari ham hisoblanadi.
Garderob	Wardrobe	Гардероб	Bu bir qator hollarda zarur bo'lgan bir sidra kiyim komplektlari va kostyumni to'ldiruvchi boshqa qo'shimcha predmetlar, ya'ni bir kishining yoki butun oila a'zolari barcha kiyimlarining yig'indisi
Kiyim	Clothes	Одежда	bu ma'lum vazifaga mo'ljallanganlikni ifoda etuvchi detallar xarakteriga binoan sinchiklab tanlangan, kosmetika va soch turmag'i bilan qo'shilib, kostyumni to'ldiruvchi va bezovchi predmetlar bilan birlashgan kiyim. Maqsadiga qarab kiyim-kechak maishiy, kechalik, ishlik, tantanavor, sportbop va hokazo bo'lishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. - 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947 - sonli Farmoni.
5. Sh.A.Abdullayeva, D.A.Axatova, B.B.Sobirov, S.S.Sayitov. Pedagogika. O'quv qo'llanma. -T.: Fan, 2004. - 264 b.
6. Abduqudusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv: O'quv qo'llanma. -T.: Fan, 2005. -160 b.
7. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari: O'quv qo'llanma. -Buxoro.: Muallif, 2001.- 182 b.
8. Abduqudusov O., To'raev A., Axmadaliev A., Bog'iev G', Razzoqqov D. Ixtisoslik o'quv predmetlarini o'qitish metodikasi. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. - T.: Fan, 2012. - 240 b.
9. Avliyakulov N.X. Практические основы модульной системы обучения и педагогические технологии. Учебное пособие. - Бухара: 2001. – 99 с.
10. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. O'quv qo'llanma. -T: 2001. - 68 b.
11. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Kasb-hunar kollejlarida kasbiy fanlarning modulli o'qitish texnologiyalari. O'quv metodik qo'llanma. - T.: Yangi asr avlod, - 2003. - 88 s.
12. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi. 1992 yil, 62-b.

13. Axmedjanov M.M., To'xtayeva Z.Sh. Didaktik vositalar majmuasi. Toshkent. 2008. - 128 b
14. Azizxodjaeva N.N. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. - Tashkent: Moliya, 2002.
15. Baranov S.P. Pedagogika. - Toshkent: - O'qituvchi. 1979 yil, 374-bet.
16. Bexbudiy M. Muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya. - Samarqand: - Tipografiya G.I. Demurova. 2001 yil. - 103-b.
17. Boboxonov A., Maxsumov M. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati va ta'limg-tarbiya to'g'risidagi fikrlari. - Toshkent: O'qituvchi. 1996 yil, 85-bet.
18. Mirabdulla M. Jug'rofiy atamalar lug'ati. - Toshkent: Fan. 2002 yil, 56-bet.
19. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan, 2004. - 128 b.
20. Musurmonova O. va boshqalar. O'quv ishlab chiqarish ta'limi. O'quv uslubiy qo'llanma. T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me]rosi nashriyoti. 2004 y.
21. Nishonaliev U., Tolipov O', Sharipov Sh. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: TDPU, 2007. - 389 b.
22. Olimov Q.T. Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari. Kasb -hunar mакtabgacha ta'lim muassasalarii uchun darslik - Toshkent: G'afur G'ulom, 2002 y. - 255 b.
23. Olimov Q.T. Uchebno-metodicheskoe obespechenie spetsialnykh dissiplin v sisteme srednego spetsialnogo obrazovaniya. // Uzluksiz ta'lim. 2004 y.- № 3. B. 68-75.
24. Olimov Q.T. va boshqalar. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi. T., Fan, 2009. - B. 172.
25. Olimov Q.T., O.A.Abduquddusov, L.P.Uzoqova, M.M.Axmedjonov, D.F.Jalolova. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: «Moliya», 2006 y.
26. Xodjiyev M.T., Olimov Q.T. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi - Toshkent: Fan, 2005. - 73 b.
27. Saliyeva Z.T. Системообразующие и содержательные компоненты воспитательных технологий. // Начальная

- школа сегодня: проблемы преемственности. // Материалы международной образовательной научнопрактической конференции – Казань, 2015. – С.184-185.
28. Saliyeva Z.T. // Профессиональное становление будущего учителя в системе непрерывного образования: теория, практика и перспективы. // Материалы международной научно-практической конференции. – Чехия, 2017. – С. 57-59.
  29. Jump up Wills, Lydia (2000). Complete Idiot's Guide to Sewing. Indianapolis, Ind: Alpha Books. ISBN 0-02-863891-3.
  30. Jump upJolynn Gower (2000). Notions: Over 50 Great Gadgets You Can't Live Without. Taunton. ISBN 1-56158-415-0.
  31. www.de.uz - Masofaviy ta'lim tizimiga bag'ishlangan veb sayti.
  32. www.plekhanov/ru. - Plexanov nomidagi Rossiya iqtisod akademiyasining veb sayti.
  33. www.tgeu.uz. - Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti veb sayti.
  34. www.tatu. - Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti veb sayti.
  35. <http://www.pedagog.uz>

## MUNDARIJA

1-MAVZU. O'zbekistonda kadrlar tayyorash milliy modeli mujassamlashgan ta'lim va uning talablari asosida zamonaviy mutaxassis tayyorlashning huquqiy asoslari- 11 -	
2 - MAVZU. O'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish.- 29	
-	
3 – MAVZU. Maxsus fanlarning o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish .....	48
4 – MAVZU. Maxsus fanlarni o'qitishda ilmiy-tadqiqot metodlarini qo'llash va o'qitish .....	63
5 – MAVZU. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish, o'quv maqsadlari va mazmunini belgilash hamda o'qitish vositalari va didaktik materiallar tayyorlash .....	75
6 – MAVZU. Nazariy va amaliy mashg'ulot tashkil etish va o'tkazish metodikasi .....	99
7 – MAVZU. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	114
8 – MAVZU. ta'lim jarayonida talabalarning bilish jarayonlarini faollashtirish hamda maxsus fanlarni o'qitishda foydalanish tavsiya etiladigan faol metodlarni qo'llash .....	137
9 – MAVZU. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash.....	154
GLOSSARIY .....	183
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	190

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>Тема 1.</b> Образование, в котором воплощена национальная модель подготовки кадров в Узбекистане, и правовые основы подготовки современных специалистов на основе его требований.....	11
<b>Тема 2.</b> Организация работы с учебно-нормативной документацией.....	28
<b>Тема 3.</b> Разработка учебно-методического обеспечения специальных дисциплин.....	47
<b>Тема 4.</b> Применение методов исследования и обучения в преподавании специальных дисциплин.....	62
<b>Тема 5.</b> Организация и проведение учебного процесса по специальным дисциплинам, определение целей и содержания обучения и подготовка учебных пособий и дидактических материалов.....	74
<b>Тема 6.</b> Методика организации и проведения теоретических и практических занятий.....	98
<b>Тема 7.</b> Использование педагогических технологий в обучении специальным дисциплинам.....	113
<b>Тема 8.</b> активизация познавательных процессов учащихся в образовательном процессе и применение активных методов, рекомендуемых к использованию при обучении специальным дисциплинам.....	136
<b>Тема 9.</b> Оценка знаний, умений и навыков обучающихся при обучении специальным дисциплинам.....	153
<b>Глоссарий.</b> .....	182
<b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.</b> .....	189

## CONTENTS

<b>1-SUBJECT.</b> The legal basis of training of modern specialists on the basis of Education embodied in the national model of training of personnel in Uzbekistan and its requirements.....	11
<b>2-SUBJECT.</b> Organization of work with educational and normative documents .....	28
<b>3-SUBJECT.</b> Development of educational and methodological supply of special subjects.....	47
<b>4-SUBJECT.</b> Application and teaching of research methods in teaching of special subjects.....	62
<b>5-SUBJECT.</b> Organization and conduct of the process of teaching special subjects, setting educational goals and content, preparation of teaching aids and didactic materials.....	74
<b>6-SUBJECT.</b> Methods of organization and conduct of theo-retical and practical training.....	98
<b>7-SUBJECT.</b> The use of pedagogical technologies in the process of teaching special subjects.....	113
<b>8-SUBJECT.</b> active methods of activating students ' cognition processes in the educational process and recommended use in the teaching of special subjects.....	136
<b>9-SUBJECT.</b> Evaluation of the knowledge, skills and qualifications of the educators in the teaching of special subjects.....	153
<b>Glossary</b> .....	182
<b>LIST OF LITERATURE</b> .....	189

TO'XTAYEVA Z.SH.

# *Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi*

*Muharrir:*

*G'.Murodov*

*Texnik muharir:*

*G.Samiyeva*

*Musahhih:*

*M.Raximov*

*Sahifalochi:*

*M.Arslonov*



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original –  
maketdan bosishga ruxsat etildi: 29.12.2020. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. « Palatino Linotype» garn. Ofset bosma  
usulida. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tabog'i 12.25 Adadi 100.

Buyurtma № 88.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahar O'zbekiton Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.  
Tel: 0(365) 222-46-46



ISBN-978-9943-6896-4-0

9 789943 689640